




**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI**

ALIYBEK RUSTAMOV

**MUMTOZ ADABIYOTDAN
QATRALAR**

*SHARQSHUNOSLIK TOLIBLARI UCHUN
QO'LLANMA*

TOSHKENT - 2011

Qo'lingizdagi kitobda milliy adabshunoslik (filologiya)ga oid muhim va tamal tushunchalarning izohi va mumtoz adabiyot asoslari hamda asar tahlili uslubiga doir masalalar bayon qilingan. Qo'llanma sharq filologiyasidan mutaxassis bo'lishga kirishgan talabalarga mo'ljallangan.

Toshkent davlat sharqshunoslik institutining o'quv-uslubiy kengashi
nashrga tavsiya etgan

Mas'ul muharrir: filologiya fanlari doktori, professor
QOSIMJON SODIQOV

Taqrizchilar: filologiya fanlari nomzodi, dosent
QUDRATULLA OMONOV
filologiya fanlari nomzodi, dosent
ZIYODXON HAMIDOV

TAQDIM

Har bir o'quvchi o'z vatanining sodiqu solih farzandi bo'lib yetishishi uchun avval o'z ajdodining ma'naviy va madaniy merosini o'z millatining sunniy va urfiy amallarini yaxshi anglab, egallab davom ettirishi, so'ngra jahonda kashf qilinayotgan ilmu fan yangiliklarining o'z eli ravnaqiga muvofiqlarini o'zlashtirishi zarur. Avlodning bu darajaga erishishi uchun sog'lam muhit va qulay vaziyat, milliy tarbiya va shunga asoslangan jahonshumul ta'lim kerak. Mana shu haqiqatni hamda Yurtboshimizning milliy merosu qadriyatlarimizga va sog'lam avlod tarbiyasiga alohida e'tiboru g'amxo'rlik ko'rsatayotganini hisobga olib, hayot ustozim va valine'matim O'lmas aka Muhammadsharifning targ'ibu tashviqu bilan ushbu kitobchani yozishga qaror berib, uni joriy yil e'tibori bilan O'lmas aka tavalludining yetmish yilligiga bag'ishladim.

DEBOCHA

Qadimshunoslarning qazilma dalillariga ko'ra o'lkamizda ilmu fan va madaniyat juda qadim zamonlardayoq rivoj topgan. Islomdan so'ng esa bu sohalarida bir yuksalish yuz berib, bizning alloma, san'atkor va hunarmandlarimiz jahon tamadduniga salmoqli xissa qo'shdilar. Imom Buxoriy, Burhoniddin Marg'inoniy, Hakim Termiziy, Muhammad ibn Iso Termiziy, Abu Mansur Moturidiy, Abulays Samarqandiy kabi olimlar shar'iy ilmlarni rivojlantirgan bo'lsalar, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Abduxoliq G'ijdivoniy, Yusuf Hamadoniy, Bahouddin Naqshband, Hoja Muhammad Porso, Xoja Ahror kabi karomat sohiblari g'ayb olamiga yo'l ochdilar.

To'qqizinchi asrda Muhammad ibn Muso Xorazmiy al-jabr (algebra) ilmiga asos solib, algoritimni yaratdi va sanoqning eng mukammal bo'lgan o'n raqamli tizimining Yevropada keng tarqalishiga sababchi bo'ldi. Ahmad ibn Muhammad Farg'oniyni jug'rofiya va yulduzshunoslikka oid asarlari XII asrda lotin tilida Yevropaga tarqaldi. X-XI asrlar ilmu fan olamiga Forobiy, Buzjoniy, Abu Mahmud Xo'jandiy, Abusahl Masihiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy kabi allomalarni va ko'plab ayrim sohalariga oid olimlarni taqdim qildi.

So'ngra mo'g'ul istilosi davrida tushkunlikka uchragan ilmu fan va san'at yana temuriylar davrida ravnaq topdi. Ilmu fan, hunarmandchilik va nafis san'atlarning hamma sohalarida mohir mutaxassislar paydo bo'ldi. Ulug'bekning ziji G'arb astranomiya asos bo'ldi. Navoiy akademiyasida hozirgacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan yuzlab ilmiy, tarixiy va adabiy asarlar yaratildi. Raiyat orasida savodsiz, hunarsiz, san'at zavqidan bebahra kishilar va xurofotga berilgan mutaasiblar ozdan oz qoldi.

Mazkur muvaffaqiyatlarning tarbiyaviy omili bobolarimizning fozil murabbiylardan insoniy fazilatlarni yaxshi o'zlashtirganliklaridan. Islom ma'rifatida fazilat ko'p. Bulardan «Fazoyil-i arba'a», ya'ni to'rt fazilat deb atalganlari mashhur. To'rt fazilatning birinchisi hikmat, ikkinchisi shijo'at, uchinchi iffat, to'rtinchisi adolatdir.

Hikmat fazilat tushunchasini anglatganda u ikki quvvatdan iborat bo'lib, to'rt xislatni o'z ichiga oladi. Quvvatlarning biri nazariy quvvat bo'lib, bu inson qudrati doirasida mavjudot haqiqatini idrok qilishdir. Ikkinchisi amaliy quvvat bo'lib, bu ezgu amallar bilan yaxshi xulqlarni odat qilishdir. Hikmatga oid to'rt hislatlarning biri zako, ikkinchisi zehn safosi, uchinchi xusn-i taaqul, to'rtinchisi tahaffuzdir.

Zako ko'p narsani teran o'rganish natijasida kishi ongining kuchayib, sezib bilinadigan narsalar asosida mantiqiy natijalar chiqarib sezgi uzvlari bilan sezib bo'lmaydigan narsalarni anglay olishdir. Zakoga shunday misol keltirish mumkin. Ibn Sino zarrabin, ya'ni mikroskop yo'q paytida yuqumli kasalliklarni turli mikroblar tarqatishini kasalning tarqalishi xususiyatiga asoslanib bilgan. Zakoning quyi darajasiga bir misol: Ibn Sino Hamadonga borganda bir tabibning qabulxonasiga kirganda kursi ustidagi bir kitobga ko'zi tushishi bilan «bu «Qonun»mi, - deb so'raydi. Tabib: «Siz ash-shayxu-r-raismisiz, - deydi. «Ash-shayxu-r-rais» Ibn Sinoga berilgan laqab bo'lib, «olimlarning eng ulug'i» degan mazmunga ega. Shunda bir xotin o'zini tabibga ko'rsatgani keladi. Tabib uning nabzini ushlab ko'rib, «kecha tovuq yedingmi?», deb so'raydi. Xotin: «ha», deb javob beradi. Yana tabib: «bugun qatiq ichdingmi?», «darvozaqiz qiblaga qaraganmi?», deb so'raydi va ijobiy javob oladi. Ibn Sino tabib xotinning tomir urishidan tovuq yeb qatiq ichganini bilgan, ammo uning darvozasining qiblaga qaraganini qanday qilib bilgan ekan, deb ajablanib xotin ketganidan keyin tabibdan buning sirini so'raydi. Tabib xotinning tilidan uning yohudiy ekanligini bilganligini, kecha shanbaligini, shanbada hamma yohudiylar tovuq yeyishini va bu shahardagi yoxudiylarning hammasini darvozasi qiblaga qaraganini aytadi. Xotinning qatiq ichganligini esa uning kiyimiga tomgan qatiqdan anglashilganini bildiradi. Yana Ibn Sino: «mening kimligimni qayerdan bilding?», -deb so'raganida, u: «bu kitobni qo'lga olib, uning «Qonun» ekanligini hech kim bilolmaydi. Siz ko'rishingiz bilan tanidingiz. Shundan siz shu kitobning muallifi ekanligingizni bildim», deydi.

Kishida zako yetishmay zakiy bo'lmasa, har qancha ilmiy ma'lumotga ega bo'lmasin, undan to'g'ri foydalanolmaydi. Bunga quyidagi latifa qahramoni misol bo'la oladi:

Bir tabib o'z o'g'liga tib ilmini yaxshilab o'rgatadi. Bemorning ixlosini qozonish yoki parhezni buzganligini fosh qilish uchun uning nima yeb-ichganligini o'zidan so'ramasdan aytish

kerakligini uqtiradi va buni uydagi idish va taom qoldiqlaridan bilish mumkinligini aytadi. Yigit bir bemorni ko'rgani kelganda eshik yonida yotgan to'qimni ko'rib, unga siz eshak go'shti yebsiz, deydi.

Zakiyligi oliy darajaga yetgan zakiy birovning o'ylagan o'yini ham biladigan bo'ladi. Bir kuni to'rt eshiklik xonada o'tirgan Mahmud G'aznaviy Abu Rayhon Beruniyga: «men hozir qaysi eshikdan chiqishimni qog'ozga yozib gilam ostiga qo'y»,- deydi. Beruniy shunday qiladi, Mahmud G'aznaviy usta chaqirib, beshinchi eshik ochirib, shu eshikdan tashqariga chiqadi. Qog'ozni olib o'qiganida, unda ayni shu amal yozib qo'yilgani ma'lum bo'ladi.

Zehn safosi bir mas'ala, jumboqning yechimi yoki bir ishning natijasini qiynalmay oson va tez o'ylab topishdir.

Taaqqul to'g'ri fikr yuritib xato va yanglishlardan saqlanish, aqlni yaxshi tomonga ishlatishdir. Chunki niyat buzilsa, kishi aqldan suistemol qilishi mumkin. Bu holda kishi ongida xato fikrlar paydo bo'ladi, mafkura buziladi, natijada kishi hikmatdan yiroqlashib to'g'ri yo'ldan ozadi.

Tahaffuz ko'rgan, bilib olgan va o'rgangan narsalarni yaxshi eslab qolib, kerak bo'lgan paytda tezda esga keltira olishdir.

Endi **shijoatga** kelsak, bu xavfli vaziyatlarda kishini to'g'ri yo'l va asl maqsaddan chekinishga yo'l qo'ymaydigan kuch bo'lib, u oltita xislatni o'z ichiga oladi. Bularning biri **kibr-i nafs**, ya'ni nafsoniy ulug'vorlik bo'lib, bu kishini ulug' ishlarni amalga oshirayotganda rohat yoki mashaqqatlarga parvo qildirmaydi. Masalan, vatanni tashqi dushmandan himoya qilish ulug' ish. Bu ishda sadoqat ko'rsatilsa, jon xatari bor, agar hiyonat qilinsa, dushman iltifoti tufayli rohatga erishish mumkin. Gohon zaif kishilar o'limdan qo'rqib, yolg'iz o'z jonining rohatini ko'zlab, o'z xalqiga hiyonat qilib, uning asoratiga tushishiga imkon tug'dirib berishi mumkin. Ammo nafsan tetik kishi jonidan kechadi, razilona maishatlarni o'ziga harom deb biladi va dushmanga yordam bermaydi, o'z xalqini sotmaydi. Qizig'i shu yerdaki, bugungacha jon saqlab rohat qilgan xoinni tarix ko'rgan emas. Bularning ko'plarini u yordam qilgan o'sha dushmanning o'zi turli tahqirlar bilan xoru zor qilib o'ldirgan.

Ikkinchisi **uluvv-i hikmat**, ya'ni oliyhimmatlik bo'lib, bu insoniy kamolot yo'lida g'ov bo'ladigan harqanday qiyinchilikka e'tibor bermay ezgulikka mardona intilishidir.

Uchunchisi **hilm** bo'lib, bu xislat har qancha g'azab qo'zg'aydigan ish sodir bo'lganda ham o'zini bosib muloyimlik ko'rsatishdan iborat.

To'rtinchisi **tavozu'dir**. Tavozu' o'zgalarga, ayniqsa martaba va fazilatda o'zidan quyi bo'lganlarga nisbatan o'zini ulug' hisoblamaslikdir.

Beshinchisi **hamiyat** bo'lib, bu o'z xalqining va o'zga ellarning urfu odatlarini hurmat qilish, jamiyatning qonunu qoidalariga rioya qilish, o'zining va do'stlarining sharafini saqlashdan iborat.

Oltinchisi shafqat bo'lib, bu kishining o'z jinsiga ya'ni joni bor hamma narsaga rahmli va shafqatli bo'lish, o'zgalarning dardu alamlarini, qiyin ahvolini hisoga olib shunga yarasha, lekin iztirobga tushmasdan amal qilishdir.

Endi **iffatga** kelsak, iffat deganda shahvat, ya'ni lazzat va manfaatga bo'lgan intilishning aqlga bo'ysundirilishi tushuniladi va bu bir necha xislatni o'z ichiga oladi.

Bularning biri **hayo** bo'lib, bu uyat va yengiltaklik hisoblangan ishlardan tiyilishdir.

Yana biri **sabr** bo'lib, bu nafsoniy quvvatlarni jilovlashdir.

Yana biri **qanoat** bo'lib, bu yeb-ichmak va kiynimkning imkon va zarurat darajasidan ortig'ini talab qilmaslikdir.

Yana biri **viqordir**. Viqor talab qilingan narsalarga erishishga bo'lgan ishonch bilan kirishib, shoshma-shosharlik qilmaslikdir.

Yana biri **maishatni halol kechirish**, molni yaxshilik bilan topib, yaxshilikka sarf qilishdir.

Yana biri **sahovat** bo'lib, bu achinmasdan va ayamasdan lekin haddan oshirmasdan molni kerak bo'lgan o'rinlarda, o'ziga, yaqinlariga va muhtojlarga sarf qilish malakasidir.

Endi adolatga kelsak, bu hammani teng ko'rib, hammaga birday munosabatda bo'lishdir. Adolat, sadoqat, vafo, taslim, xizmat kabi hislatlarni o'z ichiga oladi.

Sadoqat chin do'stlik bo'lib, bunda kishi o'ziga ravo ko'rganni o'zgaga ravo ko'rib, o'ziga ravo ko'rmaganni o'zgaga ham ravo ko'rmaydi.

Taslim shar'iy hukmlarni, mavjud qonunu qoidalarini va ko'pchilikka ma'qul bo'lgan narsalarni o'ziga eqmasa ham mamnuniyat bilan qabul etishdir. Xizmat bu kishining o'z vazifa burchlarini yaxshilab ado etishdir.

Vafo kishining o'z nav'iga, xususan yaqinlariga mardona munosabatda bo'lishdir.

Har bir bola ushbu zikr etilgan fazilatlarini egallab, taxsil ko'rib va mutolaa qilib, mazkur bobolarimizning darajasiga yetish iste'dodi bilan tug'iladi. Jamiyatda siyosiy, iqtisodiy va ma'rifiy sharoit bo'lgan taqdirda bolada intilish bo'lsa, bu iste'dod bilan fe'l o'z samarasini beradi.

Bolaning o'ziga bog'liq muhim shartlardan biri shuki, u erinchoqlik va o'yinqaroqlikni yaqiniga yo'latmasligi kerak. Dangasalik va ishyoqmaslik o'quvchining eng xavfli dushmani bo'lib, bu dushman uni umrbod ma'yub qilib qo'yadi. Buning aksi mehnatsevarlik, tirishqoqlik o'quvchining eng yaqin do'sti bo'lib, uni toabad har jihatdan sog'lam va tetik saqlab boradi. O'quvchining televizordan ko'radigan tamoshasi, radiodan tinglaydigan eshittirishlari, o'tirishu suhbatlari, o'yin kulgularining hammasi insoniy ma'no va mazmunga ega bo'lishi kerak.

Yana bir muhim shart - vaqtni g'animat bilish va o'qishu hunar o'rganishni bir kun ham to'xtatmaslik va bir daqiqa ham kechiktirmaslik. «Bugungi ishni ertaga qo'yma», «Qolgan ishga qor eg'ar» degan maqollar teran mazmunga ega. O'quvchilik davrida yo'qolgan har bir soat o'rnini keyinchalik yillar bosolmaydi, holbuki umrning har bir nafasi aziz.

Muhim shartlardan yana biri maktab, bilim va hunar yurtlarining hamda o'qituvchi va ustozlarning qadriga yetish, ixlos bilan o'qishu o'rganish va ularni qattiq izzatu hurmat qilishdir. Ixlos bo'lmasa, bilim va hunarni olib bo'lmaydi. Izzatu hurmat bo'lmasa, ustozning bilim va hunarini to'liq o'zlashtirib bo'lmaydi. Bilim va hunarning kishi turmushi, uning ahloqi va kamoli uchun ahamiyati juda ulug'dir. Chunki hunarli bilan hunarsizning orasida yer bilan osmoncha farq bor. Hunar o'z tabiati bilan ezgu bo'lgani uchun u kishida ijobiy xislatlarni paydo qilib, uning ma'naviy jihatdan ham rivojlanishiga ko'maklashadi. Hunarsizda bu omilning yo'qligi uning ma'naviy qashshoqligiga sabab bo'ladi. Ma'naviy qashshoqlik kishida salbiy hislatlarni rivojlantiradi. Salbiy xislatlar esa shaxsni ruhiy marazlarga duchor qilib uni halokatga olib keladi.

Kishining qancha hunari ko'p bo'lsa, o'z hunariga qanchalik mohir bo'lsa, uning insoniy jihati shunchalik rivojlangan va shunga yarasha shavqu zavqi, fahmu farosati, lutfu nazokati taraqqiy qilgan bo'ladi. Hunarsiz kishida buning aksi bo'ladi. Shuning uchun xalqimiz «Hunari yo'q kishining mazasi yo'q ishinig» degan.

Mana shuning uchun ota-onalar o'z farzandlarini, o'qituvchilar o'z o'quvchilarini, davlat rahbarlari butun avlodni ilm olib, hunar egallashga targ'ib qiladilar.

Oqil yoshlar bunga javoban ularga yaratilgan imkoniyatlardan samarali foydalanib, bobolarimizning ma'naviy va ma'rifiy, ilmiy va fanniy, adabiy va ahloqiy merosini mukammal o'rgangan holda o'zlariga eqqan ilmu hunarlarini egallaydilar. Bundan ham o'zlari ulug' manfaat ko'radilar, ham jamiyatga foyda keltiradilar.

ODOB VA ADIB

«**Adab**» so'zining birinchi ma'nosi har bir ishda me'yorni saqlashdir. Ishni chegaradan chiqmasdan me'yori bilan qilish uchun bilim kerak bo'lgani uchun «adab» bilim ma'nosini ham o'z ichiga oladi. Binobarin «adab» deganda o'qib, o'rganib, hushaxloq bo'lib, muomala va ishni o'rniga qo'yib bajarish ko'nikmasi tushuniladi.

Adab sarrishtasin tutqil, adabdin yaxshi roz o'lmas

Adabsiz ikki olamda bilingkim sarafriz o'lmas.

Deganda shoir «adab» so'zining mazkur ma'noda ishlatgan. «Adab o'rganmak», «adab o'rgatmak» kabi murakkab fe'llar tarkibidan ham «adab» so'zi mazkur ma'nodadir.

Adabsizni adabga keltirish uchun ba'zan terlash va ba'zan jazolash ham kerak bo'ladi. Shunga binoan «adab» so'zi ta'zir ma'nosida ham qo'llanadi. «Adabini bermak», «adabini yemak»

yoki adabini olmoq» deganda «*adab*» ta'zir ma'nosidadir. Mumtoz adabiyotda «*adabini bermak*» o'rnida ko'proq «*adab qilmoq*» ishlatiladi.

Adabiyot so'zi mana shu «*adab*» so'zidan uning tarbiyaviy va ilmiy ma'nolarini ko'zda tutib yasalgan bo'lib, uning lug'aviy ma'nosi adabga tegishli narsalar, jumladan asarlardir.

«*Odob*» so'ziga kelmak, bu so'z aslan «*adab*» so'zining ko'pligidir. Mumtoz adabiyotda «*odob*»ning ko'pligi sifatida qo'llanadi. Ammo hozir so'zlashuvda uning ko'plikdagi uqilmaydi va qisman «*adab*» o'rnida qo'llanadi. Undan tashqari «*odob*» so'zi inson faoliyatining ayrim sohalariga oid qoidalar va ularni rioya qilish ma'nosida ham ishlatiladi. Masalan, «**turmush odobi**», «**kiyinish odobi**», «**muomala odobi**», degandagi «*odob*» ana shu ma'nodadir. Bu ma'nodagi «*odob*» ruschaga «*kultura*» deb tarjima qilinadi.

«*Adab*» va uning ko'pligi «*odob*» so'zining maxsus ilmiy ma'nosi ham bor. Bu holda mazkur so'zlar adabiy ilmlarni, ya'ni til va adabiyot bilan bog'liq ilmlarni anglatadi. Bundan o'sha ilmlarning adab egallash va odobli bo'lish uchun zarurligi nazarda tutilgan. Avro'pada shu ma'nodagi adab so'zi qarshisida lug'aviy ma'nosi «**so'z sevish**» bo'lgan «**filologiya**» atamasi qo'llaniladi.

Adabiy ilmlar ma'nosidagi odob quyidagi qismlarni o'z ichiga oladi.

1. Lug'at ilmi
2. Sarf ilmi
3. Ishtiqoq ilmi
4. Nahv ilmi
5. Maoniy ilmi
6. Bayon ilmi
7. Aruz ilmi
8. Qofiya ilmi
9. Insho
10. She'r farzi
11. Muhozara
12. Rasmu-l-xat

Bularning avvalgi sakkiztasi usul, ya'ni adabiy ilmlarning asosiylari, keyingi to'rttasi furu', ya'ni adabiy ilmlarning amaliy tarmoqlari hisoblanadi. «Lug'at» deganda so'zning aniq bir gapdagi maxsus holati emas, tildagi mutlaq jihati tushuniladi. G'arb tilshunosligida bu «leksika», ya'ni lug'aviy birlik deb ataladi. «Lug'at»ning ko'pligi «lug'ot»dir. Masalan, «O'zbek tilining lug'oti» deyilganda shu tildagi hamma so'zlar, «O'tgan kunlar» romanining lug'oti» deyilganda shu romandagi hamma so'zlar nazarda tutiladi. Shunga binoan lug'at ilmi tilning lug'aviy birliklari haqidagi ilmdir. Sarf so'zning o'zgarishi haqidagi ilmdir. O'zbek tilida so'zni qo'shimchalar o'zgartiradi. Masalan, «kitob» so'zining «kitoblar», «kitobim», «kitobni» degan va hokozo shakllari bor. Bunday so'z shakllari «siyg'a» deb ataladi, «kitoblar» ko'plik siyg'asi, «kitobim» birinchi shaxs, birlik, egalik siyg'asi, «kitobni» tushum siyg'asi. Ba'zi tillarda so'z o'zgarishi so'zning o'zgaradigan qismini o'zgartirish natijasida sodir bo'ladi. Arab va rus tillarida bu hodisa mavjud.

Sarf ruschada «**morfologiya**» deb ataladi. Nahv ilmi so'zlarning gapdagi tarkib qoidalar haqidagi ilm bo'lib, bu G'arbda «**sintaksis**» deb ataladi. So'z sarf va nahv mavzui bo'lganda «kalima» deb ataladi. Ishtiqoq so'z yasalishi haqidagi ilm. Bu g'arbda «**derivasiya**» deb ataladi.

Maoniy kalomning hol talabiga mosligi haqidagi ilm, bayon ifoda yo'llari haqidagi ilm.

Aruz nazm vaznlari, qofiya misralarining hamohang qilib tugatish qoidalar haqidagi ilm. Insho turli maktub, risola va hujjatlar yozish qoidalaridan iborat. She'r farzi she'rga baho berishdir. Bundagi «*farz*» so'zi «*furuz*» shaklida yoki uning o'rnida «*naqd*» so'zi ham ishlatiladi. «*Tanqid*» so'zi «*naqdlash*», ya'ni baholash degan ma'nodadir.

Muhozara tarixiy voqea va rivoyatlardan, salaflarning hikmatli so'z va adabiy asarlarida o'z o'rnida foydalana bilishdir. Rasmu-l-xat yozuv san'ati, harf shakllari va imlo bilimidan iborat.

Odobga, taalluqli mazkur adabiy ilm va fanlarni egallagan olim «*adib*» deb ataladi. Bu ma'nodagi adib so'zi ruschaga «*filolog*» deb tarjima qilinadi.

ERDAM BOSHI TIL

«**Erdam boshi til**» Mahmud Qoshg'ariyning lug'atida qayd etilgan juda qadimiy maqoldir. Bu maqoldagi «*Erdam*» so'zi «*adab*» va «*odob*» so'zlarining turkiy muodilidir. Ajdodimiz mana shu maqolga va «**ummu-l-'ulum**», ya'ni ilmlarning onasi degan iboraga asoslanib hamma ilmlardan oldin tilni va til ilmini diqqat bilan tugal o'rganganlar. Chunki tilni ilmiy va amaliy jihatdan mukammal egallamasdan boshqa ilmu fanlarni asosli ravishda o'zlashtirib bo'lmaydi.

Til inson hayotida oddiy bir tus olganligi tufayli kishi uning qanchalik muhim ekanligini yetarli darajada anglay olmaydi. Holbuki insonni inson qilgan, ilm fan va iqtisodu madaniyatni rivojlantirgan hamda dunyoni obod qilgan vositalarning asosiysi mana shu tildir. Buyuk alloma Abu Ali ibn Sino inson hayvondan aqli va tili bilan farq qiladi, shuning uchun insonning eng yetugi oqil va chechani degan edi. Kishilar til vositasida bir-biridan bilim va hunarni o'rganadilar va rivojlantiradilar hamda bilim va hunar deb atalgan haqiqiy boylikni avloddan avlodga til hazinasi tufayli topshirib boradilar.

Tildagi har bir so'z bir xazinadir. Shuning uchun Xusrav Dehlaviy

«*Suxan-i borik hamchu mo' dar dahon*

Vale namegunjad dar du jahon»

Ya'ni:

Nozik so'z og'izda qil singaridir,

Lekin ikki jahonga sig'maydi.

Degan edi.

Alisher Navoiy ham so'z haqida shunday degan edi:

"...So'z durredurkim, aning daryosi ko'nguldur va ko'ngul mazxaredurkim, jomi'i maoniyi juzvu kuldur. Andoqkim, daryodin gavhar g'avvos vositasi bila jilva namoyish qilur va aning qiymati javharig'a ko'ra zohir bo'lur. Ko'nguldur dag'i so'z durri nutq sharafig'a sohib-i ixtisos vasilasi bila guzorish va oroyish ko'rguzur va aning qiymati ham martabasi nisbatig'a boqa intishoru ishtihor topar. Gavhar qiymatig'a nechukkim, marotib asru ko'pdur, hattoki, bir diramdin yuz tumangacha desa bo'lur.

Qit'a:

Injuni olsalar mufarrih uchun,

Ming bo'lur bir diramg'a bir misqol,

Bir bo'lur hamki, shah quloqqa solur:

Qiymati mulk, ibrasi amvol.

So'z durrining tafovuti mundin dog'i beg'oyatroq va martabasi mundin ham benihoyatroqdur. Andoqki, sharifidin o'lgan badang'a ruhi pok yetur, kasifidin hayotliq tang'a xaxri halok xosiyati zuhur etur." (Navoiy asarlari 15 tomlik, 14 tom. T. 1967, s.105.)

Til o'ta murakkab bir ilohiy hodisa bo'lib, uning turli jihatlari bor. Tilning moddiy jihati tovushdir, yozuvda xarf. Lekin xarf tovushga nisbatan ikkilamchi hodisadir. Tabiiy tillarning hammasi tovushdan iborat bo'lib, xarf tovushning zamon va masofasini kengaytirish uchun paydo bo'lgan belgidir.

Tovush tabiatan havo to'lqinlaridan iborat bo'lgani uchun u jonsiz tabiiy hodisalarga o'xshaydi. Ammo til tovushi og'izdan chiqib quloqqa eshitiladi. Mana shu aytilish va eshitilish jihatdan u har bir kishiga xosdir. Ammo til yakka shaxsga xos tug'ma xodisalarga kirmaydi. Chunki til mavjud bo'lishi uchun ko'pchilik, jamiyat bo'lishi shart. Masalan, kishi bolalikdan kishilar orasida o'smasa, u umuman til bilmaydi. Kishilar orasida o'sganda ham o'z millatidan qat'iy nazar qaysi xalq orasida o'ssa, shu xalq tili uning ona tilisi bo'ladi. Ingliz Arabistonda katta bo'lsa, arab tilini bilib, ingliz tilini bilmaydi. Agar arab Angliyada ulg'aysa, ingliz tilini bilib, arab tilini bilmaydi. Arablar orasida o'sgan ingliz xalqining tilini o'rganmoqchi bo'lsa, uni chet

tiliday o'rganadi, inglizlar orasida voyaga yetgan arab ham o'z xalqini tilini o'rganishni istasa, uni chet tilini o'rganganday o'rganadi.

Demak, til mohiyatan tabiiy xodisa ham, yakka kishiga xos hodisa ham emas ekan. Til faqat bir jihati, ya'ni tovush tomoni bilan tabiiy yana bir jihati nutqiy qobiliyat tomoni bilan yakka shaxsga xos. Ammo mohiyat e'tibori bilan jamiyat mahsuli bo'lib, ijtimoiy hodisa ekan.

Har bir narsaning mohiyatini aniqlashda uning vazifasini ham hisobga olish kerak ekan. Tilning vazifasi nimadan iborat? Tilning bir necha vazifasi bor, lekin bizga uning asosiysi, uning ijtimoiyligi bilan bog'liq vazifasi kerak. Kishilar biror hodisa, fikr, istak, so'roq yoki hayajonni til bilan ifodalaydilar. Ifodalanmish narsani bir biriga bildiradilar. Demak til ifoda va aloqa vositasi ekan. Tilning aloqa vositasi bo'lish vazifasi uning ijtimoiyligini taqozo qiluvchi vazifadir. Shunday qilib tilning mohiyati uning ijtimoiyligi, ifoda va aloqa vositasiligidan iborat ekan.

Tilshunoslik va mantiqda til bilan tafakkurni qorishtirmaslik ta'kidlanadi. «**Til va tafakkur**» mavzui tilning ana shu ifoda vositasi ekanligi bilan aniqroq qilib aytganda uning fikr ifodalashi bilan bog'liq.

«*Tafakkur*» fikr yuritish, o'ylash degani. Inson hayvondan o'ylash qobiliyati bilan farq qiladi. Yashash uchun har bir jondor o'zidan boshqa jonli va jonsiz mavjudot bilan ma'lum bir munosabatda bo'lishi shart. Unga havo, suv va ozuqa kerak, dushmandan o'zini saqlashi, do'stiga ko'maklashishi lozim. Hayvondagi bu munosabat ongsiz ravishda amalga oshadi. Hayvon o'ylab ish qilmaydi. Uning hamma harakati tug'ma tabiiy va qisman taqlidiy ravishda kechadi.

Insonning hayvondan farqli o'laroq ma'naviy jihati ham bo'lgani uchun uning o'z atrofiga bo'lgan munosabati ongli tarzda bo'ladi. U har bir ishni o'ylab qiladi. Har bir kishi o'z ishining unumli bo'lishini va yaxshi natija berishini istaydi va bunga erishishning turli yo'llarini o'ylab topadi. Kishining boshqa insoniy jihatlari singari uning tafakkuriga aloqador tomoni ham o'z tajribasi va o'zgalardan o'rganish natijasida to'plana borgan bilim hisobiga rivojlana boradi. Bunda kishilarning bir biri bilan fikrlashishi eng zaruriy shartlardan biridir. Kishilar bir birining fikrini bilmasa, o'zlashtirmasa, avloddan avlodga qoldirmasa, jamiyatda ham har bir shaxsda ham rivoj bo'lmaydi. Fikrni ifodalash uni bir biriga ma'lum etishda til vositachilik qiladi. Shu bilan birga fikrlash jarayonida ham tilning bevosita ishtiroki bo'ladi va til tafakkurning rivojlanishiga, ongning o'sishiga yordam beradi.

Fikrni til vositasi bilan ifodalash uni gapga aylantirib aytish yoki yozishdan iborat. Shu yo'l bilan fikr o'zgalarga bildiriladi. Fikr aytilmasa yoki yozilmasa, u ifodasiz va noma'lum bo'lib qoladi. Demak fikr til tufayli voqi'lashar, zehindan tashqariga chiqib, tabiiy mavjudot tusini olar ekan. Fikrlash jarayonidagi tilning ishtiroki shundaki, kishi bir narsani o'ylaganda shuning suvrati va tushunchasi bilan barobar o'sha narsa va tushunchani anglatuvchi so'zlar ham hayolga keladi, hamda o'ylash natijasida vujudga kelgan hukm bilan birga uni ifodalash mumkin bo'ladi. Gap shakllari ham hayoldan kechadi. Hatto so'zlar va gap tovush chiqarmasdan aytilgandek ham bo'ladi.

Tafakkur bilan tilga mana shu jihatdan qaraganda, ya'ni fikrning ifodalanishi va fikrlash vaqtida tilning ishtirokini e'tiborga olinganda tafakkur va til bir narsaning ikki, ichki va tashqi jihatlaridan iboratga o'xshaydi. Ammo tafakkur bilan tilning o'ziga xos xususiyatlarini nazarga olsak, unda biz ularni aynan bir narsa deb bilolmaymiz. Chunki o'ylash bilan so'zlash bir narsa emas. Mana shuning uchun bir narsa haqida ongimizda hosil bo'lgan bilimni «tushuncha» deymiz. O'sha narsa va tushunchani bildirish uchun aytiladigan lafzni «so'z» deymiz. Biror hodisani o'ylab, miyamizda bir qarorga kelsak uni «hukm» deymiz, agar shu hukmni so'z bilan ifodalab aytsek, uni «gap» deymiz. Shunday qilib, tafakkur bilan til aynan bir narsa emas, ammo ularning orasida uzviy aloqa mavjud ekan.

Tilning ma'rifiy ahamiyati ham ulug'dir. Tilning bilish borasidagi ahamiyati oddiy bilim bilan cheklanmay, ma'rifatni, ya'ni bilishning eng oliy martabasini ham o'z ichiga oladi.

Dunyoga kelgan har bir bola haqiqiy inson bo'lib yetishishi uchun u juda ko'p narsalarni bilishi kerak. U o'ziga kerakli bilimni ko'rib hamda eshitib va o'qib o'rganadi. Eshitib va o'qib o'rganish til vositasida amalga oshadi va buning imkoniyati cheksizdir. Agar til bo'lmay, har kishining tirikligi uning o'z tajribasiga asoslangan bo'lsa edi, inson shu kungacha hayvon qanday yashasa, shunday yashagan bo'lar edi. U bugungi madaniy va ma'naviy taraqqiyotga erishmagan bo'lar edi.

Tilning birinchi ma'rifiy ahamiyati shundan iboratki, til tufayli jamiyat a'zolarining har birida hosil bo'lgan bilim ommalashib uning ko'pchilik tomonidan rivojlantirilishiga imkon tug'iladi. Undan tashqari til tufayli bilim avloddan avlodga og'zaki va yozma tarzda qoldiriladi, natijada yangi avlod o'tgan avlodning ishini yangidan boshlamasdan, uni davom ettiradi. Bu bilan yana taraqqiyot ta'minlanadi.

Til ilm olishda zamon va makon g'ovini o'rtadan ko'taradi. Til tufayli eng qadimgi ma'lumotlarga ega bo'lamiz, hatto kelgusiga oid ma'lumotlarni ham olamiz. Koinotning hamma yeridagi ma'lumotni so'z bilan ifodalab bildirish mumkin.

Har bir o'quvchi maktabda qanchadan qancha bilim oladi. Shu bilimlarni olishga til tufayli muayassar bo'ladi. Aks holda har bir o'rgatlayotgan narsani, hech bo'lmaganda uning suvratini o'quvchiga ko'rsatish kerak bo'lar edi. Bu albatta juda ko'p vaqtni va joyni talab qilar edi.

Bugina emas, biz til tufayli sezgi uzvlari bilan bilib bo'lmaydigan narsalarni ham o'rganamiz. Ko'rinishi, shakli bor narsalarning aksi ongimizga o'rnashishi mumkin, lekin shaklsiz narsalarni biz faqat so'z shaklida o'zlashtiramiz. Huddi shuningdek mavjudotning ko'rinmas ichki jihatlarini ham so'z shaklida o'zlashtiramiz va til vositasi bilan o'zgalarga tushuntiramiz.

Tilning o'rganish va o'rgatishning juda osonlashtiradigan yana bir xususiyati shundaki u umumlashtirish xususiyatiga ega. So'z yordamida biz mavjudotni o'rganib umumiy tushunchalar hosil qilamiz va bu tushunchalar mavjudotning umumiy xoslarini o'rganishga hatto ularning haqiqatini idrok etishga imkoniyat tug'diradi. Til tufayli biz haq bilan nohaqni, yaxshi bilan yomonni bir biridan farqlashni o'rganamiz.

Shunday qilib til juda katta ma'rifiy ahamiyatga ega ekan. Ammo tilning ahamiyati bu bilan tugamaydi. Uning juda ulug' badiiy ahamiyati ham bor. Tilning badiiy imkoniyati cheksizdir. Til imkoniyatining cheksizligi va ahamiyatining nihoyatda ulug'ligi uning ham moddiy va ham ma'naviy olamlarini qamrab olganligidir.

Badiiylik, boshqacha qilib aytganda badiyyat bu go'zallikning kalom ko'rinishidir. Borliqdagi go'zallikning ko'rinishlari juda ko'p. Masalan, tabiiy go'zallikning o'zini son-sanog'i yo'q. Faqat to'rt faslning har bir fasli ming-minglab go'zal narsalarni vujudga keltiradi. Mana, ko'klamni oling, oq choyshabga o'ralib uxlab yotgan yer ustidan sabo, ya'ni sharqdan esadigan iliq, tabiatni uyg'otuvchi yel qor ko'rpasini yer ustidan ko'tarib, uni ko'k ko'rpa bilan burkaydi va bu ko'k bag'ridan rangba-rang chechlarni undiradi. Daraxtlar gullab, asalarilar gul shirasidan ming dardga davo asallarni hozirlashga kirishadi. Shovqin-suronlar va zambarak ovozi bo'lmagan, tinchlik va osoyishtalik hukm surgan gulzorlarda tun yarmidan tonggacha bulbul sayrab sof ko'ngillarga lazzat bag'ishlaydi.

Butun mavjudotning, xususan insonning tuzilishi, yurish turishida qanchadan qancha yetuklik, jumladan go'zallik bor. Ammo tabiiy go'zallikdan tashqari yana inson vujudga keltiradigan sun'iy go'zallik ham bor. Hunarmandu san'atkorlar buyumlarga, inshootlarga go'zal tus beradilar. Usta dehqonlar go'zal bog'u rog'larni vujudga keltiradilar. Kuychilar kuy, ashulachilar ashula, raqqosalar raqs, naqqoshlar naqsh yaratadilar.

Mana shularning hammasi va ularning go'zalligi til vositasida aks ettiriladi. Bu tilning guzallikni ifodalashdagi xizmatidir. Ammo tilning o'zidan ham go'zallik moddasi sifatida xususan qalamu so'z va umuman xalq foydalanadi. Chunki til yetuk hodisalardan bo'lib, unda go'zallik uchun zarur bo'lgan hamma sifatlar mavjuddur. Birinchidan til tabiat va insondagi mavjud go'zallikni aks ettirish vositasi bo'lsa, ikkinchidan tilning o'zi go'zallikni vujudga keltiradi. Shoir va yozuvchilar, hamda oddiy xalq orasidagi minglab chechanlar tilning badiiy imkoniyatining mazkur har ikki jihatining biridan yoki har ikkisidan birdan foydalanadilar va shu bilan o'quvchi yoki tinglovchiga rohat bag'ishlaydilar.

Tilning go'zallikni ifodalashi yoki aks ettirishi qanday amalga oshadi? Buning javobini olish uchun avval «go'zallik nima?» degan savolga javob berishimiz kerak. Chunki go'zallikni har xil tushunish mumkin. Ayniqsa, insondagi go'zallikning nimadan iboratligini bilib olish uchun ko'p bilim va tajriba lozim. Hozirgi o'quvchi o'g'il(qizlarning ko'pi ota-onalarining, bog'cha murabbiylari va maktab o'quvchilarining, matbuot va adabiyotning tarbiyasi natijasida yomondan yaxshini, jumladan, xunukdan chiroylini ajratadigan bo'lganlar. Lekin oz bo'lsa-da go'zallikni, jumladan, inson go'zalligini yaxshi tushunib yetmagan yoshlar, hatto qariyalar ham bor. Go'zallikka to'g'ri munosabatda bo'lish va uni to'g'ri tushunish uchun birinchidan har narsani

ma'nosini yoki mazmunini e'tibordan qochirmaslik va uning faqat suvrati yoki shakli bilan cheklanmaslik kerak. Har bir narsa va hodisaning suvrati va ma'nosi bo'ladi. Ma'no birlamchi, suvrat ikkilamchidir. Masalan, kiyimni oladigan bo'lsak, uning ko'rinishi suvratini, qulayligi va o'z vazifasiga muvofiqligi uning ma'nosini tashkil qiladi. Kiyim avvaldan noqulay emas, qulay, sog'liqqa zararli emas, foydali bo'lishi, tananing yopiladigan yerlarini yopib turishi va kishini tashqi muhit ta'siridan, sovuqdan, namdan, shamollashdan yoki quyosh nuridan saqlashi zarur. Undan keyin u chiroyli shaklga ega bo'lishi lozim va bu shakl kiyimning vazifasiga xilof bo'lmasligi zarur.

Ba'zan yirtqich hayvonlar ko'rinishida uy hayvoniga nisbatan ko'rkam bo'lishi mumkin, ammo mohiyatan zararli bo'lgani uchun u kishida haqiqiy go'zallik zavqini uyg'otmaydi, aksincha kishi ko'ngliga dahshat soladi. Yoki uni jirkantiradi.

Ayrim zaharli o'simliklar rangdor guli bilan masalan, rayhonga nisbatan yaxshiroq ko'rinishga ega bo'lishi mumkin. Ammo u uning tabiatini bilgan kishiga rayhonga nisbatan go'zal bo'lib tuyilmaydi.

Go'zallikni to'g'ri tushunib undan bahramand bo'lish uchun zaruriy shartlardan, yana biri shuki, hamma holda ham go'zallikdagi tabiiylik sun'iylikka nisbatan ustun turadi. Inson tabiiy go'zallikga sun'iy go'zallik qo'shadi, lekin uning o'rni va me'yori bor. Masalan, bog'bon gulzor qilganda gullarni ma'lum bir tartibda joylashtirib, har tubni butab uning tabiiy go'zalligiga sun'iy go'zallik qo'shadi, ammo uni yana ham go'zal qilaman deb gul barglariga naqsh solmaydi yoki biror o'zga rangga bo'yamaydi. Bundan uning tabiiy go'zalligi yo'qoladi va u gul sifatida o'z qadrini yo'qotadi. Birinchi holda, ya'ni gul tuplarini bir biriga nisbatan va har tupning shohlarini tartibga solganda uning tabiiy go'zalligiga zarar yetmaydi. Agar bog'bonga boshqa rang kerak bo'lsa, u o'sha rangni gulning tabiiy xossasiga aylantiradi. Bunga u gullarni chatishtirish yo'li bilan erishadi. Bunda go'zallikning tabiiyligiga putur yetmaydi. Birinchi holda bog'bon qalbakilik qilgan, ikkinchi holda mohirlik ko'rsatgan bo'ladi. Birinchi taqdirda u kulgu bo'ladi yoki kishilarni ranjitadi, ikkinchi taqdirda ham mahorati, ham yangi nav guli bilan hammani hushnud qiladi va buning natijasida o'zi ham shodu xurram bo'ladi.

Endi insondagi go'zallikka ham tabiiy nuqtai nazardan qarsak, undagi go'zallik qonuni ham o'sha guldagi qonunning o'zi. Gul bargi naqsh solib uni bo'yoq bilan bo'yab bo'lmaganidek kishining badaniga, ayniqsa yuziga har xil shakllarni tushurib bo'lmaydi, uni bo'yab o'zgartirish yaramaydi, muchalarning tabiiyligini buzish mumkin emas. Ammo insonda ixtiyor kuchliligi va kishilarning go'zallikka munosabati turlicha bo'lgani uchun ba'zi shaxslar mazkur qonunga xilof ishlarni qiladilar va o'zlaricha oqilona ish qildim deb o'ylaydilar. Ammo keyinchalik o'z qilmishlaridan o'kinadilar. Badaniga qiladigan nina bitik va nina naqshlar, upa, elik va boshqa sun'iy pardoziy moddalaridan suiste'mol qilishlari va moda parastliklar go'zallikning, jumladan, tabiiy go'zallikning mohiyatini anglamaslik natijasida sodir bo'ladi. Bunday amallarning eng qabixi - bu tabiiy uzvlarni sun'iy lashtirishdir. Sog' tishni arralab buzib unga oltin qoplash shu jumladandir. Afsus va ming afsuski, oltin tishni husn deb bilgan yoshlarimiz sog', tabiiy tishni metal bilan almashtirish tabiiy qo'lni kesib tashlab sun'iy charm qo'l bilan almashtirish bilan barobar ekanligini xayollariga ham keltirmaydilar.

Endi esa tilga qaytaylik. Til bir jihatdan tabiat va insondagi go'zallikni aks ettiruvchi vosita bo'lsa, ikkinchi jihatdan unda go'zallikni vujudga keltiruvchi jihatlar ham mavjud, dedik. Biz tilga go'zallik javhari sifatida nazar soladigan bo'lsak, uning kishini hayratga soladigan darajada yetukligi bor.

Qaysi bir tilni olmang, undagi tovushlar yuzga yetmaydi. Masalan, hozirgi o'zbek adabiy tilida o'ttiz bitta tovush bor. O'zbek tiliga tarixan nazar solgan vaqtimizda yoki shevalarni hisobga olganimizda ko'proq bo'ladi, ammo qirqtadan oshmaydi. Mana shu qadar ozgina tovushdan o'zbek tili tarixida milliondan ortiq so'z yasalgan va bu so'z yasalishi kerak bo'lgan taqdirda cheksiz davom etishi mumkin. Bu cheksiz imkoniyat dunyodagi hamma tillarga xos.

Tilning mana shu yetukligi uning o'zining go'zalligini va undan foydalanuvchining ya'ni so'zlovchining yoki yozuvchining mahoratini ta'minlaydi.

Bir narsani yasayotganda yasovchining mahorati va yasalgan narsaning go'zalligi nimada namoyon bo'ladi. Xoh tabiiy, xoh sun'iy narsaning ko'rki uning bo'laklarining bir biriga nisbatan borligidan munosibligidan yoki mutanosibligidan iboratdir. Masalan, bir uyning uchta derazasi

bo'lib, uchovi hajmda yo shaklda yo o'rnamishda yoxud uchchala jihatdan yo ikki jihatdan uch turli bo'lsa, bu hol o'sha uyni xunuk qilib qo'yadi. Agar o'rtadagi deraza boshqacha bo'lib, ikki yondagisi bir xil bo'lsa, uyning ko'rki buzilmaydi.

Bir kishining muchalari bir biriga nisbatan ulug' (kichiklikda, shaklda va o'rnamishda qancha mutanosib bo'lsa, uning husni shuncha ortiq bo'ladi. Agar qulog'i katta, burni kichik bo'lsa, ikki qoshning biri egri, ikkinchisi to'g'ri bo'lsa, ikki ko'zning biri yuqoriroqda ikkinchisi pastroqda bo'lsa, ular orasidagi nisbat buziladi, natijada husn yo'qoladi.

Badiiylik deb ataluvchi kalom husni ham so'zlarning bir-biriga tovush yo ma'no jihatidan yoxud har ikki jihatdan munosibligidan vujudga keladi. Bir biriga munosib so'zlardan go'zal ibora va gaplar vujudga keladi. Bir-biriga munosib gaplardan, go'zal fasllar, fasllardan boblar, boblardan kitoblar yaratiladi.

So'zlarni ma'lum tartibga solib misralar, misralardan baytu bandlar, baytu bandlardan tizma asarlar ijod qilinadi.

NAVOIYNING TIL X I Z M A T I

Ma'lumki, ulug' so'z sultonlari adabiy til rivojiga salmoqli hissa qo'shadilar. Bundan Navoiy ham mustasno emas. Uning asarlari so'z san'atining yuksak g'oyalar ifodalangan oliy namunasi bo'lishi bilan birga mukammal adabiy til namunasi hamdir.

Navoiy asarlari tilining boy va go'zalligi shundaki, unda oddiy so'zlashuvda kundalik turmushda ishlatiladigan so'zlardan tortib turli ilmu fanlarga oid atamalgacha juda aniq va o'rinni ravishda iste'mol qilingan.

Navoiy tilidagi so'zlar ko'lam jihatidagina emas, rang baranglik jihatidan ham diqqatga sazovordir. Navoiy tilning lug'aviy boyligini oshirishda turkiy va o'zlashma so'zlardan samarali foydalangan.

Shoirning tili siyq'a jihatidan ham ungacha yozilgan turkiy asarlar tilidan o'zining boyligi va rango rangligi bilan keskin farq qiladi.

Xuddu shu holni Navoiy tilining nahvida ham ko'ramiz. Uning asarlarida turli birikma va gap tarkiblari mavjud.

Navoiy turkiyning rivojiga muhim bir davrning boshlanishi va uning keyingi taraqqiyoti uchun munosib zamin hozirlab berdi. Bu Navoiyning til taraqqiysiga qo'shgan amaliy hissasi bo'ldi. Navoiy til rivojiga juda salmoqli nazariy hissa ham qo'shdi. Uning «Muhokamatu-l-lug'atayn»i ilmiy asar bo'lib, u faqat o'zbek tili nuqtai nazaridan emas, umumiy tilshunoslik nuqtai nazaridan sinchiklab o'rganishga loyiq asardir. Bu asarda til va uning nazariy masalalari ilmning bugungi talablariga javob bera oladigan darajada tahlil qilingan.

Turk tilining umumxalq tili nuqtai nazaridan boy va yetukligini II asrdayoq Mahmud Qoshg'ariy namoyish qilib, uning arab tili bilan bemalol raqobat qila oladigan til ekanligini ta'kidlab o'tgan edi. Navoiy turkiyning fikriy va badiiy fazilatlarini fors tili bilan chog'ishtirib bayon qiladi. Masalaga yuzaki qaralganda Navoiy o'z asarini turkiyni yuqori ko'tarib, forsiyni quyi tushirish maqsadida yozgan degan noto'g'ri xulosaga kelish mumkin. Xaqiqatda esa Navoiyning «Muhokamatu-l lug'atayn» asari fors tilini kamsitish uchun yozilgan asar emas. Shoir fors tilini yuksak darajada rivojlangan adabiy tillar qatoriga qo'shdi. Bu tilda o'zi ham ijod etdi, boshqa turk shoirlarining ham fors tilida ijod etishini qoralamaydi. Hatto «agar ikkalasi til bila aytur qobiliyatlari bo'lsa, o'z tillari bila ko'prak aytsalar erdi va yana bir til bila ozroq aytsalar erdi. Va agar mubolag'a qilsalar, ikkalasi til bila teng aytsalar edi», deydi. (Mazkur asar, s.118)

Navoiyning «Muhokamatu-l-lug'atayn»ni yozishdan maqsadi forsiyda ijod qiluvchi turk shoirlariga turkiyning har jihatdan boyligini va unda oliy darajadagi badiiy asarlar yaratishga hamma imkoniyatlar mavjudligini nazariy jihatdan isbotlab berish va turkiyzabon xalqdan chiqadigan san'at va ilm ahllarini o'z xalqi oldidagi elparvarlik burchlarini ado etish uchun turkiyda ham ijod etishga da'vat etish edi. Navoiy o'z davrining ilg'or umumbasharchilaridan biri edi. Uning butun ijodi va faoliyati faqat turklarga emas, umuman inson xizmatiga qaratilgan edi.

Shuning uchun ham u o'zining chuqur bilimi, qo'lidagi o'tkir ilmiy hujjat hamda dalillardan suiste'mol qilmadi.

U shoir bo'lishiga qaramay «Muhokamatu -l-lag'atayn»da fors va o'zbek tillarini chog'ishtirayotgan madh va hajv hamda mubolag'a kabi vositalarni mutlaqo ishlatmaydi. Dalilu hujjatlarni bo'rttirmasdan o'z holicha keltiradi. Navoiy o'zining turkiy xususidagi xolisona fikrlarini yaqqol qilib ko'rsatish va rad etib bo'lmaydigan darajada isbotlash uchun uni o'zi mukammal bilgan va komilligi tan olingan forsiy bilan chog'ishtirishga qaror qildi. Bu to'g'ri va yagona ilmiy uslub edi. Aks holda Navoiyning turkiy haqidagi ilmiy xulosalarini o'zga tilni bilmagan holda o'z tilini madh qiluvchilarning fikridan farq qilish qiyinlashar edi. Shuning uchun ham insonning ma'rifat kasbidagi asosiy quroli bo'lmish taqqoslash uslubiga bu o'rinda murojaat qilmaslikning hech iloji yo'q edi. Navoiyning turkiy taqqoslash uchun forsiyni olishning yana bir sababi turk shoirlarining ko'proq forsiyda ijod qilishga moyilliklari va turkiyning fazilatlaridan bebahraliklari bo'ldi.

Navoiy mazkur shoirlarning forsiyda ijod qilishlariga bu tilda boy she'riy an'ananing mavjudligi va mutaxassislarning ko'pligi tufayli forsiyda ijod qilish osonligini, aksincha turkiyda qiyinligini sabab qilib ko'rsatadi. Bu ham juda to'g'ri fikr. Bu bilan Navoiy masalaning tub mohiyatini ochib bergan. Chunki masalaga yuzaki qaragan kishi turkiy noqis bo'lganligi uchun turklar boshqa tilga murojaat qilishgan degan xulosaga kelishi mumkin. Aslida esa Navoiy isbotlab berganday nuqson xalq yaratgan tilda emas, balki shoirlarning o'zida ekan. Mana shularni hisobga olib, Navoiy turkiyning forsiyga xos bo'lmagan, lekin shoir uchun muhim bo'lgan ba'zi xususiyatlarini «Muhokamatu-l-lug'atayn»da bayon qilgan.

Shunday xususiyatlardan biri turkiyda umumiy tushunchalarni anglatuvchi so'zlardan tashqari juz'iy tushunchalarni bildiruvchi so'zlarning ko'pligidir. Navoiy forsiyda muodili bo'lmagan yuzta fe'lning ro'yxatini beradi va turli sohaga oid buyum, tabiiy hodisa, hayvon va parranda ismlarini keltiradi va ularni ba'zilariga she'riy misol keltirib, ma'nolarini tushuntirib beradi. Undan tashqari bunday turkiy so'zlarning ayrimlari fors tilida ham qo'llanishini aytib o'tadi.

Ikkinchi xususiyat - turkiyda shakldosh so'zlarning ko'pligi bo'lib, bu tajnis, iyxom san'atlari uchun zarurdir. Navoiy **ot** (ism), **ot** (hayvon), **ot** (otmoqdan buyruq) va **it** (ko'ppak), **it** (yo'qol), **it** (itar) so'zlariga misol tariqasida ikkita tuyug' keltiradi. Va yana bir necha shakldosh so'zlarni ma'nosi bilan sanab o'tadi.

Uchunchi xususiyat - turkiyda forsiyda bo'lmagan, lekin nutq uchun zarur bo'lgan siyg'a va tarkiblarning mavjudligidir. Bu masalada ham Navoiy to'g'ri ilmiy maqomda turib, ortiqcha fikrlar aytmagan. Masalan, o'zbek tilida otning maxsus turlovchilari bor, fors tilida yo'q. Lekin Navoiy turkiyning bunday xususiyatlari haqida gapirmaydi, chunki forsiyda mazkur qo'shimchalar bilan ifodalanadigan ma'nolar ko'makchilar bilan ifodalanadi. Shuning uchun Navoiy turkiyning nahviy afzalliklariga forsiyda yo'q birliklarning hammasini kiritmasdan ikki javobga talab beradiganlarnigina kiritgan. Birinchidan bunday birilik nutq uchun zarur bo'lgan bir ma'noni anglatish kerak, ikkinchidan, fors tilida shu ma'noni ifodalaydigan vosita bo'lmasligi kerak.

To'rtinchi xususiyat turkiyning tovush xususiyati qofiya uchun fors tilinikiga nisbatan qulayroqdir. Unlilarning qatordagi farqi va talaffuzidagi yaqinligi qofiya bir turdagi so'zlarni ko'proq keltirish imkoniyatini beradi, hamda so'z tanlashda qofiya talabi bilan bo'ladigan mahdudlikning kamayishiga olib keladi.

Shunday qilib ulug' shoirimiz Alisher Navoiy o'zbek adabiy tilining rivojiga buyuk amaliy va nazariy hissa qo'shgan, bundan boshqa turkiy xalqlar ham manfaatdor bo'ldi.

NUTQ VA KALOM

Insonga xos va uni o'zga jondorlardan mumtoz qilgan nutq, ya'ni so'zlash qobiliyatiga mohiyat va uning amalga oshishi nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, uning bir necha jihati bor. Bu masala haqida zamonaviy tilshunoslar orasida keng tarqalgan bir fikrga binoan so'zlash

vaqtida foydalanadigan vositalar, ya'ni so'z va ularni biriktirishu talaffuz etish qoidalarining yig'indisi «til» deb ataladi va shulardan foydalanib aytilgan gaplar yig'indisi «nutq» deyiladi. Ammo bu masalaga sinchkov o'quvchi talabi yoki ilmiy nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak, buning ko'pgina munozarali jihatlar bor.

Zamonaviy o'quvchi ilmdan samarali foydalanish va undan amaliy foydalanishdan tashqari uni nazariy rivojlantirish uchun har bir masalaning tarixini, olimlarning shu masala haqidagi turli fikrlarini yaxshi bilish hamda bu fikrlarning to'g'ri va ilmu amal uchun foydalisidan foydasizini ajrata olish zarur. Mazkur masala haqidagi turli fikrlarni tanqidiy o'rganib, to'g'ri xulosaga kelish uchun so'zlashish nimalardan iborat degan savolga avval o'zimiz shu hodisaning tabiatiga qarab javob topishimiz va undan keyin bu savolga ilm ahli eng qadimdan boshlab shu kungacha qanday javob berganini aniqlashimiz mumkin. Lekin buning aksini qilishimiz ham mumkin, ya'ni avval shu masala yuzasidan aytilgan fikrlarni o'rganib ularni tahqiq etilayotgan hodisa nuqtai nazaridan to'g'ri-noto'g'riligini tekshirib bir xulosa chiqarishimiz mumkin. Hozir biz birinchi yo'lni tutaylik!

Har bir kishi tug'ilganda so'zlashaolmaydi, lekin o'rganib so'zlash va so'zlashish qobiliyati bilan tug'iladi. Ma'lum muddatdan keyin bu qobiliyat ishga tushib, bola kattalarning so'zlariga quloq solib, so'z o'rgana boshlaydi. Avval so'zlarni chala talaffuz qiladi. Bu ba'zi tovushlarni aniq uqmaslik va aytish malakasi yo'qligi natijasida sodir bo'ladi. Bora-bora bu kamchilik yo'qoladi. Natijada u narsa va hodisalarning otini o'rganadi va gap tuzishni o'rgangunga qadar o'z istagini yakka so'zlar bilan ifodalaydi. So'ngra qo'shimchalarni, so'zni ishlatish qoidalarini egallab gap tuzib, aniq qilib so'zlay boshlaydi. Olamda narsa va hodisalar hamda insonning ma'naviy olami cheksiz bo'lganligi uchun inson umrbod so'z va uning ma'nolarini o'rgana boradi, lekin to'liq o'rganolmaydi. Boshqacha qilib aytganda bir kishi butun xalq bilgan narsani hammasini bilolmaydi. Chunki bir kishining umri, uning qudrati asrlar davomida millionlab kishi vujudga keltirgan va kun sayin ko'payib boradigan mahsulotni o'zlashtirishga qodir emas. So'zlovchi umrining oxiriga qadar ushbu mahsulotning kichik bir ulushidan o'z fikri, istagi va zavqini ifodalash, o'zga kishilar muomala qilish uchun vosita sifatida foydalanadi. Ana shu xalq yaratgan mahsulot bir narsa undan kishining foydalanishi ikkinchi narsa, shu mahsulotdan foylanish natijasida yana uchunchi narsa vujudga keladi. Bu har bir kishining so'zlash mahsuli bo'lib, bundan muayyan bir maqsad kuzatiladi va shu maqsad o'zga bir kishiga yoki bir kishiga bildiriladi. So'zlashning o'zi esa tinglab anglashni talab qiladi. So'zlanganni tinglovchi uqishi kerak bo'ladi. Demak so'zlash vositalari so'zlashuv tinglab anglash va so'zlash mahsuli bor ekan. So'zlash bilan bog'liq mazkur hodisalarning mavjudligi tilshunoslarning ko'piga ma'lum. Ammo bularning farqlashining ilmiy jihatdan kerak-kerakmasligi, kerak deb topilganda ularning chegarasini aniqlash masalasida olimlar o'rtasida ixtilof bor.

Shu o'rinda bir narsani eslatib o'tishim kerak. Ilmiy munozarada yoki turli fikrlarni solishtirganda haqiqiy ixtilofdan so'zdagi ixtilofni farqlash kerak bo'ladi. Chunki bir narsani bir necha so'z bilan va bir necha narsani bir so'z bilan ifodalash mumkin. Shuning uchun bir narsaning tavsifida qo'llangan so'zlar emas, o'sha narsaning o'zi va uning sifatleri nazarda tutiladi. Albatta so'zni to'g'ri-noto'g'ri qo'llash mumkin. Bir so'zga nisbatan ikkinchisi ma'qulroq bo'lishi mumkin. Ammo so'zga oidni tavsif etilayotgan narsaga nisbat berib bo'lmaydi.

Endi maqsadga ko'chaylik. So'zlash vositalari va so'zlashu tinglash yoki so'zlashish, hamda so'zlash mahsuli bor dedik. Sharq olimlari bularning birinchisini, ya'ni so'zlash vositalarini «lison», «zabon», «til», ikkinchisini ya'ni so'zlashishini «nutq», uchunchisini, ya'ni so'zlash mahsulini «kalom» deb ataganlar. So'zlash bilan bog'liq hodisalarni mana shu hilda uchga bo'lish jahon tilshunosligida XIX asrga qadar davom etdi va hozir ham qisman davom etmoqda. Ammo XIX asrda tilshunoslikda «psixologizm», ya'ni ruhiyotchilik deb atalgan oqim paydo bo'lgandan beri bu masala munozaraga sabab bo'la boshladi. Mazkur oqimni «psixologizm», ya'ni ruhiyotchi deb atalishiga sabab, bular til birliklarini aniqlashda so'zlovchining ruhiy holatini mezon qilib olganlar va shunga binoan til haqiqatda faqat yakka shaxslar ongida mavjud deb umumxalq tilini inkor qilib, kalomni «til» deb ataganlar. Tilni bunday tushunish xato hisoblanadi va hozir bu fikrni ko'pchilik eqlamaydi. XX asrning o'ninchi yillariga kelib mazkur masala yuzasidan Jenevalik olim Ferdinand de Sossyurning fikri keng tarqaldi va bu xaqda turli fikrlarni paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. XIX asr Yevropada tilshunoslari so'zlash vositalari bilan so'zlash mahsulini birlashtirib, til tushunchasini kengaytirgan bo'lsalar, Ferdinand de Sossyur bularni

yana farqlab, ularni mazmunini toraytirdi, ammo so'zlashishning mundarijasini kengaytirdi. U tilni, ya'ni so'zlash vositalarini ong bilan cheklab, uning moddiy, ya'ni tovush jihatini so'zlash mahsulini kiritdi. Buning sharhi shunday:

Sossyurning fikriga ko'ra kishilarning ongida mavjudot haqida tushunchalar bor va har bir tushuncha bilan bog'liq tovush tasavvuri bor. Masalan, dunyodagi hamma kishilarning ongida «suv» va «ichmak» degan tushunchalar bor. Shu bilan birga o'zbeklar ongida «s», «u», «v» tovushlarning «suv» deb talaffuz qilinadigan tasavvuri, tojiklar ongida «o» va «b» tovushlarning «ob» deb ataladigan tasavvuri, ruslar ongida «v», «o», «d» va «a» tovushlarining «voda» deb talaffuz etiladigan tasavvuri bor. Sossyur ana shu tushuncha bilan tovush tasavvuri va ular orasidagi munosabat tilga taaluqli, qolgani so'zlash mahsuliga oid deydi.

Shunday qilib, Sossyur tovush va uning talaffuzini til tarkibiga kiritmaydi. Sovet tilshunoslarining aksari bu nazariyani tilni dematerializatsiya, ya'ni moddiysizlantirish va u materializmga zid deb baholadilar, ba'zi tilshunoslar uni ma'qul topdilar va ayrimlari bu fikrni isloh etishni ma'qul ko'rdilar. Sossyur nutq, ya'ni so'zlashish tushunchasini kengaytirdi va natijada tilshunoslikda «nutq faoliyati» degan atama vujudga keldi. Sossyurning o'zi buni «languaj», tillashish, ya'ni so'zlashish deb atagan. Muayyan shaxsning so'zlaganini parol, ya'ni «**so'zlam**» deb atadi va ruschaga «**rech**», ya'ni «**nutq**» deb tarjima qilindi, natijada o'zbekchada ham «kalom» atamasi o'rnida «nutq» atamasi ishlatiladigan bo'ldi. «Nutq» o'rnida esa tilshunoslikda «nutq faoliyati» iste'mol qilinadigan bo'ldi. Ammo bu atama rus tilshunosligida sossyurchi mazmunda ishlatilishi bilan birga akademik Sherba taklif qilgan mazmunda ham qo'llanadi. Rus tilshunosligining Leningrad maktabiga mansub tilshunoslarning ustози bo'lmish akademik Sherbaning fikriga ko'ra «nutq faoliyati» so'zlash va anglashnigina o'z ichiga oladi. Sossyurning languaji esa so'zlash va anglashdan tashqari «til» va so'zlash mahsulining ham o'z ichiga oladi.

Xuddi «nutq» so'zi singari ruschadagi «rech» so'zining o'zida faoliyat mazmuni borligi uchun hozir rus tilshunosligida kalomga nisbatan «rech» so'zi o'rnida «tekst» so'zini ishlatishga moyillik bor. «Tekst» so'zi bu ma'noda qo'llanganda so'zlash mahsulining faqat yozmasi emas, og'zakisi ham tushuniladi. Ammo «tekst» so'zini «diskurs» degan atama ma'nosida qo'llovchilar ham bor.

Diskurs tushunchasi til bilan muayyan shaxsning so'zlash mahsuli orasiga uning, ya'ni so'zlash mahsulining hamma uchun umumiy bo'lgan jihatini aks ettiruvchi oraliq bir hodisa bor degan fikrga asosan paydo bo'ldi va shu oraliq hodisa «diskurs» deb ataldi. Tilning qo'llanishi bilan bog'liq mana shunday va yana bundan murakkabroq nazariyalar bor va munozara hanuz davom etmoqda. Bunday yechilmagan masalalar tilshunoslikda ko'p va ularning yechimi bo'lg'usi olimlarning, ya'ni siz bugungi o'quvchi va toliblarning zehnidadir. Ammo hozircha bobolarimiz tushunchasidagi til-nutq(kalom ilmiy aniq va amaliy qulayligicha qolmoqda.

Kalom vaznli va qofiyali bo'lsa, «nazm», «manzum» yoki «manzuma» yohud «tizim» deyiladi. «Nazm» so'zining lug'aviy ma'nosi tuzish. Tizim «manzum»niki tizilgan narsa, ya'ni tiziqdir. Nazm notig'ini «nozim» deyiladi. Nazm ma'nosida «she'r» so'zi ham ishlatiladi. Lekin «she'r» so'zining lug'aviy ma'nosi sezik, tuyuq bo'lgani uchun ba'zi sharq adiblari she'rda vazn va qofiya bo'lishi shart emas, sezgirlik bilan shoirona qilib aytilgan kalom, sochma bo'lsa ham, she'rdir, deytilar.

Kalomda vazn yo qofiya yoki har ikkisi ham bo'lmasa, uni «nasr», «mansur», «mansura» yohud «sochim» deytilar.

Sharq adiblari nasrni uch turga bo'ladilar. Agar kalomda vazn bo'lib qofiya bo'lmasa, uni «murajjaz» deytilar. Agar kalomda vazn bo'lmasa-yu saj' bo'lsa, uni «musajja» deb ataytilar. Agar nasrda vazn ham, qofiya ham bo'lmasa, uni «oriy» yoki «muarro» deytilar.

QOFIYA

Qofiya deb ikki yoki undan ortiq misra oxiridagi lafzdoshlikka aytiladi. Qofiyadagi lafzdoshlik raviydoshlikka asoslangan bo'lib, bu raviydoshlik tugal lafzdoshlikkacha borish

mumkin. Qofiya lafzdoshligini qofiyadosh so'zlar hosil qiladi. Qofiyalanuvchi so'zlar ham lafzdoshlik ham ma'no jihatidan teng bo'lishi mumkin emas. Ular lafzdoshlik jihatidan teng bo'lsa, ma'no tomonidan, ma'no tarafidan teng bo'lsa, lafzdoshlikda farq qilishi kerak. Boshqacha qilib aytganda, qofiyada bir so'z bir shaklda takrorlanmaydi. Qofiyadan so'ng qofiyalanuvchi misralarda aynan takrorlanuvchi so'zlarning hammasi «radif» deyiladi. Takrorlanuvchi so'z yoki so'zlar qofiyaning oldida bo'lsa, unga «hojib» deyiladi:

*Ko'ngli chekib maskan aro naqsh-i sayr,
Sayrda yo'q, ko'ngli aro naqsh-i g'ayr.*

*G'ussa jahon ichra chekib jon uchun,
Jonni fido qilg'ali jonon uchun.*

Bu baytlarning birinchisida «sayr» bilan «g'ayr» qofiya, «aro naqsh-i» hojib, ikkinchi baytda «jon» bilan «jonon» qofiya «uchun» radifdir.

Qofiya hosil bo'lishi uchun qofiyalanuvchi misralar oxiridagi yoki radif oldidagi so'zlar qofiyadosh bo'lishi zarur.

Qofiya hosil qiluvchi so'zlarning qofiyadoshligi o'zak bilan o'zak orasida, o'zak bilan qo'shimcha o'rtasida va bir xil bo'lmagan qo'shimcha bilan qo'shimcha orasida vujudga keladi. Masalan, quyidagi baytning qofiyasi qofiyadosh bo'lgan «oyin» va «taskin» so'zlariga asoslangan :

*Garchi tijorat bo'lub oyinlari,
Bo'lmadi bir mulkda taskinlari.*

Qo'shimchalar bir xil bo'lganda o'zak qofiya qofiyadosh bo'lishi shart. «Oyinlari»ga masalan «borlari»ni qofiya qilib bo'lmaydi. Tubandagi baytning qofiyasi «arig'» o'zagi bilan «-lig'» qo'shimchasi orasidagi qofiyadoshlik asosida hosil bo'lgan:

*Paykaridin zohir o'lub chashmalig',
Xatt-i shuoiy anga har yon arig'.*

Mana bu baytning qofiyasiga esa «-tur» bilan «-kur» qo'shimchalarining qofiyadoshligi asos bo'lgan:

*Balki bu mehmonni o'zi kelturub
Uyiga hamroh o'lub yetkurub.*

Qofiya quyidagi birliklarni o'z ichiga oladi:

RAVIY. Qofiyadoshlik o'zak bilan o'zak orasida bo'lsa, o'zak oxirida, o'zak bilan qo'shimcha orasida bo'lganda o'zak bilan qo'shimcha orasida bo'ladigan o'zak bilan qo'shimcha oxirida, qo'shimcha bilan qo'shimcha orasida bo'ladigan shu qo'shimchalar oxirida takrorlanuvchi yangroq tovushga raviy deyiladi.

Demak, o'zbek tilidagi hamma undosh tovushlar va «o», «u», «o» unlilari qofiya raviy bo'lib kelaoladi. Masalan, Navoiyning quyidagi baytlaridagi o'zak oxirida kelgan undosh tovushlar raviydir:

*Jon farah topti, labing javhari bo'lg'ach anga qut,
Olloh-olloh, ne mufarrih bo'lur ermish ėqut.*

*Har gadoyekim, jahonda bir muvofiq yori bor,
Hizr umriyu Sikandar hashmatidin ori bor.*

*But oldida, chu sujud aylagum ichib boda,
Diram yo'q ersa, garav xirqa birla sajjoda.*

Birinchi baytda «qut» bilan «*ëqut*»dagi «t», ikkinchi baytdagi «yori» bilan «ori»dagi «r», uchunchi baytdagi «boda» bilan «sajjoda»dagi «d» raviydir. Ikkinchi qofiyadagi «i» ham qo'shimcha bo'lgani va yangroq bo'lmagani uchun, uchunchi qofiyadagi «a» o'zakda bo'lishiga qaramasdan yangroq bo'lmagani uchun raviy emas.

Quyidagi baytda «mubtalo» bilan «fido»dagi «o» raviydir,
La'l-i labingki, jonim erur mubtalo anga,
Maxlas demanki, istaram o'lg'ay fido anga,

«U» bilan «o» bir qofiyatda raviy bo'lib kela beradi:
Zulfung ochilib, oraz-i diljo' bila o'ynar,
Hindu bachaye sho'xdurur su bila o'ynar.

Ul sho'x ko'ngul lavhin etib tiyra nafasdin,
Bir tifoldur alqissaki, ko'zgu bila o'nar.

«l», «e» va «a» unlilari noyangroq bo'lgani uchun yonida biror yangroq tovush bo'lsa jarangdoshlik hosil qilish xususiyatni yo'qotadi. Shuning uchun bular faqat shu tovushlarning o'zidagina iborat bo'lgan so'zlarda raviy bo'lib kelishi mumkin, masalan, «ma» bilan «a», «ne» bilan «e»da.

Raviy undosh tovush bo'lganda uning oldida kelgan, vazn nuqtai nazaridan qisqa bo'lgan unliga «**tavjih**» deyiladi, raviydan keyin kelganiga «**majro**» deyiladi. Masalan, «biz» bilan «siz» qofiyasidagi «i», «tun» bilan «kun» qofiyasidagi «u», «tan» bilan «suman» qofiyasidagi «a», «sen» bilan «men» qofiyasidagi «ye» tavjihdir. «Yodi» bilan «bedodi» qofiyasidagi «i», «nola» bilan «lola» qofiyasidagi «a» majrodir. Qofiyadagi majro bir xil bo'lishi shart. Majrodagi unli faqat qatorda farqlanishi mumkin. Masalan, til orqa «i»si bir qofiyada qolish mumkin. Tavjih majroga nisbatan ancha erkin. Raviydan so'ng hech qanday tovush bo'lmaganda lablangan unlilarning hammasi bir qofiyada tavjih bo'lib kelishi mumkin. Masalan, «kul», «qo'l», «kul» va «qo'l» so'zlarini bir-biriga qofiya qilish mumkin. Lablanmagan tor va o'rta keng unlilarning hammasi bir qofiyada tavjih bo'la oladi. Masalan, «biz», «bez», «qiz» so'zlari bir-biriga qofiyadoshdir. Agar raviydan keyin boshqa tovushlar bo'lsa, tavjih uchun lablanish va tor-kenglikdagi farqning ham ahamiyati qolmaydi. Masalan, «ari», «biri» va «turi» so'zlarini bir-biriga qofiya qilish mumkin.

TA'SIS. Qofiyadosh so'zlarning raviysi oldidagi bir qisqa unlidan burun kelgan undosh tovush oldidagi «o» tovush ta'sisdir. Masalan, «Xamsa»dan olingan quyidagi baytlarning qofiyasidagi «o» ta'sis bo'ladi:

Bu biri o'z holiga motam tutub,
Ul biri tark-i bari olam tutub.

Tortsa yuz qari xired xozini,
Chekmagay aning ko'pidin ozini.

Ta'sis qofiyaga xushohanglik bag'ishlaydi. Shuning uchun ham ta'sisli qofiya «muassasa» deyilib, muassasa sa'nat hisoblanadi.

DAHIL. Qofiyadosh so'zlardagi raviy bilan ta'sis o'rtasida takrorlanuvchi undosh tovush «dahil» deb ataladi. Tubandagi bayt qofiyasidagi «y» tovush dahildir:

Garchi yetib jom-i hidoyat menga,
So'zda sukut o'ldi bag'oyat menga.

Qofiyada dahil bo'lishi shart emas. Masalan, «qodir» so'ziga «sobir» so'zini qofiya qilish mumkin. Shuning o'zi ham go'zal, sa'natli qofiya, ya'ni muassasa. Biroq ta'sisli qofiyaning dahili ham bo'lsa, masalan, boyagi «hidoyat»ga «bag'oyat»ni qofiya qilinsa, qofiyaning jarangdorligi yana ham ortadi.

Daxildan keyingi vazn nuqtai nazaridan qisqa unli **ISHBO** deyiladi. «*Motam*» bilan «*olam*» qofiyasidagi «a», «*xozini*» bilan «*ozini*» qofiyasidagi birinchi «i», «*tanovul*» bilan «*tag'ohul*» qofiyasidagi «u» ishbodir. Qofiyada dahil borida, ishbo rioyati shart emas. Masalan, «Hayratu-l-abrorda»da «*sahovat*»ni «*tafovut*»ga qofiya qilingan.

*Bu ikki bir nav' sahovat erur,
O'rtasida sahl tafovut erur.*

QAYD. Quyidagi o'nta undosh tovushdan biri raviyning oldidan unga yondosh kelsa, ya'ni o'rtada unli tovush bo'lmasa, u qayd deb ataladi: **b, i, z, r, s, f, x, sh, g', h.**

Misollar:

*Andaki g'oziy shah-i farxunda baxt,
Toj olayin deb talashur erdi taxt.*

*Bir kun edi sayrg'a azmi durust,
Shifta zole etagin tutti rust.*

*Ayladilar, bo'ldi chu bu nukta jazm,
Qoz-yi islom huzuriga azm.*

*O'chkucha ham yo'q, ishida to'g'riliq,
Ul tutub o'g'ri, bu qilib o'g'rilik.*

*Chun kafang oltun sochib andoqki barq,
Barq hayodin bo'lubon terga g'arq.*

*Zulm ila qoning oqizib ranj aro,
La'l-i ravon qo'yg'usi ul. ganj aro.*

RIDF. Ridf ikki turli bo'lib, bir turi «**ridf-i asliy**» va ikkinchi turi «**ridf-i zoyid**» deb nomlangan. Raviy oldidan kelgan «o» unlisi hamda vazn nuqtai nazaridan cho'ziq bo'lgan «u», «o'», «i» va «e» unlilari «ridf-i asliy» deyiladi. Masalan, «*bog'*» bilan «*charog'*» qofiyasidagi «o» tovushi, «*nobud*» bilan «*vujud*» qofiyasidagi «u» tovushi, «*zo'r*» bilan «*ko'r*» qofiyasidagi «o'» tovushi, «*aziz*» bilan «*laziz*» qofiyasidagi «i» tovushi, «*darvesh*» bilan «*besh*» qofiyasidagi «e» tovushlari ridf-i asliydir. Ridf-i zoyid o'z navbatida yana ikkiga bo'linadi. Birinchisi «*ridf-i zoyidi mufrad*», ikkinchisi «*ridf-i zoyidi murakkab*» deb ataladi. Yuqoridagi «qayd» deb ataganimiz o'nta tovushdan o'zga raviyga old tomondan bevosita, ya'ni unlisiz qo'shilib kelgan har qanday undosh tovush ridf-i zoyid-i mufradga kiradi. Masalan, «*aql*» bilan «*naql*»dagi «q», «*ilm*» bilan «*hilm*»dagi «l» tovushlari ridf-i zoyid-i mufraddir. Ridf-i zoyid-i murakkab deb raviy bilan «o» yoki boshqa vaznda cho'ziq hisoblangan unli tovushlardan birining orasida kelgan qo'yidagi olti undosh tovushga aytiladi: **n, r, s, f, x, sh.** Masalan, «*rost*» bilan «*ost*», «*do'st*» bilan «*po'st*»dagi «s», «*go'sht*» bilan «*po'sht*»dagi «sh» ridf-i zoyid-i murakkabdir. Ba'zi qofiyashunoslar sirg'aluvchi «j»ni ham ridf-i zoyid-i murakkabga qo'shganlar. Nazariy jihatdan bu ham to'g'ri. Biroq o'zbek nazmida bunday qofiyalar amalda uchrashi qiyin. Undosh tovushdan iborat bo'lgan ridf oldidagi vazn nuqtai nazaridan qisqa bo'lgan unliga «**hazv**» deyiladi. «**Ilm**» bilan «**hilm**»dagi «i» «**dard**» bilan «**gard**»dagi «a» hazvdir.

VASL. Raviydan keyin kelgan har qanday undosh tovush va vazn nuqtai nazaridan cho'ziq hisoblangan har qanday unli tovush «vasl» deb ataladi. Vasl undosh tovushdan iborat bo'lganda raviy bilan uning orasida vaznda qisqa hisoblangan bir unli tovush ham bo'lishi mumkin. Masalan, «*biladi*» bilan «*qiladi*»dagi «d» tovushi, «*dildoro*» bilan «*yororo*»dagi «o» tovushi, «*jonim*» bilan «*jononim*»dagi «m» tovushi vasldir. Quyidagi bayt qofiyasidagi «d» vasldir:

*Siyosat etti soching, mushk chun xato qildi,
Ki, barcha jismi qorarib, teriga tortildi.*

XURUJ. Vasldan keyin kelgan qanday undosh va vazn nuqtai nazaridan cho'ziq hisoblangan unli tovush «xuruj» deb ataladi. Xuruj bilan vasl undosh bo'lsa, ularning o'rtasida vazn nuqtai nazaridan qisqa bo'lgan bir unli tovush kelishi mumkin. Misol uchun «*bildim*» bilan «*qildim*»dagi «m» tovushi, «*bilgan*» bilan «*qilgan*»dagi «n» tovushi xurujdir.

Quyidagi bayt qofiyasidagi «n» xurujdir:

*Raxshingki, xirom ichra o'tar kabk-i dariydin,
Istarmen aning na'lini tovus paridin.*

MAZID. Xurujdan keyin kelgan undosh va vaznda cho'ziq hisoblangan unli tovushga «mazid» deyiladi. Masalan, «*topmadim*» bilan «*yopmadim*»dagi «m» tovushi, «*bilmasdin*» bilan «*kelmasdin*»dagi «n» tovushi maziddir. Quyidagi bayt qofiyasidagi «n» maziddir:

*Kuydum g'ami ishqimni ayon aylamagimdin,
Chekkay edilar kosh tilimni ko'magidan.*

NOYIRA. Maziddan keyingi hamma undosh va vaznda cho'ziq hisoblangan unli tovushlar nechta bo'lishidan qat'i nazar, «noyira» deb nomlangan. Masalan, «*o'zingizdin*» bilan «*ko'zingizdin*»dagi «z»dan keyingi undosh tovushlar noyiradir. Vasl, xuruj, mazid va noyiradan keyin kelgan unli «**nafoz**» deb ataladi. Masalan, quyidagi bayt qofiyasidagi vasl «g»dan keyingi «a» va xuruj «l»dan keyingi «i» nafozdir:

*Yor borg'an chog'da bormish bedilin o'lturgali,
Keldiyu kelgan emish o'lturganin kuydurgali.*

Yuqorida sanab o'tilgan qofiya birliklari e'tibori bilan qofiya bir necha turga bo'linadi. Qofiya agar raviy bilan tugab, ung vasl, xuruj, mazid va noyira qo'shilmagan bo'lsa, «**muqayyad qofiya**» deyiladi. Agar qofiya vasl yoki xuruj, mazid yoxud noyirali bo'lsa, «**mutlaq qofiya**» deb ataladi. Muqayyad qofiyaning yetti turi bor:

Birinchi «**Muqayyad-i mujarrad**» deb atalib, ta'sis, dahil, ridf va qayddan xoli bo'lgan, ya'ni raviyning o'zi bilan cheklangan qofiyadir. Masalan, quyidagi baytlarning qofiyasi muqayyad-i mujarraddir:

*Chunki yakshanba urdi mehr alam,
Kiydi zarbaft hulla ko'k toram.*

*Ko'k arusi to'nin qilib zarkash,
Chiqti andoqki gulrux-i mahvash.*

*Ganj aro behisob erur oltun,
Yana afzun dag'i bo'lur har kun.*

*Qilsa ham e'tibor, filhol ul,
San'ati jonibi uzatib qo'l.*

Ikkinchisi **ta'sisli muqayyad qofiyadir**. Tubandagi baytlarning qofiyasi ta'sisli muqayyad qofiyaga misol bo'la oladi:

*G'arazim bo'lg'ali bu yon ozim
Bo'lmoq erdi senga kamin xodim.*

*Qatlinga garchi tab' rog'ib emas,
Lek qo'ymoq, dag'i munosib emas.*

Uchinchisi **ta'sis** va **dahilli muqayyad qofiya** bo'lib, quyidagi baytlarning qofiyasi kabidir:

*Xovar ahli ham o'ldilar soyir,
Kema sur'atta eylakim toyir.*

*Ochti ma'sud ko'z malomat aro
Ko'rdi o'zni g'arib holat aro.*

To'rtinchisi **ridf-i asliyli muqayyad qofiya**. Mana bu baytlarning qofiyasi ridf-i asliyli muqayyad qofiyadir:

*Yuzi sajjoda uzra matla'-i nur,
Mushkini charx aylabon kofur.*

*Elni alhoni notavon aylab,
Notavonlarga qasd-i jon aylab.*

Beshinchisi **ridf-i mufradli muqayyad qofiya**. Bunga quyidagi bayt misol bo'ladi:

*Havodis tund bodi solsa bir mavj,
Netong, suv tutsa ul. rub' uzra ham avj*

Oltinchisi **ridf-i murakkabli muqayyad qofiyadir**. Masalan, tubandagi bayt ridf-i murakkabli muqayyad qofiyaga egadir:

*Hukamo ham kelib alar bila rost,
Qildilar shahga yer o'pub darxost.*

Yettinchisi qaydli muqayyad qofiyadir. Qofiyaning bu turiga mana bu baytlarning qofiyasi misol bo'la oladi:

*Ko'rdi shaqkim sipoh-i dashtnavard,
Botti andoqqi, yo'q alardin gard.*

*Yetti gunbad nechukki yetti sipehr
Har biri ichra hure eylaki mehr.*

Mutlaq qofiyaning yigirma sakkiz turi bo'lib, birinchisi **mutlaq-i mujarrad qofiya**:

*Ochilib chun niqob debosi,
Bulubon xalq hushi yag'mosi.*

Ikkinchisi **ta'sisli mutlaq qofiya**:

*So'z demakta mudovamat birla
Yuz fusunu muloyamat birla.*

Uchinchisi **ta'sis** va **dahilli mutlaq qofiya**:

*Shah boshig'a sochay javohirini,
Zohir aylay nihonu zahirini.*

To'rtinchisi **ridf-i asliyli mutlaq qofiya**:

*Nechukkim foniy o'ldi jismu jonim,
Jahondin bo'ldi gum nomu nishonim.*

Beshinchisi **ridf-i mufradli mutlaq qofiya**:

*Muhkam etar chog'da alar aqdini
Mukhr etibon javhvr-i jon naqdini.*

Oltinchisi **ridf-i murakkabli mutlaq qofiya**:

*Izingiz gardi toj-i iftixorim,
Ne qilmoqqa mening ne ixtiyorim.*

Yettinchisi **qaydli mutlaq qofiya**:

*Qani faru shukuhu zo'r dasting,
Tavonlig' aro yuz ming shikasting?*

Sakkizinchi **xurujli qofiya**:

*Kim ul ikki arosig'a tushubon,
Yuz ming el mojarosig'a tushubon.*

To'qqizinchi **ta'sis** va **xurujli qofiya**:

*Kim solay olam ichra ofatlar,
Balki zohir qilay qiyomatlar.*

O'ningchi **ta'sis**, **daxil** va **xurujli qofiya**:

*Safhada kil etib nigoriylar,
Ani qilmish edi siporishlar.*

O'n birinchi **ridf-i asliy** va **xurujli mutlaq qofiya**:

*Chiqa tashqari tan saroyidin,
Balki xalqum tangoyidin.*

O'n ikkinchisi **ridf-i mufrad** va **xurujli qofiya**:

*davridin-javridin
mayllari- sayillari*

O'n uchinchi **ridf-i murakkab** va **xurujli qofiya**:

*Ko'ngulki, har sari chok o'ldi tig'-i hijrondin,
Bir uydururki, topibdur shikast har yondin.*

O'n to'rtinchisi **qayd** va **xurujli mutlaq qofiya**:

*Chun kiyib so'z xarir-u debosin,
Dilkash aylab jamol-i zebosin.*

O'n beshinchisi **mazidli qofiya**:

*Bu ajib kim alar dag'i dedilar,
Qissalar qizlari magar edilar.*

O'n oltinchi **ta'sis** va **mazidli qofiya**:

*qomatingizda-odatingizda,
imoratlaring-adolatlaring.*

O'n yettinchi **ta'sis**, **daxil** va **mazidli qofiya**:

*halovatlarin-tavoratlarin,
qodirligin-nodirligin.*

O'n sakkizinchi **ridf-i asliy** va **mazidli mutlaq qofiya**:

*Chiqa almay og'iz darichasidin,
Naf' topmay birov natijasidin.*

O'n to'qqizinchi **ridf-i mufrad** va **mazidli qofiya**:
*davringizda-javringizda,
mayllaring-sayllaring.*

Yigirmanchi **qayd** va **mazidli mutlaq qofiya**:
*Ko'ribon o'z haqiru pastlig'in,
Qaro tufroqqa hamnishastlig'in.*

Yigirma birinchisi **ridf-i murakkab** va **mazidli qofiya**:
*do'stlaring-po'stlaring
rostlarga- dilxostlarga.*

Yigirma ikkinchi **noyirali mutlaq qofiya**:
*Haram-i xos aro tushursunlar,
Hujra-yi xos aro kiyursinlar.*

Yigirma uchinchi **ta'sis** va **noyirali qofiya**:
*qomatingizdan-odatingizdan,
imoratlaringni-alomatlarini.*

Yigirma to'rtinchi **ta'sis, daxlil** va **noyirali qofiya**:
*halovalaringiz-tarovatingiz,
qodirligingiz-nodirligingiz.*

Yigirma beshinchi **ridf-i asliy** va **noyirali qofiya**:
*Lablari qatl uchun sharobolud,
Ko'zlari ishva birla xobolud.*

Yigirma oltinchi **ridf-i mufrad** va **noyirali qofiya**:
*davringizdan-javringizdan,
mayillaringiz-sayllaringiz.*

Yigirma yetinchi **radif-i murakkab** va **noyirali qofiya**:
*do'stlaringiz-po'stlaringiz,
rostlarimiz-dilxostlarimiz.*

Yigirma sakkizinchi **qayd** va **noyirali qofiya**:
*taxtingizdan-baxtingizdan,
bandalaringiz-sharmandalaringiz.*

Bu tanishib chiqqan qofiya turlarining she'rda shart bo'lgani va eng oddiysi mujarraddir. Qofiyaning ta'sisli va daxilli muqayyad turlari va mutlaq turlari murakkab va xushohang bo'lib, shoirdan mahorat talab qiladi.

«**Saj'**» so'zining lug'aviy ma'nosi sayrash bo'lib, kabutar va musicha kabi qushlarning usulli sayrog'i nazarda tutiladi. Hammangizga ma'lumki, mazkur qushlarning sayrog'ida usul va hamohanglik bor. Masalan, musichaning

ku-ku-ku-kuu
ku-ku-ku-kuu

degan sayrog'iga quloq solsak, uning ikki vazndosh va hamparda bo'lakdan iboratligini eshitamiz. Kabutar bilan musicha sayrog'idagi mana shu xususiyatni nazarga olib, gap bo'laklarini yoki bir necha gapni hamohang qilib tugatishni va shu hamohanglikning o'zini adiblarimiz «saj'» deb ataganlar.

«Saj'» deb atalgan badiiy vosita uni olimlar payqab nom qo'yishdan necha ming yil ilgari xalq tilida kalom husni sifatida insonning go'zalikka intilishi natijasida vujudga kelgan. Shuning uchun saj' og'zaki xalq adabiyotida, maqol va topishmoqlarda ko'p uchraydi. Ertaklarning ko'pi «bor ekanda, yo'q ekan, och ekan-da to'q ekan» deb saj' bilan boshlanadi. «Pakpakana bo'yi bor, yetti qavat to'ni bor» kabi ko'plab topishmoqlar ham, «yaxshi so'z jon ozig'i, yomon so'z bosh qozig'i», «Hunari yo'q kishining mazasi yo'q ishining» singari minglab maqollarda ham ularga shakliy husn berish uchun saj'dan foydalanilgan. Kur'on-i majid oyatlari va Rasululloh hadislarining ko'pida saj' mavjud bo'lgani uchun Sharq adabiyotida saj' rivojlanib, salmoqli o'rin egallagan.

Saj' qofiyaga o'xshab ketadi. Lekin bularning orasida farq bor. Saj' qofiyadan tabiatiga ko'ra farq qiladi. Qofiyaga qofiyalanuvchi so'zlar oxiridagi tovushdoshlik xos bo'lsa, saj'ga saj'lanuvchi so'zlardagi vazndoshlik xos. So'zlardagi vazndoshlik bir xil bo'g'inlarning tengligi va unlilarning birligi tufayli hosil bo'ladi.

Masalan, «to'ni» bilan «bo'yi» so'zlarining ikkisi ham ikki ochiq bo'g'indan iborat bo'lib, har ikkisida ham birinchi bo'g'in «o'» unlisi bilan, ikkinchi bo'g'in esa «i» unlisi bilan tugagani uchun ular «**vazndosh**» yoki «**mutavozin**» deb ataladi. Bular vazndosh bo'lgani uchun saj' hosil qiloladi. Ammo qofiya hosil qilolmaydi. Qofiya hosil qilish uchun bulardagi oxirgi undosh bir xil bo'lishi kerak. Bularda esa ikki xil, birida «y», ikkinchisida «n»dir.

Qofiyaga bag'ishlangan faslda «raviy» degan birlik bilan tanishgan va uning qofiyaning asosiy qismi ekanligini bilgan edik. «To'ni» bilan «bo'yi» so'zlarida raviy yo'q, shuning uchun bu so'zlar qofiyadosh emas. Agar «to'ni» bilan «uni» so'zini olsak, bunda «n» takrorlanishi e'tibori bilan raviy paydo bo'ladi va bular orasida qofiya hosil bo'ladi. «Bo'yi» so'ziga «o'yi» yoki «uyi» so'zini qofiya qilish mumkin. Chunki bu holda «y» raviyga aylanadi va qofiyaga xos hamohanglikni vujudga keltiradi. Ammo «bo'yi» bilan «to'ni» orasida qofiyaviylik yo'q. Lekin saj'lik xususiyati, ya'ni bo'g'in miqdori va sifatidagi ayniyat natijasida sodir bo'ladigan hamohanglik mavjuddir. Ammo saj' qofiya darajasida ham bo'lishi mumkin. Bu holda u raviyli bo'ladi va saj'ning husni yana bir daraja ortadi. Mazkur «yaxshi so'z jon ozig'i, yomon so'z bosh qozig'i» degan maqoldagi «ozig'i» va «qozig'i» so'zlari qofiya darajasidagi saj'ni hosil qilgan, chunki bunda oxirgi undosh, ya'ni «g'» tovushi takrorlanib, raviy vujudga kelgan. Saj'ning bu turi «**saj'-i mutavaziy**» deb ataladi. Oldingisi, ya'ni «to'yi-to'ni» turdagisi «**saj'-i mutavozin**» deb yuritiladi. Nasrda saj' tabiatiga xos vazndoshlik ega bo'lmagan, lekin qofiyaga xos raviyga ega bo'lgan hamohanglik ham amalda qo'llanadi, boshqacha qilib aytganda saj' o'rnida qofiya ham ishlatiladi. Masalan, «hayol» bilan «hol» so'zlari saj' hosil qilgan bo'lsa, bunda vazndoshlik yo'q, lekin qofiyalik xususiyati bor. Ammo buni ham nasrda saj' o'rnida qo'llanishini e'tiborga olib, saj'ning bir turi deb hisoblaganlar va unga «**saj'-i mutarraf**» deb nom berganlar.

Saj' hosil qiluvchi so'zlar fosila deb ataladi. Har bir fosila o'zining oldidagi so'zlar bilan birgalikda saj'ning bir bo'lagini tashkil qiladi va «qarina» deb ataladi.

Masalan, mazkur «hunari yo'q kishining mazasi yo'q ishining» maqolini olsak, «**kishining**» va «**ishining**» so'zlari fosiladir. «Hunari yo'q kishining» degan bo'lagi saj'ning birinchi qarinasi va «mazasi yo'q ishining» degan bo'lagi saj'ning ikkinchi qarinasidir. Saj' qarinalaridagi so'zlarning miqdori mazkur maqoldagi singari teng bo'lsa, saj'ning husni ortiqroq bo'ladi.

Agar bir qarindagi hamma so'zlar ikkinchi qarindagilari bilan saj'lansa, masalan, «qozonga yondoshsang qorasi yuqar, yomonga yondoshsang balosi yuqar» degandagi kabi bo'lsa, saj'ning

husni yana ham ortadi va bu ko'pincha alohida san'at hisoblanadi hamda «**tarsi**» deb ataladi. Nazmda ham bir misradagi hamma so'zlar keyingi misra yoki misralardagi hamma so'zlarga qo'fiyalansa, «tarsi» deb ataladi. Saj'da qarinalarining uzunidan qisqasi yaxshiroq bo'lib, juda uzayib ketsa, ayb hisoblanadi. Saj'ning rivojida ulug' Navoiyning ham hizmatlari ulug'dir. Navoiy o'z asarlarida, xususan «Mahbubu-l-qulub»da saj'ning yuksak namunalarini yaratdi:

Yatimki, pichoq urmoq aning ishi bo'lg'ay, o'zi telba it, pichoq aning tishi bo'lg'ay.

Bu saj' ikki qarinadan iborat. Birinchisi «*Yatimki, pichoq urmoq aning ishi bo'lg'ay*», ikkinchisi «*o'zi telba it, pichoq aning tishi bo'lg'ay*». «*Ishi bo'lg'ay*» va «*tishi bo'lg'ay*» fosiladir. She'rning «*bo'lg'ay*» so'zi radif deb ataladi. Ammo saj'da «*radif*» degan tushuncha yo'q. Shuning uchun uni fosila tarkibiga kiritamiz. Bu jumlada «yatim», ya'ni bezori, quturgan itga, uning pichog'i esa itning tishiga o'xshatilgan va kishiga pichoq uradigan bezorining o'zi quturgan it, pichog'i esa shunday itning tishi deyiladi. Ikkovi ham qurolni, biri sun'iy qurolni, ikkinchisi tabiiy qurolni insonga qarshi ishlatadi. Ikkovining ham maqsad va qiladigan ishi o'ldirishdir. «*Sog'lig'ida qutuz it, usrukligida andin qochip yuz it*». Bu ham ikki qaridan iborat bo'lib, birinchisi «*sog'lig'ida qutuz it*» ikkinchisi «*usrukligida andin qochip yuz it*», «*Qutuz it*» va «*yuz it*» fosiladir. Bu jumlada o'sha pichoqboz bezori sog'lig'ida, ya'ni ichmagan paytida quturgan itning o'zi bo'ladi. Agar mast bo'ladigan bo'lsa, u shu darajada yirtqichlashadiki, bir o'zi yuz itni qochiradi, deyilgan. «*Qutuz*» quturgan degani «*usruklik*» mastlik degan ma'noda. "*Dehqonki, dona sochar, yerni yormoq bila rizq yo'lin ochar*". Bu ham ikki qarinadan iborat. Birinchisi «*Dehqonki, dona sochar*», va «*yerni yormoq bila rizq yo'lin ochar*». Bunda Navoiy dehqonning ishi xalqqa rizq, ya'ni ularning kundalik yemak va ichmagini yetkazishdan iboratligini ta'kidlab, don ekadigan dehqon o'z omochi bilan yerni yorib rizq yo'lini ochdi deydi. Shoir bu yerda dehqonning ekinga yerni yorishini rizq yo'lini ochish ishiga o'xshatib, birinchidan dehqon amalining mohiyatini juda ustalik bilan ochib bergan, ikkinchidan, dehqonni o'rinli ravishda ulug'lagan.

"Olam ma'murlug'i alardin, olam ahli masrurlug'i alardin". Bu ham o'sha turdagi saj'. Jumlada dehqon tufayli olam obod, olam ma'murlug'i, ya'ni obodligi alardin, ya'ni dehqonlardan va olamdagi kishilarning masrurlug'i, ya'ni hursandchiligi ham dehqon mehnatidan, deyilgan.

Saj'li kalom aytib o'tilganidek «**musajja**'» deb ataladi. Musajja'ni o'qishda saj' rioya etilishi kerak, ya'ni qarinalar bir-biriga qo'shilib ketmasligi, nazm misralari kabi talaffuz qilinadi.

A R U Z

Mumtoz shoirlarimiz hamma nazmiy asarlarini aruz vaznida yozganlar. Shuning uchun she'rxon aruzdan xabardor bo'lishi kerak, chunki she'rni o'z vaznida o'qish lozim.

Aruz deb bir qancha Sharq xalqlari adabiyotida, jumladan, o'zbek mumtoz va qisman hozirgi adabiyotda ham qo'llanib kelayotgan maxsus vazn tizimiga hamda shu haqdagi ilmga aytiladi.

Aruz vazni nazmda tabiiy ravishda juda qadimdan amalda qo'llanib kelgan bo'lsa ham, aruz ilmi VIII asrda vujudga kelgan. Bu ilmning asoschisi Xalil ibn Ahmaddir (718-791). Xalil arab she'rlarining vaznini tadqiq qilib, 15 bahrden iborat bir tizimga solgan va uni «Aruz» deb atagan.

Xalildan so'ng Abulhasan Axfash ismli bir adib aruzga «Mutadorik» deb ataluvchi yana bir bahrni qo'shadi. Keyingi aruzchilar esa arab nazmida qo'llanmaydigan yana uch bahrni aniqlab ularni «qarib», «**jadid**» va «**mushokil**» deb ataganlar. Shundan keyin bahrlarning soni o'n to'qqizga yetadi. Ularning nomlari quyidagicha: **hazaj, rajaz, ramal, munsarihi, muzori', muqtazab, mujtass, sari', jadid, qarib, xafif, mushokil, mutahorib, mutadorik komil, vofir, tavi, madid, basit**.

Ba'zi aruzchilar aruzga yana boshqa yangi bahrlarni ham kiritganlar. Biroq mashhuri shu o'n to'qqiz bahr bo'lib, Navoiyning «Mezonu-l-avzon»ida ham shular berilgan. Bobur o'zining aruzga bag'ishlangan risolasida bu o'n to'qqiz bahrni yana «**ariz**» va «**amiq**» deb ataluvchi ikki bahrni qo'shib bergan va bu bahrlarning mashhur emasligini ta'kidlab o'tgan.

Aruz vaznlari hijolarning talafuzdagi uzun-qisqaligiga asoslangandir.

Aruz nuqtai nazaridan hijo uch xil-qisqa, cho'ziq va o'ta cho'ziq bo'ladi. Zamonaviy ilmda qisqa hijoning belgisi « (» shaklida, cho'ziq hijoniki « - » shaklida, o'ta cho'ziq hijoniki « (» shaklida beriladi.

Qisqa unli bilan tugagan ochiq hijolar qisqa hijo hosil qiladi. Masalan, «meni», «uni», «ana» degan so'zlar ikki qisqa hijodan iborat. Bunday hijolar so'z oxirida vazn talabi bilan cho'ziq talaffuz qilinishi ham mumkin. «Men», «tan», «tun», «biz» kabi yopiq hijolar cho'ziq hijoga o'tadi. Arab va fors so'zlarida esa cho'ziq unli bilan tugagan ochiq hijolar ham cho'ziq hijo hosil qiladi. Arab va fors imlosida harf bilan, ya'ni alif, vov va yo bilan ifodalanadigan unlilar cho'ziq bo'ladi. Oxirida ikki undosh qator kelgan hijolar o'ta cho'ziq hijo hisoblanadi. Ba'zan bir undosh bilan tugagan hijolar o'ta cho'ziq hijoga o'tishi mumkin. Masalan, «yor», «zor», «nur», «sher» kabi so'zlar mumtoz adabiyotda doimo o'ta cho'ziq, hozirgi o'zbek nazmida esa ham cho'ziq, ham o'ta cho'ziq hijo hisoblanadi. O'ta cho'ziq hijolar misra o'rtasida bir cho'ziq va bir qisqa hijo o'rniga o'tadi. So'z oxiridagi undosh tovushni, agar undan keyin unli bilan boshlangan so'z kelsa, vazn talabi bilan keyingi so'zga qo'shib ham o'qiladi. Masalan, «*karam aylab*» so'zlarini ka-ram-ay-lab deb mafoiylun vaznida ham, ka-ra-may-lab deb failotun vaznida ham o'qish mumkin.

Hijo eng kichik vazn birligi, hijolordan rukn hosil bo'ladi. Ruknlar o'zak va tarmoq ruknlardan iborat bo'ladi. O'zak ruknlarni «qusul» (birligi «**asl**») va tarmoq ruknlarni «**furu**'» (birligi «**far**'») deb ataydilar.

Sakkizta asl yoki asliy rukn bor. Bularning ikkitasi uch hijoli bo'lib, ikki hijosi cho'ziq va bir hijosi qisqadir. Birining qisqa hijosi rukn boshida, ikkinchisining o'rtada. Birinchisini «**fauvlun**», ikkinchisini «**fo'ilun**» degan ma'nosiz so'zlar bilan ifoda qilinadi. Ruknlarni ifodalash uchun ishlatiladigan bunday ma'nosiz so'zlarni «**afo'ilu tafo'il**» deb ataydilar.

Usulning, ya'ni asliy ruknlarning to'rttasi to'rt hijoli bo'lib, bir hijosi qisqa, uch hijosi cho'ziqdır. Birining qisqa hijosi rukn boshida, ikkinchisining oxirida, uchinchisining ikkinchi o'ringa, to'rtchisining uchinchi o'ringa. Bularning afo'ilu tafo'ili quyidagicha: mafo'iylun, maf'uvlotu, fo'ilotun, mustaf'ilun.

Ikki asliy rukn besh hijoli bo'lib, uch hijosi qisqa va ikki hijosi cho'ziqdır. Birining birinchi, ikkinchi va to'rtinchi hijolari qisqa. Bu mutafo'ilun, ikkinchisining birinchi, uchinchi va to'rtinchi hijolari qisqa. Bunisi mufo'ilatun ruknidir.

Mazkur sakkiz aslning har birining furu'i, ya'ni tarmoq ruknlari bor. Far' yoki far'iy rukn asliy ruknni o'zgartirish natijasida vujudga keladi. Har bir o'zgarishning o'zining oti bor, o'zgarishlarning umumiy nomi «**zihov**»dir. Arab aruzida rukndagi o'zgarish hamma misralarda takrorlansa, «**illat**», takrorlanmasa «**zihov**» deyiladi. Fors va turk aruzida har ikkisi ham zihov deyiladi. Misol uchun mafo'iylun aslining zihov va far'larini ko'raylik.

Uchinchi hijo qisqartirilsa, ya'ni cho'ziqni qisqaga aylantirilsa bu amalni «qabz» va hosil bo'lgan mafo'ilun far'iy ruknni «**maq buz**», ya'ni qabz etilgan, deb ataydilar. To'rtinchi hijo qisqartirilsa, buni «qoff» va hosil bo'lgan mafo'iy lu far'iy ruknni «**makfuf**» deb yuritadilar. Birinchi qisqa hijo tushirilsa xarm, foiylun qoladi, buni maf'uvlun bilan almashtirib, «**axrab**» deb aytadilar. Bobur o'z risolasida qirq to'rtta zihov va to'qson oltita far' bor, deydi.

Ikki yoki undan ortiq rukndan vazn hosil bo'ladi. Vaznlar asliy ruknlar e'tibori bilan bahrlarga, ya'ni turkumlarga bo'lib chiqilgan. Mafo'iylun asli va uning furu'idan hosil bo'lgan vaznlarni «**hajaz**» bahri, fo'ilotun va uning furu'idan vujudga kelgan vaznlar bahrini «**ramal**», mustaf'ilun va uning furug'idan iborat vaznlar «**rajaz**», mustafg'ilun va maf'uvlotu asllari va ularning furu'idan yasalgan vaznlarni «**munsarih**» bahri deb ataydilar va hokazo.

Nazmda har misra vazinga solinadi. Ikki misra bir bayt bo'ladi. Birinchi misraning birinchi rukni «**sadr**», ikkinchi misraning birinchi rukni «**ibtido**» deb ataladi. Baytning birinchi misrasidagi oxirgi rukn «**aruz**», ikkinchi misrasidagi oxirgi rukn «**zarb**» deb yuritiladi. Ibtido bilan aruz va sadr bilan zarb o'rtasidagi ruknlar «**hashv**» deyiladi.

Har bir vaznning oti uning bahriga, baytdagi ruknlarning soniga va ruknlarning zihofiga qarab qo'yilgan. Vazn nomidagi birinchi so'z shu vazn kirgan bahrning nomidir. Ikkinchisi baytning necha rukndan iboratligini bildiradi. Bayt sakkiz ruknli, ya'ni she'rning misrasi to'rt rukndan iborat bo'lsa, «**musamman**» deyiladi. Bayt olti ruknli bo'lsa, «**musaddas**», to'rt ruknli bo'lsa, «**murabba**'» deb ataladi. Uchinchi va undan keyingi so'zlar ruknlarning zihofini anglatadi.

Rukn butun bo'lsa, «**solim**» deyiladi. Masalan, she'rning ham misrasida mafoyilun rukni to'rt marta qaytarilsa, uning vazni «**hazaj-i musamman-i solim**» deb ataladi. Agar shu vaznning aruz va zarbidagi oxirgi hijo tushirib qoldirilgan bo'lsa, ya'ni ruknlar «**hazf**» deb ataluvchi zihofga uchrasa, «**hazaj-i musamman-i mahzuf**» vazni hosil bo'ladi.

Ba'zan vazn nomida zihovning o'rni sadru ibtido, aruzu zarb yoki hashv deb ham ko'rsatiladi. Chunki ba'zi zihoflarning o'rni cheklangan bo'lsa ham, ba'zilariniki cheklanmagan.

She'rni vaznga solib o'qish, ya'ni aruzdan amaliy foydalanishni yengillashtirish uchun hijolarning soniga qarab turkumlarga bo'lish, zihof tushunchasidan voz kechish va afo'ilu tafo'ilni o'zgartirish kerak.

Albatta, she'rxonlarimizni she'rning vaznini aniqlash va uning vaznini buzmasdan o'qish qiziqtiradi. Shuni nazarga olib biz quyida o'zbek nazmida ko'p ishlatiladigan vaznlarning ro'yxatini ruknlarni yangichalashtirib beramiz. Munda «t» rukn boshini ifodalaydi, «ta» va «na» qasqa hijoni «tan» va «nan» cho'ziq hijobni bildiradi:

Olti hijoli vazn

1. tan-nan-na ta-nan-nan

Yetti hijoli vaznlar

1. ta-nan-na-nan tan-na-nan
2. tan-na-nan-na ta-nan-nan

Sakkiz hijoli vaznlar

1. ta-nan-nan-nan ta-nan-nan-nan
2. tan-na-nan-nan (yoki ta-na-nan-nan) tan-na-nan-nan (yoki ta-na-nan-nan)
3. ta-nan-nan ta-nan-nan ta-nan

To'qqiz hijoli vazn

1. ta-nan-nan ta-nan-nan ta-nan-nan

O'n hijoli vaznlar

1. tan-tan-na ta-nan-na-nan ta-nan-nan
2. tan-nan-na ta-nan-nan-na ta-na-nan

O'n-o'n bir hijoli vaznlar

1. tan-na-nan-nan (yoki ta-na-nan-nan) tan-na-nan-nan (yoki ta-na-nan-nan) tan-nan (yoki ta-na-nan, yoki tan-na-nan).
2. tan-na-nan-nan (yoki ta-na-nan-nan) ta-nan-na-nan tan-nan (yoki ta-na-nan-nan, yoki tan-na-nan)

O'n bir hijoli vaznlar

1. ta-nan-nan-nan ta-nan-nan-nan ta-nan-nan
2. tan-na-na-nan tan-na-na-nan tan-na-nan
3. ta-nan-nan ta-nan-nan ta-nan-nan ta-nan

O'n ikki hijoli vaznlar

1. tan-nan-na ta-nan-nan-na ta-nan-nan-nan tan
2. tan-nan-na-nan tan-nan-na-nan tan-nan-na-nan
3. ta-nan-nan ta-nan-nan ta-nan-nan ta-nan-nan
4. tan-na-nan tan-na-nan tan-na-nan tan-na-nan

O'n uch hijoli vaznlar

1. tan-nan-na ta-nan-nan-na ta-nan-nan-na ta-nan
2. tan-nan-na tan-na-nan-nan tan-nan-na tan-nan-nan

O'n to'rt-o'n besh hijoli vaznlar

1. ta-na-nan-nan yoki tan-na-nan-nan ta-na-nan-nan (yoki tan-na-nan-nan) ta-na-nan-nan (yoki tan-na-nan-nan) tan-nan (yoki ta-na-nan, yoki tan-na-nan)
2. ta-nan-nan ta-na-nan-nan ta-nan-na-nan tan-nan (yoki ta-na-nan, yoki tan-na-nan)

O'n to'rt hijoli vaznlar

1. tan-nan-nan ta-nan-nan-nan tan-nan-na ta-nan-nan-nan
2. tan-nan-na ta-nan-nan-na ta-nan-nan-na ta-nan-nan
3. ta-nan-nan-na ta-nan-nan ta-nan-nan-na ta-nan-nan
4. tan-na-na-nan tan-na-nan tan-na-na-nan tan-na-nan
5. tan-nan-na tan-na-nan-nan tan-nan-na tan-na-nan-nan
6. tan-nan-na tan-na-nan-na ta-nan-nan-na tan-na-nan
7. ta-nan-nan-na tan-na-nan ta-nan-nan-n tan-na-nan
8. ta-nan-nan ta-nan-nan-nan ta-nan-nan ta-nan-nan-nan

O'n besh hijoli vaznlar

1. ta-nan-nan-nan ta-nan-nan-nan ta-nan-nan-nan ta-nan-nan
2. ta-nan-nan-na ta-nan-nan-na ta-nan-nan-na ta-nan-nan

O'n olti hijoli vaznlar

1. ta-nan-nan-nan ta-nan-nan-nan ta-nan-nan-nan ta-nan-nan-nan
2. tan-nan-na-nan tan-nan-na-nan tan-nan-na-nan tan-nan-na-nan
3. tan-na-na-nan ta-nan-na-nan tan-na-na-nan ta-nan-na-nan
4. ta-nan-na-nan ta-nan-na-nan ta-nan-na-nan ta-nan-na-nan
5. tan-na-nan-nan (yoki ta-na-nan-nan) tan-na-nan-nan (yoki ta-na-nan-nan) tan-na-nan-nan (yoki ta-na-nan-nan) tan-na-nan-nan (yoki ta-na-nan-nan)
6. ta-na-nan-na tan-na-nan-nan ta-na-nan-na tan-na-nan-nan
7. ta-nan-na-nan ta-na-nan-nan ta-nan-na-nan ta-na-nan-nan

Yigirma hijoli vazn

1. ta-na-nan-na-nan ta-na-nan-na-nan ta-na-nan-na-nan ta-na-nan-na-nan

Endi misol uchun Navoiyning bir g'azalidan quyidagi baytni taqti' qilib, ya'ni bo'g'in va ruknlarga ajratib, vaznini aniqlaylik:

*Charhu anjum sari ohim o'tidin
Yuborib dud ila uchqun yig'lay.*

Buni hijolarga ajratsak quyidagicha bo'ladi:

*char-hu an-jum-sa-ri-o-him-o'-ti-din
yu-ba-rip-du-di-la-uch-qun-yig'-lay1*

Baytning birinchi misrasi o'n bir hijodan, ikkinchisi o'n hijodan iborat. Demak, uning vaznini o'n-o'n bir hijoli vaznlar turkumidan qaraymiz. Bu turkumda ikkita vazn berilgan bo'lib, ular ikkinchi ruknda farq qiladi. Rukning uchinchi hijosi birinchi vaznda cho'ziq bo'ladi, ikkinchi vaznda esa qisqa bo'lishi shart. Mazkur baytning ikkala misrasida ham o'sha o'rindagi hijolar o, uch cho'ziq. Demak, bu baytni o'n-o'n bir hijoli vaznlar turkumidagi birinchi vaznga solib o'qish kerak ekan:

*char-xu-an-jum sa-ri-o-him o'-ti-din
tan-na-nan-nan ta-na-nan-nan ta-na-nan
yu-ba-rip: di-la-uch-qun yig'(lay*

ta-na-nan-nan ta-na-nan-nan tan-nan

Aruz ilmi hakida mufassal ma'lumotga ega bo'lishni istagan yigit, qizlarimizga Navoiy va Boburning shu ilmga bag'ishlangan risolalarini mutolaa qilishni tavsiya qilaman.

YUKSAK MAHORAT S O H I B I

Navoiyning asarlari ham ma'no, ham suvratda barkamoldir. Uning butun ijodi ulug' ma'rifiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lish bilan birga badiiy jihatdan yuksak darajadadir. Shunga binoan bu faslda uning mahorati haqida suhbatlashamiz.

Adabiy asarning, jumladan, uning badiiy jihatning yetukligiga birlamchi asos voqiiylikdir. Bu o'rinda voqiiylik deganda borliq taqozosi bilan sodir bo'lishni nazarda tutamiz. Inson tabiatning bir bo'lagi bo'lgani uchun sog'lam kishi tab'iga g'ayritabiiy narsalar eqmaydi. Shuning uchun kishi yaratgan narsa inson uchun foydali bo'lishi va uning mijoziga muvofiq tushishi uchun u tabiat qonunlariga zid bo'lmasligi zarur.

Adabiy asarning badiiyligi tabiat yaratgan mavjudot va maxluqotdagi go'zallik singaridir. Farq shundaki, badiiylik sun'iy, ya'ni inson yaratgan go'zallikning bir turidir. Lekin sun'iy go'zallik ham yetuk bo'lishi uchun tabiiy go'zallikka xos xossalarga ega bo'lishi kerak. Ana shu xossalar badiiy yetuklikning ikkinchi asosini tashkil qiladi. Demak, shoirning mahorati tabiat san'atkori singari turlash va birlashtirishda namoyon bo'lib, adabiy asarning badiiyligi tabiiy mavjudotning go'zalligi kabi turlanish va birlashish natijasida vujudga keladi. Shoir turlash va birlashtirish sifat va miqdor, zamon va makon e'tibori bilan tartib, tenglik va nisbatdan foydalanadi. Nisbat esa uyg'unlik va ziddlikdan iboratdir. Turlash va birlashtirish ijod jarayonida barobar amalga oshib boradi. Turlash birlashtirish singari asarning hamma tomonini qamraydi.

Navoiynig asarlari barcha jihatdan nihoyat darajada rango-rangligi bilan ajralib turadi. Ularda voqea, qahramon, tabiat, buyum, inshoot, makonu zamon ham, tavsifu bayon ham, vazn, qofiya, saj' va o'zga badiiy vositalar ham har bobda, har faslda, har bayt va har jumlada turlichadir. Shu bilan birga boshqalarga nisbatan yo'q na bir bob, na bir fasl, na bir bayt yoki jumla, na bir so'z, na bir tovush bor.

Voqea va kahramonlarning turliligini, masalan, «Xamsa»da ko'rish mumkin, lekin bu turlilik ziddlik va uyg'unlikni o'z ichiga olganligi uchun birlikning turliligidan iborat. Navoiy asarlarida tilga olinmagan tabiiy va sun'iy narsalar, ilmiy tushunchalar juda kam. Shoir qalamiga tushmagan o'lka, manzil, zamon, fasl va vaqt ham kam. Shuni ham ta'kidlash kerakki, turlilik Navoiyning butun ijodigagina emas, uning har bir asariga va har bir asarining har bir bo'lagiga ham xosdir.

Navoiyning tavsiflarining turlanishini va uning bu boradagi mahoratini Nizomiy Ganjaviy bilan Xusrav Dehlaviy madhi, so'z va tong tavsifi misolida ko'rib chiqaylik.

«Xamsa»ning hamma dostonlarida so'z, jumladan, nazm va so'z ustodlari Nizomiy Ganjaviy bilan Xusrav Dehlaviy madh etiladi. Ammo har dostonidagi madh o'z hajmi va o'z mazmuniga ega. «Hayratu-l-abror»da Nizomiy bilan Xusravga alohida bob bag'ishlangan va bu bobga quyidagi sarlavha qo'yilgan:

«Hazrat-i shayx Nizomiy madhidakim, nazm mulkida zo'r bozu sarpanjasi bila panj ganj nuqudu javohirin oldi va Amir Xusrav ta'rifidakim, bu javohiru nuqud tama'idan panja aning panjasig'a soldi».

So'zga ham alohida bob ajratilgan:

«So'z ta'rifidakim, bashar vujudi sipehrining kavojib-i jahontobiyu inson zoti ma'danining javohir-i serobi durur va sa'd kavkablarining bir-biri bilan qironi yaxshi asar qo'rg'uzurdin va samin javharlarining bir-biriga iqtironi dilpazir ko'runuridin nazm tarkibin nasr tartibiga tarjih qilmoq».

«Laylovu Majnun»da so'z bilan so'z ustodlarining madhi bir bobda berilgan. Birinchi dostonida o'z salaflarini o'z nomi bilan «Hazrat-i shayx Nizomiy» va «Amir Xusrav» deb atagan bo'lsa, bu dostonida Nizomiyni «Ganja hakimi» va Xusrav Dehlaviyni «Xind sohibi», ya'ni sehgari deb ataydi:

«So'z gavhari vasfidakim, gavhar so'zi aning qoshida gavhar ollida bir qatra sudek bo'la olg'ay, bir necha so'z surmak va Ganja hakimi ta'rifidakim, ganj-i Qorun aning Panj ganji qoshida ganj ollida vayronadek ko'rungay, ganjfishonliq qilmoq va Xind sohirinikim, Kashmir jodulari aning oldida ip esha olmaslar, aning gavhari silkiga tortmoq va o'z nazmining churuk rishtasining uzuk torin ham alarga ulamoq».

«Farhodu Shirin»da Nizomiy bilan Xusrav madhi qalam vasfiga bag'ishlangan bobda beriladi va ularning birinchisi «raqamkash» va ikkinchisi «roqim» deb olinadi.

«Qalam vasfida bir necha qalam surmak va ul raqamkash ta'rifin raqamga kelturmakki, nazm kishvari savodin yakqalam qilib erdiyu Panj ganj avroqig'a gavharposh raqami tortilib erdi va ul. Roqim bobida hamki, munung xatti ma'nosin raqam-baraqam, bildi, balki qalam-baqalam naql qildi...»

«Sab'a-yi sayyora»da bu mavzu yanada boshqacharoq:

«So'z nasridin nazmi xushraqu parokandasidin jam'i dilkashrak erkanin da'vo qilmoq va bu jam'iyatni besh ganj jomi'i Nizomiyu Hind shakarrez, balki shirinkalomig'a musallam tutmaq va ul bahrang'g'a qatranishonu ul nayyirayng'a zarrason o'zin yetkurmak»

«Sadd-i Iskandariy»da esa bu haqdagi bob quyidagicha sarlavhalangan:

«So'z ta'rifida bir necha so'z kim, ofarinish daryosidin burung'i chiqqan gavhar-i serob dururu xilqat sipehridin tulu' etkan axtar-i purtob va bu munosabat bilan hazrat-i shayx Nizomiy, kuddisa sirruh, maddohlig'ikim, bu axtarning sipehrgardoni ul erdi va bu ta'rif bila amir Xusrav, nuvvira marqaduh avsofikim, bu gavharning daryo-yi bepayoni ul erdi».

Nizomiy va Xusravning ta'riflari har bir dostonida o'ziga xos bo'lib, Navoiy bu borada katta mahorat ko'rsatgan. Bir shaxsning ta'rifini turlicha va o'z o'rniga moslashtirib berish juda qiyin ish. Mazkur ta'riflarning yana bir ajoyib tomoni shundaki, Nizomiyning vasfi Xusravnikiga, Xusravniki Nizomiylikiga o'xshamaydi. Ularning ta'rifida har birining o'ziga xos xususiyatlari, yashagan o'rnini va sharoiti aks ettirilgan. Shu bilan birga ularning o'zaro ijodiy munosabati ham juda aniq ko'rsatib berilgan.

Endi Navoiy tong otishini qay o'rinda qay tarzda tavsif qilganini ko'rib chiqaylik.

«Farhodu Shirin» dostonida Farhodning ajdahoni o'ldirib, xazina topadigan kuni quyidagi baytlar bilan tavsif etilgan:

*Kecha dudini surgach tong nasimi,
Chiqardi subh ganji lavh-i siymiy.
Quyosh tun g'oridin bo'ldi ravona,
Nechukkim ajdar og'zidin zabona.*

Bu tongning tuni esa quyidagicha tasvirlangan:

*Chu dud etti ayon tun ajdahosi,
Yashundi dud aro olam fazosi,
Quyosh ganji bo'lub tufroqqa maxfiy,
Qarordi bu biyik vayrona saqfi.*

Bu yerda tun tavsifini ham keltirishimizning sababi bor. Tun tavsifi yigirma birinchi bobning oxirida, tong tavsifi esa yigirma ikkinchi bobning boshida berilgan. Bu ikki tavsif ikki bobni bir-biriga bog'lovchi qism bo'lib, Navoiy bu xususda ham ulug' mahorat ko'rsatgan. Tong bilan tun zid hodisa bo'lishiga qaramasdan Navoiy tavsifida bular birlashib ketgan. Navoiy bunga har ikki hodisani quyosh vositasi bilan tavsiflash natijasida erishgan. Ikkala hodisani ham dud, ajdaho va ganjning tavsifi vosita sifatida foydalanilishi esa bu ikki tavsif va ikki bob orasidagi aloqani yana ham mustahkamlagan. Mazkur tavsif g'or va ajdar og'zidin chiqadigan yolin bilan

birgalikda bobning mundarijasini, ya'ni Farhodning ajdar bilan olishib, uni o'ldirib xazina ochishini va kishining bunday ishlarga kirishish oldidagi ruhiy holatini juda yaxshi aks ettirgan.

O'sha kunning oqshomini Navoiy quyidagicha tasvirlaydi:

*Quyosh Farhodi chun tortib sinon tez,
Qora tog' ajdarig'a bo'ldi xunez,
Shafaqtin ko'kni andoq tutti qoni
Ki, bo'ldi yerdagi qondin nishoni.*

«Farhodu Shirin» dostonining yigirma uchinchi bobida Farhodning Ahramanni o'ldirib, Sulaymondan qolgan hikmatli uzukni qo'lga kiritishi bayon qilinadi. Bu yerdagi tong tasviri ham shu bobning o'ziga munosib va oldingisidan butunlay o'zgachadir:

*Chu septi dahr tun mushkiga kofur,
Sochildi Ahraman anfosidin nur.
Tutub holig'a tun ifriti motam,
Sulaymon-i falak ko'rguzdi xotam.*

Ya'ni: dahr tunni mushkka kofur sepgandagi kabi oqartirgach, Ahraman nafasidek zulmatdan nur sochildi, chunki Sulaymon o'z xotamini ko'rsatganday, falak o'z quyoshini namoyon qildi.

Bu kunning nihoyasini Navoiy tubandagicha tasvirlaydi:

*Chu gardun Rustami xur tiyg'in oldi,
Zamon oq devining bo'ynig'a soldi,
Halok aylab ani hol-i tabohiy,
Jahonni tiyra qildi dud-i ohi.*

Bu yerda gardun, ya'ni osmon Rustamg'a, xur, ya'ni quyosh shu'lasi tiqqa, kunduz oq devga o'xshatilgan. Bu bilan Navoiy Farhodning Ahramanni o'ldirishi Rustamning Mozandaronda devni halok etishiga o'xshaganligiga ishora qilgan.

Dostonning yigirma to'rtinchi bobida Farhodning Iskandar tilimini ochish yo'lidagi harakatlari bayon qilinadi. Bu o'rindagi tong tavsifi ham shu bob mazmuniga mos va o'ziga xosdir:

*Chu zulmat ra'yati bo'ldi nigunsor,
Quyosh Iskandari ko'rguzdi ruxsor.
Bezaldi gulband-i axzar tilismi
Tamom, andoqki Iskandar tilismi.*

Ya'ni zulmatning ra'yati (lashkar bayrog'i) yiqilgach, dushman lashkari yo'q bo'lgandan keyin Iskandar yuzini ko'rsatgandek quyosh namoyon bo'ldi. Ko'k gumbazi ostidagi tilism, ya'ni ko'zga ko'rinmay turgan mavjudot Iskandar tilismi kabi rang-barang bezaklarini ochib tashladi. Bu kunning tunini Navoiy mana bunday yakunlaydi:

*Qamar Farhodi chun ko'rguzdi jismin,
Buzub kunduz hisorining tilismin.
Siskandardek kirib zulmatqa xurshid,
Tilism ichra yashundi jom-i Jamshid.*

Bu yerdagi ikkinchi tilism tun va jom-i Jamshid quyoshdir. Jamshidning hikmatli jomi Iskandar tilismida bo'lib, buni Farhod qo'lga kiritadi. Navoiyning oxirgi misradagi ishorasi ana shu voqeaga asoslangan.

Dostonning yigirma beshinchi bobida Farhodning Suqrot tog'idagi sarguzashtlari bayon qilinadi bu bob qo'yidagi baytlir bilan boshlanadi:

*Sahar Suqroti chun tog' avji tutti,
Jamoli nuri olamni yorutti.*

*Sipehr avroqidin asbobi oning.
Quyosh jirmidin usturlobi oning.*

Bu yerda tong Suqrotga, nur uning jamoliga, quyosh usturlobga, osmon qog'oz varag'iga o'xshatilib, shu bobning o'ziga muvofiq va boshqa boblardagidan tamoman farq qiladigan tong tavsifi yaratilgan. Bu kunning tunini Navoiy shunday boshlaydi:

*Quyosh Suqroti chun yer qildi maskan,
Kecha Luqmoni bunyod etti shevan.
Yasab ko'ku qaro birla libosin,
To'kub, ashk, ayladi zohir azosin.*

Bu yerda Quyosh Suqrotga, Tun Luqmonga, quyosh botishi Suqrotning dafn etilishiga, qorong'u tushishi Luqmonning Suqrotning azasida qora kiyishiga, osmonda yulduzlar paydo bo'lishi uning ko'z yoshiga o'xshatilgan.

Dostonning yigirma oltinchi bobida Farhodning Xoqon va uning lashkari bilan Yunondan Chinga qaytishi hikoya qilinadi va bu harakat boshlangan tong quyidagicha tasvirlanadi:

*Sahar sarchashmasi chun bo'ldi ravshan,
Falakning marg'zori qildi gulshan.
Safo topib falak, Yunon zamini,
Sipehr chekti quyosh-xoqon-i Chiniy.*

Tongning «Farhodu Shirin»dagi bir-biridan farq qiluvchi bu tavsiflari boshqa dostonlardagidan farq qiladigan umumiylikka ega. Bu holat, masalan, «Sab'a-yi sayyor» dostonidagi tong tavsiflarini ko'rib chiqsak, ravshanlashadi. Bahrom uni ovutish uchun qurilgan yetti qasrning har birida bir kun ertalabdan o'z nikohidagi malikalarning biri bilan mayxo'rlik qiladi: shanba kuni qora qasrda birinchi iqlim sultonining qizi bilan, yakshanba kuni sariq qasrda ikkinchi iqlim podshosining qizi bilan, dushanba kuni yashil qasrda uchinchi iqlim xonining qizi bilan, seshanba kuni qizil qasrda to'rtinchi iqlim podshosining qizi bilan, chorshanba kuni moviy qasrda beshinchi iqlim maligining qizi bilan, payshanba kuni sandalrang qasrda oltinchi iqlim hukmodirining qizi bilan va juma kuni oq qasrda yettinchi iqlim sultonining qizi bilan tunni o'tkazadi. Mana shu yetti kunning tongini Navoiy yetti turda, lekin «Farhodu Shirin»nikidagidan umumiy bir farqqa ega qilib tavsif qiladi. Shanba tongi quyidagicha:

*Subh-i shanbaki, shom-i dayjuriy,
Yuziga hulla yopti kofuriy,*

*Qasr-i mushkinga qo'ydi yuz Bahrom
Ichkali mushkbo' g'azol ila jom.*

Yakshanba kunining tongi tubandagicha:

*Chunki yakshanba urdi mehr alam,
Kiydi zarbaft hulla ko'k toram.*

*Ko'k arusi to'nin qilib zarkash,
Chiqti andoqki gulrux-i mahvash.*

Dushanba tongi mana bunday:

*Chun dushanba sipehr-i zangoriy,
Zingdin qildi ko'zgusini oriy.*

*Qildi yuz revu rang ila gardun,
Subh chodirshabin zumurradgun.*

Seshanba tongi shunday:

Chun seshanba sipehr-i chobukxez

To'kti anjum sharoridin gulrez.

*Bog'ladi zol-i charx o'lub ra'no,
Abr-i shingarfgun bila xino.*

Chorshanba tongi shunday:
*Chorshanbaki toq-i nilufariy,
Qildi tun karvonini safariy.*

*Mehr o'z zarhalin ayon qildi,
Shamt ustiga shastmon qildi.*

*Ko'k fazosig'a mehr qildi safar
Bo'lubon ro'baro'y-i nilufar.*

Payshanba tongining tavsifri:
*Panjshanba, subh-i charhmahal,
Suvadi ko'k jabinig'a sandal.*

*Sandaloso nasim-i laxlaxasoy
Ko'k dimog'iga bo'li artfizoy.*

*Bu sifat atr-i sandalosodin,
Tun mizoji quyuldi savdodin.*

Juma tongi:
*Chunki odina, bu rafi' ravoq,
Qildi toqin sahar gachidin oq,*

*Solib erdi musha'bid-i gardun,
Najm donalaridin og'zig'a un.
Subhdin lek eyla chushkurdi
Kim, damidin ul. o'tni sovurdi.*

*Subh savbini gozur-i aflok,
Mehr sobuni surtibon yudi pok.*

Agar «Farhodu Shirin» bilan «Sab'a-yi sayyora» dostonlaridagi mazkur tong tavsiflarini har bir dostonning o'ziga xos umumiy tomonini olib muqoyasa, qilsak, quyidagi farqlarni ko'ramiz.

«Farhodu Shirin»da tong va tong otish jaroyoni asar qahramonlari va ularning ishiga o'xshatiladi. Buning sababi qahramonlarning fasilligi, ya'ni o'sha kungi voqeada ularning faol ishtirok etishidir. «Sab'a-yi sayyor»da esa bu vazifani falakning o'zi yoki nayrangboz, me'mor va kirchilar bajaradi. Buning sababi Bahromning faoliyatsizligidir.

«Farhodu Shirin»dagi tong tavsifining hammasi bir xil kuchga ega. Bu faqat sifatda emas, miqdorda ham aks etadi. Chunki hammasi ham ikki baytdan iborat. «Sab'a-yi sayyor»da tavsif kuchayib boradi. Oxirgi kuni falak kirchisi tong kiyimin quyosh sovuni bilan yuvib pok qiladi. Chunki Bahrom shu kuni Diloromdan xabar topadi. Bu dostonida baytlar soni jihatdan ham ortib boradi. Birinchi tong tavsifi bir baytdan va ergash gapdan iborat, bosh gapi ikkinchi gapda, lekin ikkinchi baytda tong tavsifi yo'q. Ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi va beshinchi tong tavsiflarining har biri ikki baytdan berilgan. Oltinchisi uch baytdan, yettinchisi esa to'rt baytdan iboratdir.

So'z ustodlari turlashdan faqat voqea, qahramon va narsalar hamda ularning tavsifidagina emas, bayonda ham mukammal foydalanadilar. Bir voqea, narsa yoki tushunchani har xil so'z va iboralar bilan, bir fikrni gapning turlicha ko'rinishlari bilan ifodalash mumkin. Tilni mukammal bilgan shoir o'z asarini rang-barang qilishda tilning xususiyatidan ham samarali foydalanadi. So'z san'atining bu bobida ham Navoiyga yetadigan shoir yo'q.

Navoiy turkiy lahjalarni mukammal o'rgangan, arab va fors tillarini a'lo darajada bilgan va bu tillarda yozilgan ilmiy va adabiy kitoblarni chuqur tahlil qilib yaxshi o'zlashtirgan. Shoir tilning juda nozik tomonlarini yaxshi anglagan Navoiyning til borasidagi nuqtabinligi uning adabiyot maydonidagi ulkan badiiy muvaffaqiyatlariga asos bo'lgan. Navoiy tildan to'liq hamda aniq foydalanibgina qolmay, uni har tomonlama boyitdi va juda yuksak darajaga ko'tardi. Buning tafsiloti oldingi fasllarning birida bayon qilindi.

XAZOYNU-L-MAONIYNING F O T I H A S I

Buyuk bobolarimiz har bir ishni avval Qur'on-i karimni nazarga olgan holda amalga oshirganlar. Hazrat-i Navoiyning faoliyati va ijodi ham shu amalga asoslangan. Qur'on-i majid Fotiha surasi bilan ochiladi «Fotiha» ochuvchi degani. Bu suraning bunday atalishiga sabab kitobning o'zi va uning mazmuni shu sura bilan ochiladi. Shundan ilhom olgan muslim Navoiy o'zining «Xazoyinu-l-maoniy»sini quyidagi Fotiha g'azali bilan boshlagan:

*Ashraquat min aksi shamsi-l-ka'si anvoru-l-hudo,
«Yor aksin mayda ko'r» deb, jomdin chiqti sado.*

*G'ayr naqshidin ko'ngul jomida bo'lsa zang-i g'am,
Yo'qtur, ey soqiy, may-i vahdat masallik g'amzudo.*

*Ey xush ul maykim, anga zarf o'lsa bir sing'an safol,
Jom o'lur getiynamo, Jamshid ani ichkan gado.*

*Jomu may gar buyladur, ul. jom uchun qilmoq bo'lur
Yuz jahon har dam nisor, ul. may uchun ming jon fido.*

*Dayr aro hush ahli rasvo bo'lg'ali, ey mug'bacha,
Jom-i may tutsang, meni devonadin qil ibtido.*

*Toki ul maydin ko'ngul jomida bo'lg'ach jilvagar
Chehra-yi maqsud, mahv o'lg'ay hamul dam moado.*

*Vahdate bo'lg'ay muyassar may bila jom ichrakim,
Jomu may lafzin degan bir ism ila qig'ay ado.*

*Sen gumon qilg'andin o'zga jomu may mavjud erur
Bilmayin nafy etma bu mayxona ahlin, zohid-o!*

*Tashnalab o'lma Navoiy, chun azal soqiysidin
«Ishrabu yo ayyuha-l-atshon» kelur ham dar nido.*

Mazkur she'r Navoiyning to'rt devondan iborat bo'lgan «Xazoyinu-l-maoniy», ya'ni ma'no olamining xazinalari, deb atalgan asarining birinchi devonidagi birinchi g'azaldir. Ammo bu g'azal «G'aroyibu-s-sig'ar», ya'ni kichiklik, o'smirlikning qiziqliklari, deb atalgan birinchi devonning boshida keltirilgan bo'lsa-da, u qolgan devonlarga ham, ya'ni butun «Xazoyinu-l-maoniy»ga muqaddimadir. Shuning uchun bu g'azalni Navoiy aytgan birinchi g'azal deb tushunish kerak emas. U devonlarning majmuasidagi o'rniga ko'ra birinchi g'azaldir.

G'azal to'qqiz baytdan iborat. Har bir bayt ikki misradan tuzilgan bo'ladi. G'azalning birinchi bayti «**matla'**» va oxirgisi «**maqta'**» deyiladi. G'azalda matalning ikkala misrasi va qolgan baytlarning ikkinchi misralari yagona qofiyaga ega bo'ladi.

Bu g'azalning qofiyasi ridfli muqayad qofiyadir. Qofiya hosil bo'lishi uchun takrorlanishi shart bo'lgan tovush raviy deb ataladi. Bu yerda raviy «o» tovushidir. Raviy qofiyaning asosiy

birligidir. Ammo bu qofiyada uning hamohangligini oshiruvchi ridf degan birlik ham bor. Bu «d» tovushidir.

G'azalning vazni - *foilotun foilotun foilotun foilon*. Uchinchi baytning birinchi misrai-foilon. Misra oxirida o foilon bilan foilon bir she'rning o'zida o'rin almashib kelaberadi. Bu vaznning oxirgi rukni foilon bo'lganda «**ramal-i musammani mahzuf**» deb, foilon bo'lganda «**ramal-i musammani maqsur**» deb yuritiladi. Risolaning «Aruz» faslida ochqichda foilotun rukni tan-na-nan-nan shaklida berilgan, foilon bilan foilon esa bir shakl bilan tan-na-nan deb ifoda qilindi.

G'azalda vazn yoki vazn tufayli til qoidalari buzilgan, uslub va ma'noga nuqson yetgan holat yo'q.

G'azalning eng yaxshi chiqqan baytini shohbayt deyiladi. Lekin bu g'azalning hamma bayti shohbayt darajasida. «Jom» va «may» so'zlari hamma baytlarda takrorlangan. Bu iltizom san'atidir. «Jomu may» iltizomi Navoiyning aqidasi, ushbu g'azal mazmuniga muvofiq tushgan. Chunki yetuk insonning ko'ngli, ya'ni borliqning haqiqatidan ogoh bo'lgan kimsa mangu saodat egasi bo'ladi va buning bitmas-tuganmas kayfidan, ya'ni lazzatidan bahra oladi. G'azalga borliqda mana shu maqsadga erishish yo'li borligi va kishining o'zida bunga zotiy iste'dod mavjudligi mavzu qilib olingan. Shu bilan birga bu g'azal Navoiyning faoliyati, jumladan, adabiy ijodining barnomasi hamdir.

G'azal husn-i matla' bilan boshlangan. Matla mazmunan va shaklan o'z o'rniga munosib bo'lsa, «**husn-i matla'**» deyiladi. Bu matla faqat mazkur g'azalga nisbatan husn bo'lib tushgan, g'azalning o'zini ham devonga nisbatan husn-i ibtido, deyish mumkin. Bu matla mulamma' (shiru shakar) hamdir: birinchi misrai arabcha, ikkinchisi o'zbekcha. Bu Navoiyda va u targ'ib qilayotgan g'oyatda milliy cheklanishning yo'qligini va til farqining g'oyaviy birlikka mone bo'lolmasligini ko'rsatadi. Mazmun birligi doirasidagi shakliy rangbaranglik badiiyyatning asosiy usulidan biridir.

Bu g'azalning mazmunini anglash uchun birinchi navbatda «may» so'zining ramziy ma'nosini bilib olishimiz kerak.

Lug'aviy ma'nosi bilan uzumni achitib tayyorlanadigan ichimlikni «may» so'zi va uning «sharob», «boda», «xamr», «chog'ir», «roh», «mul», «mudom», «sahbo» singari ma'nodoshlari badiiy falsafiy asarlarda istiora tarzida haqiqat ma'rifati va ishqiga nisbatan ham ishlatiladi.

Ishqu muhabbat bir necha jihatdan mayga o'xshaydi. Abdurahmon Jomiy o'zining «Lavomi» asarida muhabbat bilan mayning o'xshash jihatlaridan o'ntasini bayon qilgan.

Birinchisi, may o'zining asliy o'rni bo'lmish xum ichidan o'zganing ta'sirisiz o'zidan o'zi qaynab, o'zini ko'rsatishga harakat qilganidek, oshiqlar ko'nglidagi yashirin ishq ham g'alayon qilib zuhur etishga intiladi.

Ikkinchisi, may o'z zoti haddida muayyan bir shaklga ega emas, qaysi idishga tushsa, shu idishining ichki shaklini oladi. Xuddi shuningdek, ishq aslan mutlaq bo'lib, uning zuhurida muhabbat ahlining qobiliyati va iste'dodiga yarasha sodir bo'ladi. Oshiqlar orasidagi tafovut ishqning zotiy xususiyatiga emas, ularning ko'ngul idishiga bog'liqdir.

Uchinchisi, mayning ham, ishqning ham siroyati yalpi jarayondan iboratdir. May kishining hamma a'zosiga ta'sir qilganidek, ishq ham oshiqning qonu joniga kirib uning butun vujudini egallab oladi.

To'rtinchisini, may o'zining ichkuchisini, ishq sevguchini mardu sahiy qilib qo'yadi. Ammo may masti pulni ayamasa, ishq masti jonu jahonini, boru yo'g'uni baxshida qiladi.

Beshinchisi, may ham, ishq ham kishini qo'rqmas va botir qilib qo'yadi. Lekin may botirligi oqibatni ko'ruvchi aqlning mag'lub bo'lishidan bo'lsa, ishq shijoati haqiqat nurining g'olibligidandir. Birinchisi shaxsni falokatu halokatga olib boradi, ikkinchisi abadiy hayotu saodatga boshqaradi.

Oltinchisi, may ham, ishq ham kishi boshidan kibru havoni uchiradi va niyozu tavozuga tushiradi. Biroq ichkilikning oqibati xorligu razolatdir, pok ishq natijasi izzatu sharofatdir.

Yettinchisi, may ham, ishq ham sirni fosh qiladi. Asrlar davomida ayon bo'lgan haqiqatu ma'rifat sirlarini ishq yuzaga chiqargan.

Sakkizinchisi, may ham, ishq ham kishini behush qiladi. Ammo may behushligi nodonlik va g'afolatning eng tuban darajasidir, ishq behushligi esa sezgirlik va ogohlikning eng oliy martabasidir.

To'qqizinchisi, mayparast mayni ichgan sari yana ko'proq ichkisi keladi, ishqparast ham, ishq dardiga muhtalo bo'lgan sari yana ortiqroq berila boradi. Lekin ichkuchi borgan sari odamiylik qiyofasini yo'qota boradi, sevguchining esa insoniy fazilatlarini orta boradi.

O'ninchisi, may ham, ishq ham nomusu hayo pardasini ko'taradi. Biroq ichgan o'zidan o'zgani haqorat qilib, xalqqa ozor berishdan uyalmaydi, sevgan esa o'zgalar uchun o'zini xoru zor qilishdan or qilmaydi.

Demak ishqning may bilan o'xshash tomonlari ko'p, lekin oqibat jihatlaridan ular bir-biriga tamoman zid ekan.

Natija e'tibori bilan may zahr va ishq no'sh ekan, nima uchun ishqni may bilan ta'bir qilinadi, degan savol to'g'rilishi tabiiydir. Buning javobi shunday:

Tajribasiz, xom yoshlar va ayrim nafs-i ammorasi qarimagan qarilarning tasavvurida ichkilik bor ne'matlarning eng oliysi va mastlik lazzatlarning eng lazizidir. Agar, ichmay havas qiluvchilarni ham hisobga olsak, bunday xato tasavvurga ega bo'lganlar dunyoda juda ko'p. Binobarin ishqni «may» deb atalganda, birinchidan, mavzuga ko'pchilikning diqqati tortilgan bo'ladi, ikkinchidan, may bilan ishq orasidagi tashqi o'xshashlik bilan ichki ziddiyat lazzat talablarga ravshan bo'lib, mutlaq lazzat haqiqiy ishqda ekanligi ayon bo'ladi.

May ishq ramzi qilib olinganda «jom» so'zi va uning ma'nodoshlari ko'ngilni bildiradi. Ammo birinchi misradagi jom ma'nosidagi «ka's» so'zi ko'ngilni emas ishqning o'zini anglatdi. Buni Navoiyning o'zi ka'sni quyoshga o'xshatish yo'li bilan ifodalagan. «*Ashraquat porlab chiqti, min aksi shamsi-l-ka'si*» may kosasi quyoshining aksidan, «*anvoru-l-xudo*» to'g'ri yo'l, ya'ni haqiqat nurlari degan ma'noda. To'g'ri yo'lga boshlovchi «xodiy», hodiylilik «hidoyat» deyiladi. Demak «*ashraquat min aksi shamsi-l-ka'si anvoru-l-hudo*» may kosasining quyoshi aksidan haqiqat yo'lining nurlari porladi degan mazmunda ekan. Bunda may kosasi quyoshga o'xshatilgan. Quyosh olamdagi nur tarqatuvchi yagona mavjud bo'lgani uchun may kosasidan murod ishq, ya'ni joziba manbai mutlaq borliqdir. Demak, Navoiyning fikriga ko'ra, haqiqat yo'lini munavvar qilib yoritib, unga to'g'ri olib boradigan vosita ishq ekan.

Ikkinchi misra «*Yor aksin mayda ko'r*» deb, jomdin chiqti sado». Bundagi «yor» Haq taolo ma'nosida bo'lib misraning mazmuni shunday:

Haq taoloning nuri olamning haqiqati undagi barcha mavjudotda aks etadi. Ammo ishq mayi shu haqiqatni ko'rish, ya'ni idrok qilish vositasidir. Jom, ya'ni ishq mayining idishi-ko'ngil buni tasdiqlaydi. Chunki oshiq haqiqatni ishq vositasi bilan ko'ngilda idrok etadi. Ikkinchi baytdagi «g'ayr» deganda ma'shuqdan, ya'ni Haq taolodan o'zga hamma narsalar tushuniladi. «G'ayr naqshi»dan murod ko'ngilga ma'shuq hayolidan o'zga narsa tasvishining qattiq o'rnashib olishidir. Jom ishlatilmaganda, ya'ni unga may tushib turmaganda, yoki boshqa narsa solinganda zanglaganidek, haqiqat nuri tushib turishi kerak bo'lgan ko'ngilda o'zga narsalar, ayniqsa yovuz firklar bo'lsa, shularning zangi, dog'i, ya'ni ta'siri uni g'amxonaga aylantiradi.

Shunday bo'lgan taqdirda, ya'ni ma'shuqdan o'zga narsalar g'ami ma'shuqning ko'ngilda jilolanishiga to'siqlik qilganda, «*yo'qtur*», *ey soqiy, may-i vahdat masallik g'amzudo*».

«Masallik» bamisoli, singari degani. «*May-i vahdat masallik*» may-i vahdat singari, degan ma'noda. «G'amzudo» g'amni aritguchi, g'amdan pok qiluvchi degani. Shoir soqiyga murojaat qilib, may-i vahdatdek g'amni arituvchi narsa yo'q, deb, uni o'shanday paytlarda vahdat mayini suzishga undaydi. Bu o'rinda soqiydan murod kosagul emas, balki she'r o'qish, hikmatli so'zlar aytish yoki boshqa shunga o'xshash yo'llar bilan shavq uyg'otuvchi kishidir.

«May-i vahdat» - vahdat tufayli hosil bo'lgan juda shirin behushlikdir. Vahdatning o'zi nima?

«Vahdat» so'zining lug'aviy ma'nosi birlikdir. Buning istilohiy ma'nosi ham bor bo'lib, vahdat e'tiqodiga ko'ra, borliq yagona bir vujudan, olamdagi bor narsalar shu vujudning turli ko'rinishidan iborat. Vahdat tushunchasiga ko'ra borliqning asosi azaliy va abadiy harakatga ega bo'lgan cheksiz Haq taolo nuridan iborat. Mana shu nur olamning joni hisoblanadi. Bu nur rangi shaklga ega bo'lmagani, makonu zamonda cheklanmagani va uzluksiz bor bo'lib turgani uchun kishi uni sezmaydi. Ammo oqko'ngillikni oliy darajaga ko'tara olgan kishi ilm va ishq orqali

mazkur nurni idrok qilishi mumkin. Shunda kishi o'zini unutib, shu nur ichida yo'qolganday bo'ladi. Vahdat mayidan murod - mana shu holat va shunga bo'lgan joziba va ishqdir. Bunga erishgan kimsa olamning nimaligidan, jumladan, o'zining kimligidan voqif bo'ladi. Bunday kishining ko'ngliga hayotda yuz beradigan turli balolar, kishilar o'rtasidagi nizolar, unga qarshi qilingan ish va gap so'zlar ta'sir qilmaydi. U hech ko'nglini buzmay o'zining insoniy vazifasini a'lo darajada bajarib, xalqqa beg'araz xizmat qila beradi. Uning g'oyasi va amali ko'nglini faqat shodlik bilan to'ldiradi. Kishi, agar falonchi mening haqimda yomon gap qildi, deb, undan hafa bo'lsa, falonchining mashinasi bor-u, nega menda yo'q, deb siqilsa, falonchini nega xalq hurmat qiladi-yu mening qadrimga yetmaydi, deb bo'g'ilsa, uning ko'nglida xursandlikka o'rin qolmaydi.

Mabodo o'sha kishilar bilan o'chakisha boshlasa, ularga zarar yetkazish rejalarini tuza boshlasa, turli ruhiy kasalliklarga chalinali va o'zgalarga qazigan chohiga o'zi tushadi.

Uchinchi baytdagi zarf - idish, getynamo - jahonni ko'rsatuvchi. Afsonalarga ko'ra, Jamshid degan podshoning sehrli bir jomi bo'lgan. Birinchidan, bu jomdagi may ichkan bilan tugamagan, ikkinchidan, jahonda bo'layotgan voqealarni teleekrandagiday undan kuzatish mumkin bo'lgan. Jamshidning o'zi oliy darajada ayshu ishrat qilgan shaxs timsoli sifatida tilga olinadi. «Bazm-i Jamshid» degan iboraning vujudga kelishi ham shundandir. Jamshid qisqartirib «jam» shaklida ham qo'llanadi. «Jom-i Jam» deganda Jamshidning o'sha sehrli Jomi tushuniladi.

Navoiy mazkur baytda agar kishiga vahdat mayi muyassar bo'lsa, jom o'rnida singan safol kosasi bo'lsa ham yaxshi bo'ladi, bunday siniq safol kosaga o'shanday may tushsa, u Jamshidning sehrli jomiday getynamo, ya'ni jahonnamoga aylanadi, uni ichgan kishi esa, gado bo'lsa ham, Jamshidning shohona ayshu ishratining kayfini suradi, deydi.

«Singan safol»dan murod, birinchidan, siniq ko'ngil, ya'ni dardli ko'ngil, ikkinchidan, faqr, ya'ni boylikka hirs qo'ymaslikdir. Haqiqat mayining ayshini surish uchun ortiqcha molu mulk, oltin-kumush bo'lishi shart emas. «Getynamo»dan murod shuki, mazkur maydan bahramand bo'lgan kimsa, borliq sirlaridan vaqif bo'ladi.

To'rtinchi baytda Navoiy agar jom bilan may shunday bo'ladigan bo'lsa, bunday jom uchun yuz jahonni nisor qilib, ya'ni sochqi qilib, bunday may uchun ming jonni fido qilsa bo'ladi, deydi.

Beshinchi baytdagi «dayr» so'zining ikkita haqiqiy ma'nosi bor, birinchisi-gumbaz, ikkinchisi - g'ayrislomiyy ibodatxona, majoziy ma'noda mayxonani ham bildiradi. Bu baytda «dayr» ramziy mazmundagi mayxona bo'lib, hammaslak pokboz oshiqlar davrasini va ularning majlisini hamda yig'ilgan yerini bildiradi.

«Mug'bacha» aslida mug'lar xizmatidagi bola bo'lib, ko'chma ma'noda soqiyni bildiradi. Mug' - umuman otashparast, xususan, otashparastlar ruhoniysi, Navoiyning mazkur baytidagi «mug'bacha» ham «dayr» so'zi kabi ramziy mazmundagi soqiy bo'lib, ishq davrasini qizituvchi kishini bildiradi. Bu ikkinchi baytning sharhida mazkur bo'ldi. Bu yerda «mug'bacha» so'zining ishlatilishiga sabab uning «dayr» so'ziga nisbati borligidir. «Mug'bacha» o'rnida «soqiy» yoki boshqa so'z ishlatilsa, ular «dayr» so'ziga uyg'unlashmas edi. «Soqiy» so'zi «mayxona», «maykada» kabi so'zlarga uyg'unidir. Mohir san'atkorlar so'zlarni ramziy mazmunda ishlatganda ham ularning asl lug'aviy ma'nolarini nazardan chetda qoldirmaydilar.

Xush ahlidan murod ishq mayidan mast bo'lmaganlardir, «rasvo bo'lmoq»dan murod ishq behushligining siridan bexabarlarining ta'nasiga qolmoqdir. «Ibtido qilmoq»-boshlamoq degani. «Men-i» so'zidagi «i» izofa ko'makchisidir.

Demak:

Dayr ayro hush ahli rasvo bo'lg'ali ey mug'bacha
Jom-i may tutsang men-i devonadin qil ibtido.

degan baytning tashqi mazmuni «ey soqi, mayxonada xushyorlarni mast qilib rasvo qilish uchun may ichiradigan bo'lsang, meni esi yo'qdan boshla, shu rasvolikka men juda mushtoqman», degan fikrdan iborat. Ammo ichki, shoirning aytnoqchi bo'lgan haqiqiy mazmuni «ey oshiqlar davrasini qizituvchi yigit, bizga sirdosh bo'lmaganlar rasvolik deb o'ylagan ishq essizligi holatini vujudga keltirish maqsadida ko'ngilimizga ishq o'tini eqmoqchi bo'lsang, bu ishni mendan boshla, chunki o'zgalarga nisbatan men bunga ko'proq mushtoqman», degan fikrdan iboratdir.

Oltinchi baytdagi «ul may»dan murod vahdat mayi bo'lib, buning mazmuni ikkinchi baytning sharhida ma'lum bo'ldi. «Jilvagar bo'lmoq» - jilva qilmoqning ma'nodoshidir. Kishiga

o'zni o'ziga xos bir tusu tarazda ko'rsatmakni jilva deydilar. Shu so'zda tajalliy degan falsafiy istiloh ham yasalgan. «Tajalliy»ning lug'aviy ma'nosi jilvalanishdir. «Tajalliy» bu mutlaq borliqning mavjudot tusida jilvalanishdir. Mazkur baytdagi «*jilvagar bo'lmoq*»dan murod tajalliy etmakdir. «*Chehra-yi maqsud*»dan murod vajhulhaqdir. Vajhulhaq mavjudotning haq, ya'ni bor qilib turuvchi abadiy va azaliy jihatidir. Olamdagi turli-tuman narsalar mana shu jihati bilan yagonalashadi, vahdat hosil qiladi.

Buni idroq qilgan kishi o'zini olam, xususan, inson bilan bog'lanmagan alohida bir mavjud deb tushunmaydi. Hammani birday ko'radi va jamiyatu tabiatga kamoli ehrom bilan qaraydi.

«*Mahv o'lmoq*» yo'q bo'lmoq, «*hamul*» o'sha, «*moado*» o'zga narsalar degani, o'zga narsalardan murod chehrai maqsuddan o'zga narsalar, ya'ni mavjudotning vajhulhaqdan o'zga, birini biridan judo qiluvchi jihatlaridir.

Shunday qilib:

Toki ul maydin ko'ngul jomida bo'lgach jilvagar

Chehra-yi maqsud, mahv o'lg'ay hamul dam moado

baytning tashqi ma'nosi «ul may vositasida ko'ngul jomida maqsud chehrasi jilvalanishi bilan undan o'zga narsalar yo'q bo'ladi», degan so'zdan iborat. Ichki haqiqiy mazmuni «kishi vahdatga erishib, uning ko'nglida mavjudotning azaliy va abadiy bo'lgan va ularni bor qilib turgan umumiy jhati jilvalansak, ularning boshqa xususiy bir-biriga qarama-qarshi jihatlarini g'oyib bo'ladi» degan fikrdan iborat.

Yettinchi baytning yuzaki mazmuni shunday: jomga may tushgach, ular orasida birlik hosil bo'ladi, shuning uchun jom va mayni bir so'z bilan ifoda qiladilar. ya'ni «*jom*» deganda ham jom, ham uning ichidagi may nazarda tutiladi.

Buning haqiqiy ma'nosi esa quyidagicha:

So'zda ham o'z ifodasini topgan o'sha jom bilan may orasidagi birlik ko'ngil bilan haqiqat orasida ham bor. Haqiqat nuri tushgan ko'ngil nurga aylanib, bunday ko'ngil egasi nuroniy tus oladi.

Sakkizinchi baytda, yuzaki qaraganda, shunday deyilgan:

Ey zohid, ya'ni oxirat uchun tarki dunyo qilgan kishi, sening tasavvuringdagi salbiy xossalarga ega bo'lgan jom bilan maydan o'zga ijobiy jomu may ham bor. Shuning uchun sen bu mayxonadagi bizdek mayparastlarni bilar-bilmas inkor qilma.

Buning haqiqiy ma'nosi shunday:

Ey, masalaga yuzaki qarab, o'zgalarni kamsitib, o'zini ulug' deb biluvi kimsa, so'z boshqa, niyatu amal boshqa, shakl boshqayu mazmun boshqa, maqsad bir, yo'l ko'p. Shuning uchun tushunar-tushunmas ishq ahlini bularning tutgan yo'li noto'g'ri deyishga shoshilma!

G'azal maqtanining tashqi mazmuni tubandagicha:

Ey Navoiy, azal soqiysidan dam-badam «*ichingiz, ey tashnalar*» degan nido kelib turgach, tashnalab bo'lib yurmasdan o'sha mayni ichish harakatida bo'li! Buning ichki ma'nosi quyidagicha: Insonning haqiqatga bo'lgan tashnaligini qondirish borliqning azaliy xossaligidan biri. Olamda buning ravshan belgilari namoyon. Shuning uchun agar sidqidildan haraqat qilsang, borliq sening ham haqiqat bo'lgan tashnaligingni qondiradi. Shunga haraqat qil, umringni zoye qilma!

Endi, muhtaram o'quvchi, g'azalni vaznini rioya qilgan holda o'qing! Uning hijo va ruknlari quyidagicha:

Ash-ra(qat-min ak-si-sham-sil ka'-si-an-vo rul-hu-do

Ë-r-ak-sin may-da-ko'r-dep jo-m-din-chiq ti-sa-do

G'ay-r-naq(shi: din-ko'-ngul-jo mi: -da-bo'l-sa: zang-gi(g'am

Yo'q(tu-rey-so qiy-ma-yi: -vah dat-ma-sal-lik g'am-zu-do

Ey-xu-shul-may kim-a-nga: -zar fo'l-sa-bir-sin g'an-sa-fol

Jo-mo'-lur-gn: tiy-na-mo-Jam shi: -da-ni: -ich kan-ga-do

Jo-mu-may-gar buy-la-dur-ul jo-mu-chun(qil maq(bo'-lur

Yo'z-ja-hon-har dam-ni-so-rul may-u-chun-ming jon-fi-do

Day-ra-ro-hu: shah-li ras-vo bal(g'a-li: -ey mug'(ba-cha
Jo-mi-may-tut sang-me-ni: -de vo-na-din(qil ib-ti-do

To-ki-may din-ko'-ngul-jo mi:da-bo'l(g'ach jil-v-gar
Cheh-ra-yi: -maq(su: -d-mah-vo'l g'ay-ha-mul-dam mo-a-do

Vah-da-te-bo'l g'ay-mu-yas-sar may-bi-la: -jo mich-ra-kim
Jo-mu-may-laf zin-de-gan-bir is-mi-la(qil g'ay-a-do

Sen-gu-mon(qil g'an-di-ko'z-ga: jo-mu-may-mav ju: -de-rur
Bil-ma-yin-naf yet-ma-bu: -may xo-na-ah-lin xo-hi-do

Tash-na-lab-o'l ma: -Na-vo-yiy chun-a-zal-so qiy-si-din
In-ra-bu: -yo ay-yu-hal-at shon-ke-lur-har dam-ni-do

Eslatma: 1. Ostin-ustin ikki nuqta unlining cho'ziqligini bildiradi; 2. Cho'ziq unlidan keyin kelgan «n» dan boshqa undoshlar misra o'rtasida bir qisqa hijo hosil qiladi, Masalan, g'azaldagi «jom» so'zining «jo» qismi bir cho'ziq hijoni «m» si esa bir qisqa hijoni hosil qiladi. Agar «jon» so'zini olsak, bu so'z butunligicha bu cho'ziq hijodan iboratdir. Chunki «n» bunday hollarda alohida hijo hosil qilmaydi. Ammo undoshdan so'ng «n» masalan «ayn» deganda qisqa hijoga o'tadi; 3. So'z oxiridagi undoshlar, undan keyingi so'z unli bilan boshlangan bo'lsa, shu so'z boshiga ko'chishi mumkin; 4. Rukn chegarasi so'z oxirigagina emas, so'z o'rtasiga ham to'g'ri kelishi mumkin.

HAMD SARLAVHASI

Islom olamidagi har bir asar basmala bilan, ya'ni «bi-smi-llohi-r-rahmoni-r-rahiym» deb boshlanadi. Undan keyin Haq taoloning olqishi keladi. Bu olqish «Hamd» deb ataladi, uni bayon qilish «Hamdala» deyiladi.

Navoiyning «Xamsa»sida har bobga qo'yilgan sarlavha shu bob mundarijasini tashkil qiladi. Har bir sarlavha teran ma'noga va go'zal suvratga ega bo'lib, yuksak mahorat bilan ado etilgan. Risolaning ushbu faslida Navoiyning «Xamsa»sidagi birinchi hamdning sarlavhasini sharhlaymiz.

Mazkur sarlavha shunday:

«Ul xoliq hamdikim, mahluqot tasviriga aning qalam-i sun'i chehragushodururu masiu'ot tahririg'a aning xoma-yi hikmati jamolafzo va har ko'ngul g'unchasig'a bir husn guli sari aning silsila-yi shavqidin vobastaliqu har ko'z axtarig'a bir qosh hiloli sari aning rishta-yi mahabbatidin payvastaliq».

Bu sarlavhadagi «*xoliq*» so'zining lug'aviy ma'nosi yaratuvchi bo'lib, bu Haq taoloning yaratuvchilik sifatini bildiruvchi otdir. Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, «*haq*» va «*holiq*» so'zlarini xurofotga asoslangan e'tiqodlar cheklagan mazmunda tushunish to'g'ri emas. Navoiyning tafakkuri sog'lam e'tiqodga asoslangan bo'lib, ilmiy falsafaga zid emas. Navoiy va uning hamfikrlarining mafkurasiga ko'ra «*holiq*», ya'ni yaratuvchi yoki «*soni*'», ya'ni yasovchi deganda **Haq- taoloning** koinotning yaralishiga va mavjudotning mohirona yasalishiga sabab bo'lgan mutlaq jihati anglashiladi.

«**Maxluqot**» «**maxluq**» so'zining ko'pligi bo'lib, buning lug'aviy ma'nosi yaralgan yoki yaratilgan va yaraluvchi yoki yaratiluvchidir. «**Maxluq**» deganda avval bor bo'lmay, ma'lum bir vaqtda bor bo'lgan mavjud tushuniladi. Shunga binoan maxluqot azaliy bo'lmagan va bor bo'lishiga xoliq sabab bo'lgan mavjudotdir. Inson ham maxluq, ammo u maxluqotning eng sharaflisidir. Shu ma'nodagi lafzan turlicha qilib aytilgan iboralar jahon adabiyotida, jumladan Sharqning oliysha'n mutafakkir va shoirlarining asarlarida ko'p uchraydi.

Har bir narsaning boshi uning yaratilishidan boshlanadi. Shuning uchun Navoiy o'z «Xamsa»sining hamddan iborat birinchi bobini borliqning xoliqlik va maxluqlik jihatlarini tavsif etishga bag'ishlagan.

Mazkur sarlavha bilan boshlangan bobning hamd ekanligini «*Ul xoliq hamdi*» degandan bilamiz. Hamd asar muqaddimasidagi Haq taoloning kamolini olqishlashga bag'ishlangan qismidir. Hamddan iborat maxsus qasida, g'azal va boshqa turdagi nazmiy yoki nasriy asarlar ham bo'ladi. Bularni ham «xamd» yoki «hamdiya» deb ataydilar. Shu o'rinda hamdning muhim bir jihatiga o'quvchilarimizning e'tiborini jalb qilishga to'g'ri keladi. Gap shundaki, Sovet davrida hamd xurofiy ma'nodagi xudolarga bag'ishlangan asar yoki asar muqaddimasi degan fikr keng tarqalgan va ba'zi olimlarimiz ham bunga ishonganday bo'lishga majbur edilar. Navoiy va boshqa mumtoz shoirlarimizning asarlarini nashr etishda ularning hamd qismini tushurib qoldirilishining asosiy sababi ham shunda. Holbuki Navoiy va uning ustozu shogirdlaridagi, salafu payravlaridagi hamd ilmiy ma'nodagi Haq, ya'ni Haq taoloning kamolining-jamolu jalolining vasfiga bag'ishlangan. Bu da'voga yetarlikdan ortiqroq hujjatu dalillar bor. Ammo mavzudan chetga chiqmaslik va bu masalaning alohida bir maqolada bayon qilish ma'qul ko'rilgani uchun mazkur qayd bilan kifoyalanib, hamdning biz uchun o'ta muhim bo'lgan bir jihatini tilga olaylik.

Badiiy asarda uning badiiy ahamiyati bo'lishi o'z-o'zidan ma'lum. Ammo hamdning ma'rifiy va tarbiyaviy ahamiyati ham juda ulug'dir. Mavjudot, jumladan inson bir-biriga nisbatan yuzaki qaraganda teng emas. Mana shu narsa ba'zi kishilarning o'zini o'zgalarga nisbatan afzal deb bilishga sabab bo'ladi va bunday noto'g'ri tasavvurga ega bo'lgan kishi umr oqibati nuqta-yi nazaridan halokatli amallarga qo'l uradi. Holbuki Haq taolo qoshida hamma mavjudot, jumladan bashar ahli yaratilishda teng bo'lib, har kimning amali odilona aksu-l-amalga sabab bo'ladi. Bir fazilatga ega bo'lgan shaxsning shu fazilatga ega bo'lmagan ikkinchi shaxsni kamsitishga haqqi yo'q. Borliqning odillik sifati bu ish yuz berganda uni javobsiz qoldirmaydi. Hamdning tarbiyaviy ahamiyati o'quvchiga mana shu haqiqatni eslatishdan iborat.

Sarlavhadagi «*Hamdikim*» degandagi «-kim» bog'lovchi bo'lib, undan keyin kelgan so'zlar aniqlovchi bo'lakdan iborat va bu aniqlovchi bo'lak ikki qismdan iborat. Birinchi qism «*maxluqot tasvirig'a aning*» («ya'ni xoliqning) *qalam-i sun'i chehragushodururu masnu'ot tahririg'a aning xoma-yi hikmati jamolafzo*». Ikkinchisi «*har ko'ngul g'unchasig'a bir husn guli sari aning silsilay-i shavqidin vobastoliku har ko'z axtarig'a bir qosh hiloli sari aning rishta-yi mahabbatidin payvastaliq*».

Har qism bir-biridan «va» bilan ajratilgan va bulardagi «aning» «holiq»qa tegishli bo'lgani uchun ularning har ikkisi «Xoliq»qa mansubdir. Har bir qism yana o'z navbatida ikkiga bo'lingan bo'lib, ularning orasiga «u» bog'lovchisi qo'yilgan.

Defis bilan ajratilgan va urg'usiz talaffuz qilinadigan «i»lar izofa belgisi bo'lib, «qalam-i sun'» sun' qalami, «*xoma-yi hikmat*» hikmat qalami va «*o'rishta-yi mahabbat*» muhabbat rishtasi degani. Bu izofalar, «**izofa-yi tashbihii**» deb ataladi va «sun'»ning «qalam»ga, «*hikmat*»ning «*xoma*»ga va «*mahabbat*»ning «*rishta*»ga o'xshatilganligini anglatadi.

Sarlavhadagi «*tasvir*»dan murod suvrat, ya'ni shakl berish, shakillantirishdir. Maxluqotning javhari bir, suvrati turlichadir. Yaratish javhariga turli suvrat, ya'ni shakl, hajm, rang va tarkib berishdan, yoki bir ma'noni lafzan turli suvratda, ya'ni til, so'z ibora va tarkib bilan ifodalashdan iborat.

Binobarin «*xoliqning sun'i*» yasash, ya'ni yaratish, ijod qilish san'ati musavvir, rassom va ilmu adab ahlining qalamiga o'xshatilgan. Uning mavjudotni yaratish jarayoniga nisbatan esa musavvirlikka oid «*tasvir*» so'zi va ham suvratkashlik ham rasmkashlik, ham kitobatga oid «*tahrir*» so'zi qo'llangan. Bu bir emas, ikki jihatdan ahamiyatlidir. Birinchidan shoir Haq taoloning yaratish jarayonlarini inson o'z ijodida ishlatadigan qurol va amalga o'xshatib, uni kishi aqliga sig'adigan darajaga keltirib, anglatishni osonlashtirgan. Ikkinchidan insondagi yaratish qobiliyati ham mutlaq borliqdagi yaratishning cheklangan bir ko'rinishi ekanligini ta'kidlagan. Mutlaq borliqqa xos sifatlar insonda ham bor, lekin unda uning o'z zotiga xos mutlaq holda, bunda esa o'z imkoniyati doirasida mahdud shaklda.

«*Chehragusho*»ning lug'aviy ma'nosi yuzochar, chehralarni ochuvchidir. Ammo bu so'z tarkibidagi «*chehra*» «*vajh*» istilohining shoirana ma'nodoshi bo'lib, bunda go'zallikni ta'kidlovchi qo'shimcha ma'no ham bor. «*Vajh*»ning lug'aviy ma'nosi «yuz» bo'lib, uning

tasavvufdagi mazmuni yagona borliqning har bir mavjudotdan boshqa mavjudotdan ajratib turadigan o'zigagina xos ko'rinishdir. Har bir mahluq borliqning bir vajhi sifatida bor bo'ladi. Borliq vajhining yashirganda u shu mahluq sifatida yo'q bo'ladi. Masalan, zoti suvdan iborat jismlardan bug', bulut, yomg'ir, qor do'l, shudring va muzni oladigan bo'lsak, bular hammasi bir biridan ko'rinishda farq qiladi. Bularning har qaysisining o'z ko'rinishi suvning bir vajhidir. Mazkur jismlarning zoti bir, ya'ni suv bo'lib, ularning turli narsa bo'lib ko'rinishi suvning o'z vajhini o'zgartirishga bog'liq bo'lganidek, olamdagi mavjudot yaratilishi yagona bir borliqning turli vajhlarda zuhur etishidan iborat. Mana shuning uchun shoir bu yerda «*chehragusho*» so'zidan juda o'rinni foydalangan.

«*Masnu'ot*»dan murod go'zal qilib yaratilgan narsalardir, «*masnu'*» yasalgan, san'atli, hunar natijasida vujudga kelgan degani. «*-ot*» qo'shimchasi «*mahluqot*»dagi singari ko'plik bildiradi va o'zi qo'shilgan so'zni to'liq otlashtiradi. «*Mahluq*» va «*masnu'*» so'zlarida ham sifatlik, ham otlik bor. Ammo ko'plik qo'shimchasi qo'shilganda bular sifatlik ma'nosini yo'qotadi.

«*Tahrir*» so'zining yozish, qog'ozga tushurish va ochiq qilib so'zlash ma'nolari mashhur. Ammo bu so'zning yana musavvirlik va naqqoshlikka oid ma'nosi ham bor bo'lib, naqsh va rasmlarga mo'yqalam bilan tortiladigan nozik chiziqlarni bildiradi. Bu yerdagi «*tahrir*» mana shu ma'nodadir, ammo uning yozish ma'nosi ham nazarda tutilgan.

«*Xoma*» qalam degani. «*Hikmat*» borliqning umumiy qonunlarini bilish darajasidagi bilimdonlik va shu bilimdonlikka yarasha to'g'ri amal qilishdir. Bu so'z mazkur ma'noning nazariy jihati bilan «*falsafa*» so'zining ma'nodoshi sifatida ham ishlatiladi.

«*Jamolafzo*» jamolni orttiruvchi, ya'ni go'zallashtiruvchi degan ma'noda. «*Silsila*» zanjir, «*shavq*» ko'ngil intilishi, «*vobastaliq*» bog'liqlik, «*payvastaliq*» ulanganlik, «*axtar*» yulduz, «*hilol*» yangi oy, «*rishta*» ip degani.

Hozirgi «*muhabbat*» so'zi Navoiyning tilida o'zining asliy shaklida «*mahabbat*» deb talaffuz qilingan. Bu so'zdagi keyingi «*a*» hozirgi o'zbek tilida «*u*»ga aylanib, mazkur so'z «*muhabbat*» shaklini olgan.

Mahabbat nima va nima uchun Navoiy borliqning yaratish va yaralish jihatlari haqida so'zlayotganda mahabbatni ham tilga olgan?

Shoir davrida mahabbat yoki ishqqa tabiiy va falsafiy jihatlardan berilgan ta'riflar mavjud edi. «*Ishq*» va «*mahabbat*» so'zlari mutlaq ma'noda qo'llanganda bir-biriga to'liq ma'nodoshdir. Lekin bularning ma'nosida maxsus jihatlari ham bor. «*Ishq*» so'ziga xos ma'no maxsusligi shundan iboratki, u birinchidan, barcha mavjudotga nisbatan qo'llanadi, ikkinchidan mahabbatga nisbatan kuchliroq bo'ladi. «*Mahabbat*» so'zi esa asosan ongli mavjudotga nisbatan ishlatiladi va uning kuchi e'tiborga olinmaydi. «*Hayratu-l-abror*» badiiy asar bo'lgani uchun unda vasf etilgan mahabbat badiiy mazmunga ega bo'lib, uning husn jihati nazarda tutiladi. Bu jihatdan berilgan ta'rifga ko'ra mahabbat haqiqiy jami, ya'ni go'zalning o'z kamoliga mayli, ya'ni intilishidir. «*Haqiqiy jami*»dan murod mutlaq borliqning go'zallik sifati bo'lib, u mavjudotga turli ko'rinishlarda zuhur etadi.

Haqiqiy jami, ya'ni kamoliga bo'lgan intilishidan hosil bo'lgan harakat butun borliqni o'z ichiga olgan doiradan iborat bo'ladi. Mazkur sarlavhadagi «*silsila-yi shavq*»dan bu ulug' intilish doirasi kichik shavq doirachalaridan iborat bir zanjirsimon munosabatni tashkil etganligini bilamiz. Buni qanday tushunish kerak?

Mavjudot orasidagi, masalan, gul bilan bulbul, sham' bilan parvona, quyosh bilan sayyora, kishi bilan kishi orasidagi ishq mahabbatlar o'sha zanjirning halqalaridir. Mana shu muqayyad, ya'ni cheklangan, nisbiy ishq mahabbatlar bilan mutlaq mahabbat orasidagi munosabat katta doirani vujudga keltiradi.

Olamning yaratilishi va mavjudotning baqosiga, ya'ni saqlanishiga ishq sababchi deyiladi va bu quyidagicha tushuntiriladi:

Go'zal olam azalda bugungi ko'rinishga ega bo'lmasdan urug' hukmidagi bir javhardan iborat edi. Bu javharda uning o'ziga xos va undan vujudga kelishi mumkin bo'lgan barcha kamolu jamol yashirin holda mavjud edi, masalan, gulning hamma qismlari va butun go'zalligi uning urug'ida ko'rinmagan holda bor bo'lganidek. Undagi ana shu yetuklik va go'zallikni o'z ijodi orqali ko'rish va ko'rsatish ihtiyoji ishq tarzida olamning bugungi shaklini olishiga sabab bo'ldi va endilikda shu ishq mavjudotning saqlanishi va rivojiga asosdir. Chunki har bir narsa o'zini saqlash va yetilishi

uchun zarur bo'lgan narsaga intilib, zararisidan tortinmasa, yo'qlikka yuz tutadi. Ammo bu ishq har mavjudda uning o'ziga yarasha ko'rinishda zuhur qiladi.

Muhabbatning insondagi zuhuri o'ziga xos va murakkab bo'lib, uning insonning o'zi va borliq uchun alohida ahamiyati bor.

Borliq go'zal va yetuk bo'lib, go'zallik va yetuklik mahabbati uning zotiy sifati bo'lgani uchun insonning tabiatida ham aslan husnu jamolga va fazlu kamolga intilish bor. U shu iste'dodga molik qilib yaratilgan.

Insoniy mahabbatning turi ko'p. Ammo kishilar orasidagi mahabbat turlarini umumlashtirib, sodda qilib tasnif qilganda ikki turga bo'lish mumkin. Bularning biri nafsoniy ishq yoki mahabbat, ikkinchisi ma'naviy bo'lib, «pok ishq» yoki «pok mahabbat» deb ataladi va bunday ishq mahabbat egasini, buni ta'kidlash kerak bo'lganda, «pokboz» deydlar. Navoiy pokboz bo'lgan va shahvoniy mayllardan arig' bo'lgan pok ishqni targ'ib qilgan. Bundan uning maqsadi inson avlodining nafsoniy talablarni ma'naviy kamolotga bo'ysundirib, bir-biri bilan o'ta do'stona munosabatda bo'lishga o'rgatish va shu yo'l bilan ularning asliy iste'dodini xarakatga keltirib, oliy insoniy maqomlarga erishtirish bo'lgan.

Ishq haqida Navoiy o'zining «Mahbubu-l-qulub»ida shunday deydi:

«Ishq axtaredur, daraxshanda, bashariyyat ko'zi nuri safosi andin va gavharedur raxshanda, insoniyat tojining zebu bahosi andin. Mehredur toli', maxzun hotirlar xoristoni andin gulshan va badredur lomi', tiyra ko'ngullar shabistoni andin ravshan. Bahredur vasi', har igrimi yuz aqlu xush kemasin cho'murg'an va tog'edur rafi' har tiyg'i ming zuhdu taqvo boshini uchurg'an. Shu'layedur so'zanda, xoshoki ko'p jonu ko'ngul bo'lg'an va barqedur furuzanda, ko'p jonu ko'ngul asha'sida qul bo'lg'an. Ajdahoyedur xunxor, olamni dami bila tortmoq anga kom: podshohedur qahhor, komi har dam olam axlig'a qatl-i om. Har necha zulm qilg'an soyi anga o'sanmoq yo'q va har necha qon qilg'an soyi anga qonmoq yo'q. Sayiqayedur, aqlu din xirmanin kuydurguchi va sarsaredur alarning kulin ko'kki sovurg'uchi.

Inodi olinda teng ham podshoh, ham gado, bedodi qoshinda bir ham fosiq, ham porso. Oshiq ko'ngliga ma'shuq havosin solg'uchi ham ul va bir jilvasi bila naqd-i hayotin olg'uchi ham ul va oshiq mundoq baloning giriftoriyu mundoq ofatning beixtiyori, mundoq to'fonning g'ariqiyu bu nav' soiqaning hariqi, mundoq g'addorning zabuniyu devkirdorning majnuni. Va munungdek oshubning sheftasiyu bu yanglig' qotilning fireftasi, bu tavr hunrezning halokiyu bu yanglig' qotilning fireftasi, turlug baloangezning dardioki.

Ishq ko'hisoni bedodinng noshodlaridin biri Farhoddur va sahro-yi junun zabunlaridin biri Majnundur. Va shabiston savdosi devonalaridin biri parvonavu guliston havosi noshikeblaridin biri andalib-i devona. Va otashgoh harorati garmsarlaridin biri Xusrav-i nomiyy maykada dardmanlig'i nomiylaridin biri Jomiy...

Bayt:

*Ki to bo'lg'ay bular bir-birlari birla qarin bo'lsun,
Samandarlar kibi ishq o'ti ichra hamnishin bo'lsun...*

Ishqqa marotibdur va ul uch qism bila munqasim bo'lur. Avvalg'i qism avom ishqidurkim, avomi-n-nos orasida bu mashhuru shoyi'durkim, derlar: «Falon falong'a oshiq bo'lubtur» va bu nav' kishi har nav' kishiga bo'lsa bo'lur, shag'abu iztiroblaricha lazzat-i jismoniy-u shahvt-i nafsoniy emish va bu qismning biyikrak martabasi shar'iy nikohdurkim, bari xaloyiqqa sunnatduru muboh. Va pastroq martabasida parishonlig'u mushavvashliqlar va besomonlig'u nohushliklareki zikri tark-i adabduru bayoni behijobliqqa sabab.

Ikkinchi qism havos ishqidurkim, xavos ul ishqqa mansubdurlar. Ul pok ko'zni pok nazar bila pok yuzga solmoqduru pok ko'ngul ul pok yuz oshubidin qo'zg'almoq va bu pok mazhar vositasi bilan oshiq(i pokboz maxbub-i haqiqiy jamolidin bahra olmoq ishq ahlining pokbozlari va ishq niyoz ahlining nazmtirozu afsonapardozlari mutaqaddimindin andoqkim, nazm beshasining g'azanfari va dardu ishq otashkadasining samandari va zavqu hol vodiysining pokravi Amir Xusrav Dehlaviydurkim, pok nasafu guftori, pok alfozu maoniyliq ash'ori ishq ahli orasida g'avg'o va vajdu hol anjumani fazosida alolo solibdur.

Yana so'zi poku ko'zi pok ishq ahlida mujarradu munfaridu bebok bu toifaning benaziru adilu toqi fahru-l-millati vaddin Shayx Iroqiydurkim, ishq sifotig'a muttasifdur va «lamaot»i pok maoniyu tarokibg'a musannifdur.

Va mutaaxxirindin ikki olamni bir dov bila o'ynag'an mukammir shevalari pokbozi va ishq dayri fanosida haqiqat bodasidin mast rindlar hamrozi shamsul-millati va-d-din Xoja Xofiz Sheroziydur.

Dunyo va oxiratni bir oh ila o'rtaqan pok oshiqdar imomi va mulku malakutda soyirlar shayhu-l- islomi hazrat-i murshidiy va mahdumi nurul-millati vad-din Abdurahmon Jomiy, navvara-l-lohu marqadahdurkim , agarchi alar vasfi nazmg'a nisbat berurdin yuqoriroqdur, ammo har sinf nazmda benazir erdilar va nechaki ta'riflari she'rda mahoratdin tashqaridur va lekin har uslub she'rda jahongir erdilar. Va nazmlarida har she'r bila ishq o'tin olamg'a urubturlar, she'rlarida har bayt bila dard ahli jonu ko'ngul olamin kuydurubdurlar».

Mana shu uch tur ishqning Navoiyga xosi xislar ishq bo'lib, bu oqko'ngillar va pokbozlar mahabbati haroratining taraqqiysidan hosil bo'lgan o'tdir.

Shunday qilib, Navoiyning mazkur sarlavhasidan bobning mundariyasi quyidagichaligi ayon bo'ladi:

Bob Haq taolo olqishidan iborat va olqishga uning yaratuvchilik sifati olingan. Bu sifatning kamol-i olqishga sazovor muhim jihatlaridan biri uning maxluqotni o'z san'atu hikmati bilan juda go'zal qilib yaratganligi bo'lsa, ikkinchisi ularni, xususan insonni ishqiy munosabat bilan bir-biriga bog'liq qilib qo'yganligidir. Bu munosabatning asosi husn, ya'ni go'zallik va ezgulikdir. Buni anglagan va shunga yarasha amal qilgan kishi yetuk inson va saodatmanddir.

Uning ijodi natija e'tibori bilan musavvir ijodiga o'xshaydi. Ammo uning hunarining o'zi ham qurol, ham ish, boshqacha qilib aytganda u qurolsiz ijod qiladi. Tasvirda uning san'atu hikmatining o'zi qalam.

Insonda bor sifatlar boshqa mavjudotda ham bor; g'uncha o'z husni komoliga intilib, ochilib gul bo'ladi. Inson ko'ngli ham husnni idrok etsa, ochilib kamol topadi. Buni idrok etolmagan ko'ngul ochilmagan g'unchadek qon bo'ladi. Yulduzning hilolga yaqinligi bor, xuddi shuningdek inson ko'zining ham qoshga yaqinligi va uning husnini tamosha qilishga moyilligi bor.

Ana shu fikrlarni shoir turli badiiy vositalardan foydalanib saj'li nasrda shoirona ifodalagan.

Bu sarlavha ikki musajja' bo'lakdan iborat.

Birinchisi «va»gacha bo'lgan bo'lak, ikkinchisi undan keyingi bo'lak. Har bir bo'lak ikki qarinadan iborat bo'lib, ularning orasida «u» bog'lovchisi bor. Mazkur sarlavhaning birinchi saj'idagi fosilalar «chehragusho» va «jamolafzo» so'zlaridan, ikkinchi saj'dagilari «vobastaliq» va «payvastaliq» so'zlaridan iborat. Ammo bu sarlavhada qarina ichidagi so'zlar ham sajalangan: mahluqot-masnu'ot, tasvirig'a- tahririg'a: guli sari-hiloli sari.

«Xoliq» bilan «mahluqot» va «sun'» bilan «masnu'ot» so'zlari o'zakdoshdir. O'zakdosh so'zlarni bir gap yoki baytda keltirish ham san'at bo'lib, buni «**ishtiqoq**» deb ataydilar.

Ma'nodosh so'zlardan sarlavhada, birinchidan, mazmunnin nozik jihatlarini ifodalash va ikkinchidan, qaytariqqa yo'l qo'ymaslik uchun mohirona foydalanilgan. «Masnu'ot» «mahluqot»ning ma'nodoshi sifatida ishlatilgan va shu bilan birga «masnu'ot»ning san'at natijasida vujudga kelgan go'zal mahluqotni bildirishi e'tiborga olingan. «Tahrir» «tasvir»ning ma'nodoshi qilib olingan va shu bilan birga uning «tasvir»ga nisbatan shakldan ko'ra mazmunga yaqinligi nazarga olingan va «hikmat qalami»ga nisbat berilgan. Zanjir ma'nosidagi «silsila» bilan ip ma'nosidagi «rishta» va «shavq» bilan «mahabbat» so'zlari ham bu sarlavhada ma'nodoshdir, ammo bularning orasidagi lug'aviy farq hisobga olingan va «silsila» shavqqa nisbatan, «rishta» mahabbatga nisbatan iste'mol qilingan. Gap shundaki, mutlaq mahabbat zotan bir bo'lib, turlicha emas. Ammo kishilarning ko'nglidagi mahabbat shavqi ko'p va turlichadir. Har ko'nguldagi o'ziga xos bir shavqni, mahabbatning muayyan kishidagi zuhurini zanjirning bir xalqasi deb tasavvur etish mumkin. Ammo ko'zga husnni tushurib ular orasida bog'liqlik vujudga keltiradigan hodisa bo'lmish mahabbatni esa zanjir emas, ip deb tasavvur qilish ma'qulroqdir.

Sarlavhada yana ma'nodosh so'zlardan «qalam» bilan «xoma», «jamol» bilan «husn», «vobastaliq» bilan «payvastaliq» bor. Jamol go'zallik, husn esa ham go'zallikni, ham ezgulikni bildiradi. Jamol mutlaq borliqqa, husn insonga nisbatan ishlatilgan. Aksincha bo'lganda bu so'zlar o'z o'rniga tushmagan bo'lar edi. Chunki inson faqat go'zallikka emas borliqning turli in'omu

ehsonlariga ham intildi. Bular esa ezgulikka kiradi. Mutlaq borliqning harakati ko'rish va ko'rinishdan iborat, buning manzuri jamoldir. Masalan, yeb-ichiladigan narsalar jamol sifatida ko'rish manzuri bo'lolmaydi.

«*Vobastaliq*» bilan «*payvastaliq*» so'zlari ham o'z o'rnida. Birinchisi zanjirga, ikkinchisi ipga nisbatan qo'llangan.

Sarlavhada badiiylik uchun juda zarur bo'lgan **muroatu-n-nazir** yoki **tanosub** san'ati ham bor bo'lib, bu firkni bir-biriga munosabati bor narsalar bilan ifodalab, bir-biriga nisbati bor so'zlarni ishlatishdir. Qalam bilan tasviru tahrir, ko'ngul bilan husnu jamol va shavqu muhabbat, g'uncha bilan gul, axtar bilan hilol, ko'z bilan qosh kabilar tanosub hosil qilgan. Sarlavhada aytilmagan va aytoilmagan boshqa fazilatlar ham bor.

MA'NAVIYYOT

Qadrli o'quvchilar, Navoiy yoshiligida ko'p qiyinchiliklarga duch kelgan. Lekin u o'qish va hunar o'rganishni og'ir paytlarda ham, o'yin kulgi bilan band bo'lishga imkoniyat bor vaqtlarda ham tirishqoqlik bilan davom ettirgan. Natijada ulug' davlat arbobi, buyuk olim va tengi yo'q shoir bo'lib yetishgan va eng muhimi u yetuk inson bo'lgan. Navoiy molu jonini, ya'ni mansabini, ilmu hunarini va shoirlik san'atini mamlakatni obod qilib, xalq turmushini yaxshilashga qaratgan. U ko'plab iqtisodiy. Madaniy va ilmiy inshoot va muassasalarni bunyod qilgan. Har yili minglab muhojirlarning hojatini chiqarib, g'aribu miskinlarga oziq-ovqat va kiyim-kechak ulashgan. Ammo Navoiy o'z eliga moddiy manfaat yetkazish bilan cheklanmadi. U avlodi mangu foydalansin deb, ko'plab ilmiy va adabiy asarlar yaratdi. «Mahbubu-l-qulub», «Xazoyinu-l-maoniy», ya'ni ma'nolar xazinalari deb atalgan to'rtta devon va «Hayratu-l-abror», «Farhodu Shirin», «Laylovu Majnun», «Sab'a-yi sayyor» va «Sadd-i Iskandariy» deb atalgan beshta dostonidan iborat Xamsa shular jumlasidandir. Bularning har biri tugamas ma'naviy xazinadir. Kishining aqlini to'ltirib, uning bilimu hunarini oshiradigan, xulqu atvorini yaxshilab yetuk insonga aylantiradigan narsalar «ma'naviyyot» deb ataladi. Ma'naviyyotdan iborat kitoblar «ma'naviy» xazinadir. Kishining jismoniy jihati uchun zarur bo'lgan moddiyot uning tarikligi, yashashi uchun kerak, ma'naviyyot esa yashashni hayvoniy darajadan insoniy darajaga ko'tarish uchun zarur. Ma'naviyyotning ajib fazilatlaridan biri shuki, undan yer yuzidagi inson mangu foydalanishi mumkin. Bu bilan u kamaymaydi. Kimki ma'naviyyotdan iborat asar qoldirsa, u jisman o'lgandan keyin ham, ma'nan o'zi yaratgan ma'naviyyotda abadiy yashaydi. Buni olimlarimiz «ikkinchi umr» deb ataydilar.

Bundan besh asr burun jisman yo'q bo'lgan bobomiz Navoiy o'zining yozib qoldirgan asarlari tufayli hozir ikkinchi umrini yashamoqda va bu umr abadiy davom etadi. U hozir ham tirik vaqtidagidek bizga o'zining yuksak san'ati bilan lazzat bag'ishlamoqda, o'zining oliy ma'rifati bilan bizga haqiqiy insonga xos oliy martabaga ko'tarilishimizga yordam qo'lini cho'zmoqda. Aziz shoirimizning karomati shundaki, u o'zining butun hayotini bag'ishlab ijod qilgan ma'naviy xazinalari uchun bizdan hech narsa talab qilmaydi. Ammo bu ulug' ne'matning qadrini hamma ham anglab yetmaydi, natijada undan bahra ololmaydi. Bu tugamas va pokiza boylikdan foydalanishni istagan o'quvchi uni sinchiklab o'rganib undagi ma'rifatni o'zlashtirishi va unga amal qilishi kerak. Ammo mazkur xazina tilismdan iborat. Ammo bu tilism ertaklardagidek mavhum emas. Bu tilismni ochib undagi xazinadan foydalana olish qobiliyati hamma bolalarda bor bo'lib, unga erishish ularning o'ziga bog'liq. Bu tilismni ochish uchun afsonalardagidek ajdaholarni o'ldirib, devlarni yengish kerak emas, balki kishi o'zining tabiatidagi yomon xislatlarni yo'qotib, ularni yaxshisi bilan almashtirsa bas. Shunda kishida inson va tabiatga muhabbat paydo bo'ladi. Shu darajaga yetganda Navoiy xazinalaridagi tilismning bir jihati ochilib, o'quvchida uning o'ziga va uning asarlariga ishq paydo bo'ladi va ularni o'qigan sari ko'proq lazzat ola boshlaydi. Shundan keyin o'quvchida borliqqa, xususan insonga bo'lgan ishq kuchayib, tilism to'liq ochiladi va o'quvchi ma'naviy kamol kasb qilib, yetuk shaxsga aylanadi. Yetuk kishi esa haqiqiy inson maqomiga erishib, abadiy saodat egasi bo'ladi. Bu darajaga yetish uchun Navoiyning «Mahbubu-l-qulub»ini yaxshilab mutolaa qilib, unga amal qilish kerak. Bu ma'naviy xazinaning eshigini ochaylik:

MATN

Bi-smi-l-lohi-r-rahmoni-r-rahiym

Hamd angakim, zotig'a hamd, onchakim, sazovordur, aytsa bo'lmas va sano angakim, sifotig'a sano, onchakim, yeri bordur, bitsa bo'lmas. Zoti jami'-i kamolot sifoti bila mansuf, sifotidin majmu'-i kamolot kashf ahlig'a makshuf.

SHARH

Navoiy - Nizomiddin Alisher G'iyosiddin Bahodur o'g'lining taxallusi. Bunda «navo» so'ziga nisbat qo'shimchasi «-iy» qo'shib yasalgan. Mazkur qo'shimcha unli bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda o'rtada «v» yoki «y» tovushi paydo bo'ladi. Masalan, dunyo-dunyoviy; riyo-riyoviy. Mazkur taxallusda ham «y» orttiriladi. Shuning uchun uni «Navoiy» deb talaffuz qilish kerak.

«Navo» so'zining ma'nosi ko'p. Asosiylaridan biri un, ovoz, kuy. Musiqiy maqomlaridan biriga «Navo» degan nom mazkur ma'noga asoslanib qo'yilgan bo'lishi kerak. «Navo»ning yana bir ma'nosi madaniy maishat uchun zarur narsalardir. Bundan qashshoq ma'nosidagi «benavo» so'zi yasalgan. Tag'in bir ma'nosi yaroqlilik, yana biri tutqunlikdir. Alisher o'z taxallusida «Navo»ning birinchi ma'nosini asos qilib olgan degan fikr mashhur.

Mahbubu-l-qulub - bu arabcha birikma bo'lib, birikmani o'zbekcha qilsak, «qulub mahbubi» bo'ladi. Mazkur birikma «**izofa**» deb ataladi. Arabcha izofada so'z tartibi o'zbekchadagi tartibning aksi bo'ladi, aniqlanmish aniqlovchidan oldin keladi. Oradagi «l» tovushi «s», «z», «t», «d», «r», «sh», «n» tovushlaridan biri bilan boshlangan so'z oldida shu tovush shaklindi oladi, «G'aroyib-u-sig'ir», «Navodiru-sh-shabob» kabi. «Mahbub» sevgili, sevimli degani, «qulub», «qalb»ning ko'pligi. «Qalb» so'zining birinchi ma'nosi yurak bo'lib, ko'ngil ma'nosida ham qo'llanadi. «Qalb»ning «qulub» tarzida ko'plikda berilishidan ma'lumki, shoir oddiy yurakni nazarda tutmagan. «Ko'ngullarning sevgilisi»dan murod kitobning oq ko'ngilli, sofdil kishilarning orziqib kutib, sevib o'qiydigan asari bo'lganligi va unda kishini haqiqiy mahbub yo'lga yo'llovchi yo'riqlarning ko'rsatib berilganidir.

Navoiy va undan oldingi davrlarda kitob nomining arabcha ta'bir etilishi uning mazmunining milliy jihatdan cheklanmaganini va xalqaro ahamiyatiga ega ekanligini bildiradi.

Bi-smi-l-lohi-r-rahmon-r-rahiym - «Mehribon va yorlaqag'uchi Allohning oti bilan» degan ma'nodagi bu ibora va uni aytish «**bismala**» deb ataladi. Hamma, jumladan Navoiy asarlarining qulyozma nusxalari basmala bilan boshlanadi. Asarning nomi esa muqaddama yoki xotimada beriladi. Bu ta'lifning oti muqaddamada berilgan. «Olloh» so'zining «xudo», «yazdon», «izid», «tengri», «bayot» kabi ma'nodoshlari badiiy asarlarda ba'zan faqat suvrat (shakl) va ba'zan ham suvratu ham ma'no (mazmun) talabi bilan qo'llansa ham, ilmiy asarlarda qo'llanmaydi. Chunki a'lo (eng oliy) vujud yoki oliy vujudlarni turli din va turli falsafiy yo'nalishlarda turlicha tushuniladi. «Alloh» islom doirasidagi tushuncha bo'lgani uchun g'arb, jumladan rus tilidagi ilmiy asarlarda uni tarjima qilmasdan o'zicha beriladi.

Hamd - Ijod sunnatiga binoan basmaladan so'ng hamd aytiladi. «*Sunnat*» so'zining lug'aviy ma'nosi «*tradisiya*» so'zining ko'pchilikka ma'lum bo'lgan ma'nosining aynan o'zidir. Diniy mavzudagi bayonda payg'ambarimiz salla-l-lohu 'alayhidan rasm bo'lib qolgan maxsus amallarga nisbatan ham «*sunnat*» deyiladi. Uning bu istilohiy ma'nosida qo'llashga monelik qilmaydi. Hozirgi tilimizda mazkur ma'nodagi «*sunnat*» so'zi o'rnida «*an'ana*» so'zini qo'llash ommaviy tus olgan. Ammo «*an'ana*» so'zi «*sunnat*» so'zining o'rnini bosolmaydi. Chunki «*an'ana*» xurofiy yoki mazmunsiz rasmni bildiradi. Masalan, marosimlarimizdagi ba'zi odatlar, shaxsparastlikdan rasm bo'lib, hozir mustaqillik sharofati bilan yo'qolayotgan «davomli gulduros qarsaklar» kolxozchilarni uyiga yubormasdan dalada tunatishishlar, paxtakor bo'lmagan aholini paxta terimiga haydab chiqishlar an'anadir. Ammo alloma va yetuk san'atkorlarning ijodidagi sunnatni «*a'nana*» deb atash mazkur sabablarga ko'ra ma'qul emas.

«Mahbubu-l-qulub»ning hamd qismi ham «Hamd angakim» deb boshlangan. «Hamd» so'zining lug'aviy ma'nosi zikr etilganidek olqish bo'lib, «anga» «ul» so'zining jo'nalish siyqasi, ya'ni «unga»ning mumtoz adabiyotdagi shaklidir. Til nuqtai nazaridan olmosh bo'lgan bu so'z bu yerda «**ism-i a'zam**» degan ilmiy, jumladan falsafiy istilohdir. Bu ibora azoyimxonlikda maxsus azima vositasiga nisbatan ham ishlatiladi. Ammo ilmda «**ism-i a'zam**» deb ataladigan «ul»ning azoyimxonlikga hech qanday aloqasi yo'q. «Ul»dan murod Haq taolodir. «Kim» aniqlov bog'lovchisi bo'lib, o'zidan keyingi jumalarning «ul»ning aniqlovchisi ekanligini bildiradi.

Zot-sifot - «Mahbubu-l-qulub»ning ba'zi qulyozma nusxalarida «sifot» so'zi «ehson» deb o'zgartirilgan. Buni zotu sifotning falsafiy ma'nosidan, mantiqdan va Navoiy badiiyyatidan xabarsiz xattot qilgan. «Sifot» «ehson»ga nisbatan ham mazmun, ham shakl jihatdan afzal. «Sifot» «sifat» so'zining ko'pligi bo'lib, «**Zotu sifot**» deganda bir narsaning ikki jihati, mohiyati va xossalari tushuniladi. Ism-i a'zam bilan atalgan vujudning zoti uning mohiyatidan va sifoti uning zohir bo'luvchi xossalardan iborat.

Sano - Madh, maqtov. «Hamd» bilan «Sano» so'zlarinig o'rnini mazkur gapda almashtirib bo'lmaydi. Bu ikki so'zni yonma-yon qo'llaganda ham «hamd» birinchi, «sano» ikkinchi o'rinda bo'ladi. «Hamdu sano» deyilib, vaznu qofiya talabi bilan ham «sanovu» yoki «sanoyu» «hamd» deyilmaydi. «Zot» bilan «sifot» ham shunday. «Zot»siz «sifot» bo'lmagani, zot birlamchi, «sifot» ikkilamchi bo'lgani uchun «zot» «sifot»dan oldin keladi.

Onchakim - ul darajadakim, *onchakim sazovordur* - loyiq, yetarli darajada. Demak «ul» deb aytilgan vujudning zotiga loyiq darajada hamd aytishning imkoni yo'q ekan. *Onchakim yeri bordur*-o'rinni darajada, keragicha. Demak, mazkur vujudning sifatlariga ham kerak bo'lgan darajada sano yozishning iloji yo'q ekan. Bu ikki jumlaning birinchisida «sazovor», ikkinchisida «yer» so'zi ishlatilgan. Bularning ham har biri o'z o'rniga tushgan. «Zot» yagona va g'ayb olamida. Uni his uzvlari va aql bilan idrok qilib til bilan ifodalab bo'lmaydi. Idrokidan hiss uql bayonidan til ojiz bo'lgan va tasavvurga sig'maydigan vujudga sazovor hamd aytish albatta muholdur. Ammo har bir sifat muayyan yerda va muayyan shaklda zuhur etadi. Uni his qilish mumkin. Ammo bunday sifatlar va ularning zohir bo'lish makonu zamoni shunchalik ko'p va rangbarangki, ularga yetarli sanoni bitar yer yetkazib va yozib ulgurib bo'lmaydi. «Kim» aniqlov bog'lovchisi. Agar birinchi gapni «kim»siz ifodalasak, mazkur gap shunday bo'ladi: *Zotig'a sazovor darajada hamd aytib va sifotig'a keragicha sano bitib bo'lmaydigan vujudga hamd*.

Kamolot-Lug'aviy ma'nosi yetuklik bo'lgan «kamol» so'zining ko'pligi. Kamol taraqqiyotning eng yuqori darajasidir.

Jami'-Hamma, barcha. *Jami' kamolot*-kamollarning hammasi.

Majmu'-yig'indi, jumla, *majmu' sifoti*-sifatlarning jumlası. Yagona «jam'» o'zagidan yasalgan bu ikki so'z vositasida «hamma» degan ma'no ikki shaklda berilgan. «Jami'» bilan «majmu'» o'zagi bir bo'lishining va bu ikki so'zning «jam'»da jam' bo'lishining bu o'rnidagi ahamiyati shundaki, sifatlar zotda jam' bo'lib, ya'ni yig'ilib birlashadi «jam'» so'zi tasavvufda «*tafsil*» atamasiga qarshi atama sifatida qo'llanadi. Jam'u tafsilga shunday sodda misol keltirish mumkin. Suv-jam'; bug', bulut, qor, yomg'ir, muz, qirov, shudring-tafsildir.

Mavsuf-Sifatlangan. Demak mazkur vujudning zotida unda jam' bo'luvchi barcha yetukliklarning sifatleri bor ekan.

Kashf ahli-«*Kashf*»ning lug'aviy ma'nosi burkanganni ochish va uning ochilishidir. Istilohiy ma'nosi g'ayb olamidagi sirlarning ochilishidir. Shunday sirlarni ochgan yoki ularga ochilgan kishilar «**kashf ahli**» deyiladi.

Makshuf-kashf etilgan. Demak, kashf ahliga o'sha vujud sifatlaridan uning barcha yetukliklari ko'rinib turar ekan.

«Mahbubu-l-qulub»ning matni masajja', ya'ni saj'li nasrdir. Risolaning «saj'» faslida aytib o'tdik, saj'da kalom ohangdosh bo'lib tugagan bo'laklardan iborat bo'ladi. Shunday bo'lak «qarina» deb ataladi. Qarinalarning hamohanglik, ya'ni saj' hosil qiluvchi oxirgi so'zlari «**fosila**» deyiladi. Bular qarinalarni bir-biridan ajratib turganligi uchun «fosila» ya'ni ajratkich deb atalgan.

«Mahbubu-l-qulub»ning mazkur matnidagi har ikki gap ikki qarinalik saj'dan iborat. Birinchisining birinchi qarinası: *Hamd angakim, zotig'a Hamd onchakim, sazovordur, aytsa bo'lmas*. Ikkinchi qarinası *sifotig'a sano, onchakim yeri bordur, bitsa bo'lmas*. Ikkinchi gapning

birinchi qarinas, *Zoti jam'-i kamolot sifoti bila mavsum*, ikkinchisi *sifotidin majmu'-i kamolot kashf ahliga makshuf*.

Birinchi saj'dagi fosila *aytsa bo'lmas-bitsa bo'lmas* qofiya nuqtai nazaridan *aytsa-bitsa* qofiya, *bo'lmas* radifdur. Ikkinchi saj'dagisi *mavsum-makshuf*. Har bir saj' qarinalaridagi so'zlar miqdor jihatdan bir-biriga teng va qofiya ham hosil qilgan: *zoti-sifoti*; *sazovordur-bordur*; *kamolot-sifot*. Bu **tarsi'** san'atidir.

Parchada o'zakdosh so'zlardan ham foydalanilgan: *sifot-mavsum kashf-makshuf*. Bu san'at «**ishtiqoq**» deb ataladi. *Kamolot sifoti-sifotidin....kamolot* ham mahorat natijasidir.

MATN

Tanzihi til sharh qilurdin mubarro, taqdisi el vasf etardin muarro. Azamati bog'ida sipehr-i davvor bir nilufardin kamu kudrati ollida nujum-i sobitayu sayyora ul nilufar yuzida bir necha qatra shabnam. Nilufar yuziga shabnam sachquchi ham ul va shabnam suyidin nilufarzor balki guliston-i eram ochquchi ham ul.

SHARH

Tanzih va taqdis-Bu ikki vazndosh so'zning ma'nosi bir-biriga yaqin. So'zlarning tovushlari miqdor jihatdan teng bo'lib, unlilari aynan takrorlansa, bo'nday so'zlar «**mutavozin**», ya'ni vazndosh deb ataladi. «Ta» bilan boshlanib, undan so'ng yonma-yon kelgan ikki undoshdan keyin «i» unlisi kelib, yana bir undosh bilan tugagan «*taqdir*», «*tashkil*», «*taklif*», «*taqdim*», «*ta'lim*» kabi so'zlar «*tafi'l*» vaznidagi so'zlar deyiladi. «*Tanzih*» va «*taqdis*» so'zlari ham tafi'l vaznidagi vazndosh so'zlardir. «*Tanzih*» so'zining lug'aviy ma'nosi «*tanzihlash*», nazihligini ifoda qilishdir. «*Nazih*» so'zining lug'aviy ma'nosi esa ayb, ya'ni kamchilikdan xoliy, sofdir. Demak «*tanzih*» deganda aybdan xoliylikni, soflikni til bilan ifodalash tushunilar ekan.

«*Taqdis*» qudslash, ya'ni qudusligini bayon etish degan ma'nodadir. «Qudus» shaklida ham iste'mol etilguchi «quds» so'zining lug'aviy ma'nosi zotiy poklik, poklikning o'zidir. «**Zotiy poklik**» deganda biror narsaning pok sifatga ega ekanligi emas, hech bir narsani nazarga olmagan holdagi poklikning o'zi tushuniladi. Biz buni tasavvur qilishimiz qiyinroq. Chunki sof poklikning o'zini maxsus otsiz, ya'ni his qilish mumkin bo'lgan narsalarsiz idrok etishimiz qiyin. Ammo ba'zi hakimlar, ya'ni sharq faylasuflari va ayrim faylasuflar, ya'ni g'arb hakimlari ko'rinishda sifat bo'lib tuyulganni o'zicha bir narsa deb ham qaraydilar.

«*Muhaddas*» so'zi ham mana «qud(u)s» so'zidan yasalgan bo'lib, quduslashgan, ya'ni zotiy poklikka nisbati bor, shunday poklikka erishgan degan ma'nodadir. «*Tanzihi*» va «*taqdisi*»dagi «i»dan murod mahmud, ya'ni hamd aytilayotgan vujudur.

Mubarro va muarro-Bu ikki shakldosh so'z bu o'rnida shakldoshlikdan tashqari «*tanzih*» va «*taqdis*»ga lug'aviy ma'no jihatdan ham nisbati birligi uchun qo'llangan. «*Mubarro*»ning lug'aviy ma'nosi aritilgan, «*muarro*»niki yalanglangandir.

Demak mahmudning tanzih, nuqsondan xoliyligining ta'biri, til sharh qilurdin, taqdisi, mutlaq pokligining ifodasi, el vasf etardan xoliy, ya'ni uning hamma narsadan orig' va yalang bo'lgan mutlaq pokligini inson til bilan tushuntirib, so'z bilan sifatlay olmas ekan.

Ammo bu poklik haqida tahminiy bir tushuncha hosil qilishimiz mumkin. O'zidan o'zga narsa qotishmagan, yuqmagan narsa pok bo'ladi. Shuning uchun har bir narsa vujud pokligi nuqtai nazaridan qaraganimizda murakkab narsaga qaraganda sodda narsa pokroq bo'ladi. Masalan, suvga hech narsa aralashmagan bo'lsa, suv nuqtai nazaridan u pok hisoblanadi. Ammo umuman mavjudot nuqtai nazaridan suv murakkab bo'lgani uchun, uning tarkibidagi oksigen (achchil) va hidrogen (suvchil) unga nisbatan sodda bo'lgani uchun ularning har biri suvga nisbatan pokroqdir. Navoiy Hamd aytayotgan vujud esa butun mavjudotning eng poki va eng latifidir. Latif kasifning ziddi bo'lib, bularning orasidagi farqqa jismoniyot, ya'ni jismdan iborat narsalar bilan cheklab nazar soladigan bo'lsak, qattiq jismlar kasif hisoblanadi. Suyuq jismlar qattig'iga nisbatan latifroq, gaz holidagi jismlar yana ham latifroq, jismoniyotning eng latifi nurdir. Narsa qancha latifroq bo'lsa, uning harakati shuncha tezroq va makonu zamoni cheklanmaganroq buladi.

Azamat azimlik, ya'ni ulkanlik degani. «Azamati»dagi «-i» mahmudga oid bo'lib, madh etilguchining ulkanligi nazarda tutilgan.

Sipehr olam, jumladan osmon kurasidir. «Sipehr» va «sfera» bir so'zning ikki, sharqcha va g'arbcha, shakllaridir. «Sipehr-i»dagi «i» izofa alomati bo'lib, bu «mipehr» so'zining aniqlanmish va undan keyingi so'zning aniqlovchi ekanligini bildiradi.

Davvor-aylanuvchi, sipehr-i davvor-doim aylanib turuvchi sipehr.

Nujum-najm «yulduz»ning ko'pligi. Bunday «-i» ham izofa alomati.

Sobit turg'un, harakatsiz, sayyora-doim kezib yuruvchi «Sobita» va «sayyora» degandagi «a» aniqlovchiga uning aniqlanmishi ko'plik siyg'asida bo'lganda qo'shiladigan «a»dir. Agar «nujum» o'rniida birlik, ya'ni «najm» bo'lganda «sobit» bilan «sayyor»ga «a» qo'shilmagan bo'lar edi. Demak «nujum-i sobitayu sayyora» turg'un va kezib yuruvchi yulduzlar degani ekan. Bu iboradagi «sayyora» so'zi sifat bo'lib, uning «a»si ot sifatida «planeta» ma'nosida ishlatiladigan «sayyora»dagi «a»dan farq qiladi. Sifat «sayyora»dagi «a» faqat shakliy vosita bo'lib, «sayyor» bilan «sayyora» bu holda ma'no jihatdan tengdir. Ammo ot «sayyora»dagi «a» birlik va aniqlik bildiradi va bu holda «sayyor» so'zi jam'lik ma'nosiga ega bo'lib, «sayyora» ma'lum bir sayyor degan ma'noni anglatadi. Sifat «sobita» bilan ot «sobita» orasida ham mazkur farq bor. «Nujum-i sayyora», «nujum-i sobita» degan iboralar ma'noda «kezar yulduzlar» va «turg'un yulduzlar»ga teng bo'lsa, «zuhra sayyoradur» va «Suhayl sobitadur» degan gaplar. «Zuhra bir sayyor yulduzir» va «Suhayl bir sobit yulduzdur» degan gaplarga tengdir.

Navoiy «*azamat-i bog'ida sipehr-i davvor bir nilufardin kamu qudrati ollida nujum-i sobitayu sayyora ul nilufar yuzida bir necha qatra-yi nabnam*» der ekan, rangi shaklda osmonning nilufarga, yulduzning shudringga o'xshashligini nazarga olib mahmudning ulkanligini o'quvchiga bog' tasavvurida qiyoslab anglatgan.

Shoir sipehr-i davvorni mudavvar (to'garak) nilufarga, yulduzlarni shabnam tomchilariga va shu tasavvur asosida butun borliqni darajama-daraja ulkanlashib boradigan ko'rkam bog'chaga va bog'chalardan iborat yagona bir go'zal boqqa o'xshatib, vahdatu-l-vujud e'tiqodini vujudga keltirgan mavjudot birligining tasvirini yaratgach, keyingi gapda bir zikr bilan «*nilufar*» so'zini ham nilufarning o'ziga, ham unga o'xshamish sipehrga, «*shabnam*» so'zini ham shudringga, ham unga o'xshamish yulduzga nisbatan qo'llaydi.

Eram-ilk arab qabilalaridan hisoblanmish Od qavmining poytaxti, Shaddodning otasining ismi. Rivoyatlarga ko'ra Eram shahrini Odning o'g'li Shaddod oltin, kumush va turli ziynat toshlaridan go'zal bog'u guliston bilan jannatnusxa qilib qurdirgan, lekin bitgandan so'ng uni hatto kirib ko'rish Shaddodga nasib etmagan. Bu o'rniida shoirning inson qo'li bilan yaratilgan gulzorlarni «Eram gulistoni» deb atashidan maqsadi o'quvchiga Eram rivoyatini ham eslatishdir. Bu talmih san'atidir.

Navoiy «*Nilufar yuziga shabnam sochquchi ham ul va shabnam suyidin nilufarzor, balki guliston-i Eram ochquchi ham ul*» der ekan, hokimiyatu qudrat egalarini faqat tabiiy emas, sun'iy ne'matlarning ham bosh sababchisini unutmaslik va kibru havoga berilmaslikka undaydi.

Mazkur parcha ikki gapdan va har bir gap ikki qarinali saj'dan iborat. Birinchi gapning birinchi qarinesi *azamati bog'ida sipehr-i davvor bir nilufardin kam*. Ikkinchi qarinesi *qudrati ollida nujum-i sobitayu sayyora ul nilufar yuzida bir necha qatra-yi shabnam, Kam-shabnam* fosiladir. Ikkinchi gapning birinchi qarinesi *nilufar yuziga shabnam sochquchi ham ul*. ikkinchi qarinesi *shabnam suyidin nilufarzor, balki guliston-i Eram ochquchi ham ul*. Bu saj'ning fosilasi *sochquchi ham ul-ochquchi ham ul*. Birinchi gapning qarinalaridagi quyidagi so'zlarga ham ahamiyat bering:

azamat-qudrat;

davvor-sayyorra

MATN

Beniyoqliq'i janbida charx-i nigun bir gado-yi niyozmandu chorasozlig'i ollida dahr-i buqalamun bir bechora-yi ajzpayvand. Vujudi mulohazasida ofarinish nomavjudu shuxudi mutolaasida avvalinu oxirin budi nobud. Xon-i ehsoni tegrasida oliysha'n shohlar rizqqa soyilu ilm-i bepoyoni taaqqulida oliymakom ogohlar jahlg'a qoyil.

SHARH

«Beniyoqliq'i» degandagi egalik qo'shimchasi bo'lmish oxirgi «-i» mahmudga roji'dur: Hamd aytilayotgan zotning beniyoqliq'i deyilmoqda. «Beniyoqliq» so'zidagi jarangsiz «q» tovushi «i» qo'shilgach jaranglilashib «g»ga aylangan. «Niyoz» hojat, ixtiyoj, «beniyoqliq» ixtiyoji yo'q, muhtoj bo'lmagan, «beniyoqliq» nomuhtojlik degani. «Beniyoqliq»dagi «-liq» qo'shimchasi «-lik»ning qalin shaklidir. O'zbek adabiy tilida mazkur qo'shimcha to'rtta «-lik», «-luk», «-liq» va «-luq» shakllariga ega edi. O'zak ingichka bo'lib, unda «u» va «o» tovushlari bo'lmasa, unga «-lik» shakli, «u» yoki «o» bo'lsa, -luk shakli qo'shilgan. Agar o'zak qalin bo'lsa, «-lik» va «-luq» shakli ishlatilgan, **itlik, ko'rluk, ozlik, sho'xluk** singari.

«Janb» yon degan ma'noda. Bu so'z bu o'rinda keyingi «ollida», ya'ni oldida so'zi singari chog'ishtirish uchun ishlatilgan. So'z takroriga yo'l qo'ymaslik uchun bir holda «janb», ikkinchi holda «ollida» so'zi bir ma'noda qo'llangan. «Charx-i nigun» egik osmon, «dahr-i buqalamun» o'zgarib turuvchi zamona degani. «Ajz» kuchi yetmaslik, o'jizlik, «ajzpayvand» ajz bilan bog'lab qo'yilgan degani. Demak mahmudning nomuhtojligi oldida egilib turgan osmon bir muhtoj gado singari unga tobi' va turli tusga kira oluvchi zamona uning chorasozlig'iga, ya'ni imkoniyatiga qaraganda o'jizlikka mahkum bir bechoraga o'xshar ekan.

Keyingi jumlada Navoiy «vujud» so'zining ikki turli borliqqa nisbatan qo'llanishini nazarda tutgan holda ajib bir nuqtani izhor qilgan. Mazkur ikki borliqning biri haqiqiy vujud. Bu haqiqiy vujud mahmudning zotidan iborat va u na makonda va na zamonda cheklangan, ya'ni u mutlaq va poyonsiz va shu bilan birga azaliy abadiydir. Ikkinchi vujud majoziy vujud bo'lib, bu yaralib yoki yaratilib bor bo'ladi va yana yo'qoladi. Majoziy vujud makonu zamonda cheklangan va u ma'lum shaklga egadir.

Navoiy mahmudning «vujudi mulohazasida» degan. «Mulohaza»ning asil ma'nosi ko'z qiri bilan qarashdir. Nega shoir «mulohazasida» degan? Gap shundaki, biz haqiqiy vujudni his muchalari bilan idrok qilolmaymiz va aql bilan uni aniq tasavvur etolmaymiz. Binobarin uni idrok etish imkoniyati mulohaza imkoniyatidan ortiq bo'lmaydi.

«Ofarinish» xalq, ya'ni yaralish va yaratilish degani. «Xalq» so'zining mardum, ulus ma'nosi aslan ikkilamchi bo'lib, hozir urfiy ma'noga aylangan. Bu o'rinda Navoiy «mahluqot vujudi» demasdan «ofarinish vujudi» deb mubolag'a qilgan, ya'ni firknini yetuk darajaga yetkazgan. Vujudning haqiqiy va majoziylik e'tiborga olinganda haq qarshisida mahluqot turadi. Ammo Navoiy, zotning vujudini mulohaza qilinsa, mahluqotgina emas, ularning yaralish jarayonining o'zi ham nomavjud, ya'ni yo'q xoldadir, deydi. «Shuhudi mutolaasida» «shuhud»ning lug'aviy ma'nosi bir vaqeaning ustida bo'lish va uni o'z ko'zi bilan ko'rishdir. Bu so'zning falsafiy ma'nosi kishining yuqori martabalardan biriga erishganda haq nurini ko'ngil ko'zi bilan ko'rishdir.

«Mutolaa» bilib olish maqsadida qarash va kuzatishdir. Bu yerda «mutolaa» so'zining qo'llanilishiga sabab, uning «shuhud» so'ziga ma'no jihatidan uyg'unligidir.

«Avvalin» avvalgi, ya'ni boshlang'ich va «oxirgi», ya'ni so'nggi degani. «Bud» bu yerda «vujud»ning «nobud» esa «nomavjud»ning ma'nodoshidir.

Demak mahmudning shuhudini, ya'ni yetuk kishilarga oshkor bo'lgan jihatlarini mutolaa qilib, ya'ni nazarga olib bir xulosaga kelinsa, uning zotiga nisbatan biz uchun mavjud bo'lgan avvalga va oxirgi degan nimalar ham nomavjud ekan. Chunki azaliy va abadiy bo'lgan vujudga zamonsizlik xos. Zamonsizlikda esa avvalgiligi oxirgilik va ketma-ketlik bo'lmaydi. Chunki bular zamon bor yerda bo'ladi va ularning tartibi zamonga nisbatan aniqlanadi.

«Xon» xontaxta va dasturxonni bildiradi. Bu so'zda «x»dan keyin vov yoziladi, lekin «xon» deb o'qiladi va sulton ma'nosidagi «xon» so'zidan imloda ana shu vov harfining borligi bilan farq qiladi.

«Xon-i ehsoni», ya'ni uning xoni deb shoir mahmudning tiriklik uchun zarur bo'lgan narsalarni tabiat vositasida in'om etishini dasturxonga o'xshatgan. «Soyil» tilanchi degani. Kun kechirish uchun zarur bo'lgan narsalar «rizq» deyiladi. Demak mahmud dasturxoni tegrasida, ya'ni atrofida oliysha'n shohlar ham rizq tilovchi tilanchilar ekan.

«Taaqqul» aqlga sig'dirish degani, «jahil» nodonlik, «qoyil» so'zlaguchi va tan oluvchi degan ma'nolarni bildiradi. Mahmudning bepoyon, ya'ni cheksiz ilmini aqlga sig'dirish borasida oliymaqom ogohlar, ya'ni oriflar, haqiqat ma'rifatidan bahramand bo'lganlar o'zlarining nodonligini tan olar ekanlar.

Bu ikki jumla ham avvalgi jumalardan ham ma'no va ham suvrat e'tibori bilan g'oyat muhkamdir. Undagi biror so'zni o'z o'rnidan qo'zg'atib bo'lmaydi. Osmonning mutlaq vujudga nisbatan muxtoj bir gado singariligi uning «charx» degan laqabi va nigun sifati bilan isbotlangan, ya'ni osmonning charx urishiyu gadoning ko'chalarda aylanish va har ikkalasining egikligi ularning muhtojligidanu arz-i ehtiyoj qilishidandir.

«*Dahr*» ya'ni zamonaning buqalamunlik, ya'ni turli tusga kira olish, o'zgaruvchanlik sifati zikr etilgan. Zamonaning faqat faslu mavsum bilan bog'lik turli tusdagi ishlarining o'zida yer yuzidagi hayotning ulug' choralari amalga oshadi. Ammo shunga qaramasdan u mazkur borliqqa nisbatan chorasizdir degan ma'nodagi chora jihatdan qilingan taqqosni go'zal ta'bir bilan anglatishga Navoiy buqalamun sifatini chora qilgan. Ikkinchi jumlada shohga shohlikka muvofiq oliysha'n (oliyshon) va ogohga oriflikka munosib oliymaqom deb sifat berilgan.

Birinchi jumlada tarsi' san'ati bor; qarinalardagi so'zlarning soni teng va ularning fasilasidan, ya'ni *niyozmand-ajzpayvand* tashqari birinchi, uchinchi, to'rtinchi o'rindagi so'zlari qofiyadoshdir: *beniyoqliq-i-chorasozlig'i; charx-i-daxr-i; nigun-buqalamun*. Qolganlari ham hamohangdir.

Ikkinchi jumla qarinalaridagi birinchi so'z qofiyadosh *vujudi-shuhudi*, ikkinchisi saj'dosh *mulohazasida-mutolaasida*.

Uchinchi jumla qarinalarida ham ikkinchi va beshinchi o'rindagi so'zlar qofiyadosh: *ehsoni-bepoyoni; shohlar-ogohlar*. Undan tashqari qarina boshida qofiyadosh ikki so'z yonma-yon kelgan: *xon-i ehsoni*. Bu san'at «**tazmin-i muzdavaj**» yoki «**izdivoj**» deb ataladi.

M U S T A Z O D

Sadriddin Ayniy o'zining Navoiyga bag'ishlangan kitobining «**Alisher Navoiy va nafis san'atlar**» degan faslida shunday deydi:

«Navoiy musiqa sohasida ko'zga ko'rinarli ishlar qildi. Avvalo uning o'zi musiqa bilan shug'ullanib, bu sohada mutaxassis bo'ldi. U musiqa ilmini bu ilmning nazariya va amaliyotini yaxshi bilgan Xoja Yusuf Burhon degan kishidan o'rgandi. U yaxshi shoir ham bo'lib, o'z she'rlarini kuyga solib o'qir va «**Isfahon**» nomli bir kuy ixtiro qilib, uni o'zining bir she'riga bastalagan edi.

Alisher havaskor yoshlarni o'zi va bu sohaning boshqa mutaxassislariga berib, tarbiyalab yetishtirardi. Chunonchi, yoshligida o'zining musiqaga bo'lgan qobiliyatini ko'rsatgan mashhur ustoz Qulmuhammadni avval Navoiyning o'zi tarbiyalab, so'ngra musiqa haqida «**Aslu-l-usul**» degan asar yozgan Mavlono Alishohga shogird qilib berib, uni bu sohaning nazariyasi va amaliyotiga mutaxassis qilib chiqardi.

Alisherning shogirdlaridan bo'lib, qozilik hamda vazirlik martabalariga erishgan Xoja Abdulloh Marvorid, uning yordami va rahbarligida musiqadan ixtisos olib, bu sohada bir kitob yozdi.

Abdulloh Marvorid Navoiyning:

Din ofati bir mug'bacha-yi mohliqodur,

Mayhora-vu bebok,

Kim ishqidin oning vatanim dayr-i fanodir,

Sarmast-u eqam chok.

deb boshlanadigan bir mustazodiga «*sarmast-u eqam chok*» degan nom bilan kuy bastalaydi. Vosifiyning «**Badoyi'u-l-vaqoyi'**»dagi mubolag'aliroq ta'biriga ko'ra, bu ashula o'sha vaqtlarda Hirotda juda mashhur bo'lgan va u kuylanmaydigan biror uy va bu ashulani eshitganda eqasini chok qilmaydigan biror tinglovchi bo'lmagan bu kuy Buxoroda oxirgi vaqtlarga qadar «**Mashrabxoniy**» nomi bilan kuylanar edi».

Qadrli o'quvchilar risolaning ushbu faslini mana shu mustazodga bag'ishlaymiz. Avval «**mustazod**» nimaligini Navoiyning o'z tilidan bilib olaylik. Shoir o'zining «**Mezonu-l-avzon**»ida bu haqda shunday deydi:

«Va yana bu xalq orasida bir surud bor ekandurkim, hazaj-i musamman-i axrab-i makfuf-i mahzuf vaznida anga bayt bog'lab bitib, aning misrasidan so'ngra hamul bahrning ikki rukni bila ado qilib, surud nag'amotig'a rost keltururlar er mish va ani «mustazod» derlar er mish, andoqkim, mustazod;

*Ey husnunga zarrot-i jahon ichra tajalliy
Maf'uvlu mafoiylu mafoiylu fauvlun
Mazhar sanga ash'yo.
Maf'uvlu fauvlun
Sen lutuf bila kavnu makon ichra mavliy
Olam sanga mavlo.*

Xoja Abdulloh Marvorid kuy bastalagan mustazod shunday:

*Din ofati bir mug'bacha-yi mohliqodur, mayxora-vu bebok,
Kim ishqidin aning vatanim dayr-i fanodur, sarmastu eqam chok,
Ham turrasining dudi vari' beliga zunnor men kofir-i ishq,
Ham yuzi majus o'ti kibi shu'lafizodur, men o'rtanibon pok.
Ul chexra furug'i tushubon zor tanimg'a bir nav' kuyarkim,
Har kimsa ani ko'rdi sog'indiki yonadur o't ichida xoshok.
Hayvon suyi jonimni olur la'lidin ayru ul jur'a-yi maykim
Tegmish anga maygun labi jonimg'a davodur ne zahru ne taryoq.
Bu nav'-ki oylar, mayi vasli havasidin mahmur bo'lubmen.
Mushkil-ki yozilg'ay bu humoreki mangadur sog'ar bo'lub aflok.
Soyilmenu maqsudum erur naqd-i visoling buxl aylama jono.
Kim barcha mazohibdaki ishq ahli arodur mazmum erur imsok.
Hajringda yuzi sarg'aribon dam ura olmas bechora Navoiy,
Guyokm xazon faslida bebargu navodur ul bulbul-i g'amnok.*

Mazkur bo'lganidek Navoiyning hayot vaqtida bir anjumanda mazkur mustazod kuyga solib o'qilganda barcha majlis ahli eqasini yirtib oh chekkanligiga sabab bunda teran ma'no va yuksak san'at borligidir. Mustazodning birinchi bayti shunday o'qiladi:

*di: -no-fa ti-bir-mug'(ba cha-yi:mo-h li(qo-dur may-xo-ra vu-be-bok
kim-ish(qi di-na: -ning-va ta-nim-day-ri fa-no-dur sar-mas-tu ë(qam-chok*

«Mug'bacha» mug'bola degani. Mug' aslida otashparastlarning ruhoniysidir. Mug'bacha mug'lar ibodatxonasidagi shogird boladir.

O'tparastlar o'tga sig'inganligi uchun ularning ibodatxonasida doim o't yonib turgan. Mana shu o'tga hammadan ko'proq aloqador shaxs mug'bacha bo'lgan. Chunki bu o'tga, birinchidan amali, ya'ni xizmati bilan, ikkinchidan, ixlosi bilan yaqin. Bolalarning yuragi fitratdan, ya'ni yaratilishdan kattalarnikiga nisbatan toza bo'ladi. Kattalar o'z ibrat amali yoki suitarbiyasi bilan buzmagani bolalarning niyati doim yaxshi bo'ladi va ular ezgulikka intiluvchan bo'ladilar. Mana shunga ko'ra mug'bachaning o'tga ixlosi ham martabali mug'larnikiga nisbatan ham ortiqroq bo'lishi tabiyidir. O'tning ishqqa nisbati bor. Mutlaq ishq borliqdagi azaliy abadiy harorat va jozibadan iborat, nisbiy ishq insondagi kuchli muhabbat, ya'ni yetuk do'stona munosabat va olam yoki inson haqiqatini idrok etishga bo'lgan zo'r ishtiyoqdir.

Boladagi mazkur fitriy ixlosning ahamiyati juda ulug' bo'lib, bunga mutafakkirlar alohida e'tibor beradilar. Bolaning ixlos bilan qilgan xizmatining o'zi ham, oqibati ham buyukdir. Undan tashqari haqiqat ahli nuqtai nazaridan xizmat buyurguchidan xizmatni ado etkuchi ustun turadi.

Mana shularni hisobga olib, haqiqat shuuridan bahramand buyuk shoir Navoiy mug'bachani insonning ma'naviy kamoli yo'lida ixlos bilan xizmat qiladigan yoshlarning timsoli sifatida olib,

«mug'bacha» so'zini ramziy ma'noda qo'llagan. Bunga asos mug'bachadagi ixlos va xizmat. Ixlos va xizmat o'tga qaratilgan. O'tning ishqqa nisbati bor. Ishq esa ilm bilan birgalikda, ba'zan ilmsiz ham kishini kamolga yetkazuvchi omil hisoblanadi.

Endi mug'bacha, ya'ni kamolot yo'lida xizmat qiluvchi yigitga berilgan sifatlariga e'tibor beraylik. Sifatlarni biri mohliqodir. «*Mohliqo*» oy yuzli degani. Demak mug'bachaning rangi toza, yuzi nuroniy ekan. Kishining ma'naviy go'zalligi uning qiyofasida ham aks etadi. Sifatlardan yana biri «*din ofati*» degan sifattir. «*Din*» deganda birinchi navbatda muqaddas deb hisoblangan qonun-qoidalar va shu qonun-qoidalariga rioya qilish tushuniladi. Dunyoda din ko'p. Dinning mohiyatiga yuzaki qarab unga taasub qilish yoki undan suiste'mol qilish din namoyandalari orasida, hatto bir dinga oid turli mazhab vakillari va undan ham yomonrog'i bir mazhabga oid kishilar orasida qonli to'qnashuvlarni keltirib chiqaruvchi adovatga sabab bo'ladi. Bunga tarixda misolar juda ko'p. Mustazoddagi «*din ofati*»dan murod kishidagi mazkur diniy taassub va diniy adovatlarni yo'qotishdir. Haqiqiy oshiqda bu siyosiy xislatlar bo'lmaydi. Demak mazkur mug'bachaning yana bir sifatida kishidagi mazkur salbiy xislatlarni yo'qotish ekan. Otashparastlik ham bir din. Shunga ko'ra mug'bacha ham din ofati emas din quvvati bo'lishi kerak edi. Lekin Navoiy tazod yo'li bilan birinchidan, misraning badiiy kuchini oshirgan, ikkinchidan «*mug'bacha*»ning she'rda ramziy ma'noda ekanligini bildirgan.

Mug'bachaga berilgan sifatlardan yana biri «*mayxora*»dir. «*Mayxora*» may ichuvchi, mayparast degani. Bu yerdagi maydan murod mazkur ishq lazzatidir. Demak insoniy kamolot yo'lida xizmat qiluvchi yigitga, ham uning ezgu niyati, ham xolis xizmati, ham bu ezgu niyatu xolis xizmat oqibati unga doim lazzat bag'ishlab turadi.

Mug'bachaga berilgan oxirgi sifat «*bebok*». «*Bebok*» qo'rqmas degani. Buning mazmuni shuki, mazkur yigit o'zi tanlagan haqiqat yo'lidan boshiga qilich kelsa ham qaytmaydi, turli ta'nalardan, bo'hton va aybnomalardan hamda bu yo'lda uchraydigan halokatli qiyinchiliklardan qo'rqmaydi.

Shunday qilib Navoiyning mahbubi «*Din ofati bir mug'bacha-yi mohliqodur, Mayxoravu bebok*» ekan. Mana shunday yigitning ishqida shoirning vatani *dayr-i fano* o'zi sarmast, *eqasi chok* ekan.

«*Vatan*» so'zi bu yerda doimiy joy ma'nosida. Dayr so'zining birinchi ma'nosi g'ayr-i islomiy ibodatxona, ikkinchi ko'chma ma'nosi mayxonadur. «*Din ofati*» mug'bachaga zidlashtirilgan bo'lsa, «*dayr*» mug'bachaga uyg'unlashtirilgan. Agar shu o'rinda «*maykada*», «*mayxona*» kabi so'zlardan biri ishlatilsa, u so'z «*mug'bacha*» so'ziga uyg'unlashmas edi. Bu musavvirning bir-biriga mos bo'yoqlarni topib ishlatolmaganiga o'xshab qolar edi. Navoiyning shu o'rnida dayr so'zidan foydalanishi uning yetuk san'atkorligidan nishonadir.

Shoir «*dayr*» so'zining birinchi, ya'ni ibodatxona ma'nosida uni «*mug'bacha*» so'ziga uyg'unlashtirish uchun foydalangan bo'lsa, uning ikkinchi, ya'ni mayxona ma'nosidagi o'xshatish yo'li bilan «*fano*» tushunchasini muayyanlashtirish, shu bilan birga bu tushunchani «*mayxora*» va «*sarmast*» sifatlariga uyg'unlashtirish uchun qo'llagan.

Fano so'zining bu yerdagi ma'nosi ma'shuq hayoliga butunlay berilish natijasida o'zni butunlay unutishdir. Fano mayxonaga o'xshatilgan, shoir bu fano mayxonasining muqimiga aylangan. Demak oshiq Navoiy ishqda fano maqomiga erishgan, ya'ni o'zining borligini sezmaydigan darajaga yetgan va u ishq mayidan sarmast, ya'ni boshidan aqlu hushi ketgan, *eqasi chok*, ya'ni yirtiq.

Mustazodning ikkinchi bayti shunday o'qiladi:

Ham-tur-ra-si-ning-du: -di va-ri'-bel-li ga-zun-nor
man-ko-fi ri-ish(qi

Ham yuzz-i ma-ju-so': -ti ke-bi: -shu'-la fi-zo-dur
men-o'r-ta ni-bon-pok.

«*Turra*» deb sochning jingalaklariga aytiladi. «*Dud*» tutun degani. Turra, ya'ni sochning jingalaklari buralib chiqayotgan tutunga o'xshatilgan. Turraning bu o'rinda dudga o'xshatilishining sababi tutunning va mug'bachaning o'tga munosabati borligidadir.

«*Var-'*» bebokning ziddi bo'lib, taqvodor, ya'ni o'zini g'ayr-i shar'yi yoki g'ayrirasmiy ishlardan saqlovchi degan ma'noda, zunnor esa islomdan o'zga dindagi ruhoniylarning maxsus qora belbog'idir.

Birinchi baytda shoir mug'bachani «*din ofati*» degan edi. Endi bu yerda shuni aniqlashtirib uning jingalak qora sochining o'zi ham shunday go'zalki, buni ko'rgan vari', ya'ni o'zini juda ehtiyot qiladigan taqvodor kishi ham islomga zid bo'lsa ham, uni beliga zunnor, ya'ni muqaddas bir belbog' qilib bog'lashga tayyor, mana shuning uchun meni kofirlikda ayblasalar ham, uning ishqidan qaytmaydigan darajaga yetganman, deydi.

Mug'bachadan murod haqiqat ishq yo'lidagi ma'shuq ekanligini yoddan chiqarmang. Dindan chiqish va kofir bo'lishdan maqsad haqiqat ishq yo'lida bebokona, ya'ni qo'rqmasdan, taassub va xurofotdan qutulib, islomning mohiyatini anglagan holda maqsad sari erkin harakat qilishdir.

«*Majus*» deb o'tparastlarga aytiladi, ba'zan oftobparast va oyparastlar ham shu jumlagi kiritiladi. «*Majus*» so'zi forscha «*manjgo'sh*» so'zining arabchalashgan shakli degan fikr bor. «*Manjgo'sh*», kichikquloq degan ma'noda. Otashparastlikning asoschisi Zardo'shtning qulog'i kichkina bo'lgani uchun shu laqab vujudga kelgan, deyiladi.

«*Shu'lafizo*» shu'la orttiruvchi, ya'ni kuchli shu'la hosil qiluvchi degani. Mug'bachaning o'tday qizil yuzi o'tparastlarning o'ti singari lovullab yonadi. Navoiy yana mavzuni o't doirasidan tashqari chiqarmaslik uchun mug'bachaning yuzini unga aloqador bo'lgan majus o'tiga o'xshatgan va uning qizilligini shu'lafizodur, degan. Mana shu o'tgan shoir «*men o'rtanibon pok*», ya'ni men butunlay yonib tamom bo'ldim, deydi. Bu yerda «*pok*» so'zining alohida ahamiyati bor. Kishi ishq o'tida yonganda, masalan, oltin o'tda sof holga keltirilganidek, butun salbiy xislatlari go'yo kuyib yo'q bo'lib, pok holga keladi va pok ma'shuqqa erishish darajasiga yetadi.

Mustazodning uchinchi bayti shunday:

*ul-cheh-ra fu-ru: (g'i: -tu shu-bon-zo-r ta-nim(g'a
bir-nav-' ku-yar-kim
har-kim-sa a-ni-ko'r-di so(g'in-di-ki ë-na-dur
o't-ich-chi-da xoshok*

«*Furug'*» yorug'lik degani. «*Ul chehra furug'i*»dan murod ma'shuq, ya'ni mug'bacha yuzidan ëg'ilib turgan nurdir. «*Sog'inmoq*» fe'lining birinchi ma'nosi tasavvur qilmoq, bir nima deb o'ylamoqdir. Mazkur baytda «*sog'inmoq*» ana shu birinchi ma'nosida qo'llangan. Lekin Navoiy bu baytda ma'shuq yuzidan ëg'ilib turgan nur menng ojizu ozg'in tanimga tushib, uni shunday kuydirdiki, buni ko'rgan kishi o't ichida xoshok, ya'ni cho'p yonayapti deb o'ylaydi, degan. Ma'shuq yuzidagi nur yana o'tga o'xshatilgan, oshiq jismi cho'pga. Bu baytda ham mavzu o't doirasidan tashqariga chiqarilmagan.

Ma'shuq chehrasining nuridan oshiq jismining o'tga tushgan bir cho'pdek qanday tushunish kerak?

Aslan yagona bo'lgan mutlaq borliq mavjudotda cheksiz va rang-barang ko'rinishlarda zuhur qiladi, ya'ni namoyon bo'ladi. Borliq o'zining eng go'zal yuzini inson chehrasida ko'rsatadi. Shuning uchun yetuk kishining chehrasi Navoiy va uning e'tiqodidagi kishilar uchun mutlaq go'zallikka erishish vositasi hisoblanadi. Chunki bu chehra mutlaq go'zallikning ko'zgusi bo'lib, uni faqat shu ko'zgu orqali idrok qilish mumkin. Linza orqali jamlanib tushgan quyosh nuri narsalarni kuydirgandek inson chehrasida mutlaq go'zallik nurini jamlab qabul qilish qobiliyatiga erishgan oshiqning jismi o'tda kuygan xasdek o'rtanadi. Yana shuni ham nazarda tutish kerakki, bu o'rinda tan kuyishi, nafs balosining kuyishi va shuning natijasida kishining yuragi tozalanib, axloqiy kamol kasb etishidir.

Mustazodning to'rtinchi bayti shunday o'qiladi:

*hay-von-su-yi-jo-nim-ni o-lur-la'-li di-nay-ru:
ul-jur-a' yi-may-kim
teg-mish-a nga-may-gun-la bi-jo-nim(g'a da-vo-dur
ne: -zah-ru ne-tar-yok.*

«*Hayvon suyi*» tiriklik suvi degani va bundan murod Xizr ichgan va shu tufayli dunyoda abadiy hayot kasb etgan afsonaviy suvdur. Navoiy mana shu afsonaviy hayot suviga haqiqat mayini qarama-qarshi qo'yadi va undan hayvon suyi menga umr bag'ishlamaydi, balki jonimni oladi, deydi. Buning zimmida teran mazmun bor. Chunki haqiqatdan yiroq afsonaviy maqsadlarga

berilib, shunga yetishaman deb do'stu dushmani ajratmasdan. Ham o'zini va ham o'z do'stlarini, hatto avlodini xonavayron qilganlar bor.

Binobarin Navoiy, hushyor kishiga xayoli hayot suvi haqiqat e'tibori bilan og'u ekanligini ta'kidlash maqsadida «hayvon suyi jonimni olur» degan. Ammo shu yerda «*la'lidin ayru*», ya'ni haqiqiy ma'shuqning haqiqiy hayot manbai bo'lgan labi bo'lmagan taqdirda, degan shart ham bor. Buning ma'nosi shuki, kishi haqiqatni maqsad qilib, doim shuni nazarda tutsa, afsonalar, g'ayr-i voqiiy, xayoliy narsalar uni to'g'ri yo'ldan ozdirolmaydi. «*Ul jur'a-yi maykim tegmish anga maygun lab*» degandagi «*Jur'a*» qultum degani, «*maygun*» may rangli, ya'ni qizil degani. «*Qizil*» ma'nosida «*maygun*» so'zini ishlatishdan maqsad labni mayga uyg'unlashtirishdir. «*Mayga tekkan maygun lab*» deb o'sha labning o'sha mayga tegishining shoirona tabiiyligi qizil ma'nosida «*maygun*» so'zini qo'llash bilan erishilgan. «*May*» so'zining o'zi ramziy, haqiqat ishq va uning sarxushligi ma'nosida iste'mol qilingan.

Nima uchun shoir o'sha qultumni zahr bo'lsa ham, taryok bo'lsa ham, mening jonimga davo, deydi. Zahr bo'lsa, jonning davosi emas, ofati-ku?

Gap shundaki, ulug' bir maqsadga intilgan kishi uning achchiq-chuchugini tortishi tabiiy va uning achchig'iga chidashi kerak bo'ladi. Bugina emas, Navoiylar fikricha maqsad yo'lidagi achchiq ham chuchuk deb qabul qilinishi kerak. Chunki bu achchiqning shirin natijasi bor. Lekin natijasiz, muvaqqat shirinlar haqiqat ahli qoshida haqiqiy achchiqdir.

Mustazodning beshinchi bayti shunday o'qiladi;

bu-nav' ki-oy-lar-ma yi-vas-ling-ha va-si: -din

max-mu: -r bo'-lib-men

mush-kil-ki ë-zil(g'ay-bu xu-mo-ri: -ki ma-nga: -dur

so(g'ar-bo' lu-baf-lok

Maxmur bo'lmoq xumori bo'lmoq degani. Xumor mayning kayfidan keyin keladigan dardi va mayga bo'lgan talabdir. Mazkur baytda vasl, ya'ni ma'shuqqa erishish mayga o'xshatilgan va bu erishishga bo'lgan kuchli talab humorga tashbih qilingan.

Shoir, men shunchalik xumorimanki, agar falaklarni sog'ar, ya'ni kosa qilib vasl mayini ichsam ham, xumorimning yozilishi qiyin, deydi.

Bu baytda aflok sog'ar bo'lsa ham humorim yozilishi qiyin degan gapda mubolag'a borgan o'xshaydi. Aslida unday emas. Chunki bu yerda gap ichiladigan yeyiladigan narsa haqida ketayotgani yo'q. Agar ichimlik bo'ladigan bo'lsa, falakni sog'ar qilib emas, bir chelagini ham qoringa sig'dirib bo'lmaydi. Ammo ma'naviy narsalarni kishi cheksiz ravishda o'zlashtirishi mumkin. Misol uchun ilmni oladigan bo'lsak, kishi uni harqancha o'zlashtirsa, unga og'irlik yoki ortiqchalik qilmaydi. Aksincha uning bilimga bo'lgan ishtahasi borgan sari ochilib boradi.

Olim bilgan sari o'rgangan sari yangidan yangi muammolar ko'payib boradi. Jumboqlarni hal qilishga odatlanib qolgan donishmandning ma'rifatga bo'lgan humori ham borgan sari ortib boradi. Har bir hal qilingan masala unga kuchli bir lazzat bag'ishlaydi.

Ma'naviy talab ishq darajasida bo'lsa, uning vasli lazzati va humori ham cheksiz darajada bo'ladi.

Mustazodning oltinchi bayti shunday o'qiladi:

so-yil-me nu-maq(su: -du me-rur-naq(di vi-so: -ling

bux-lay-la ma-jo-no

kim-bar-cha ma-zo: -hib-da ki-ish(qah-li a-ro: -dur

maz-mu: -me ru-rim-sok

«*Soyil*» tilanchi, «*naqd*» pul, «*buxl aylamak*» xasislik qilmoq «*mazmum*» qoralangan «*imsok*» torlik qilish, qurumsoqlik degani. «*Mazohib*» «*mazhab*»ning ko'pligi. Navoiy bu baytda o'zini gadoga vaslni pulga o'xshatgan va men sening vaslingning gadosiman, mendan husn boyligini ayama, agar ayasang, bu ishq boy kishining tilanchiga nisbatan xasislik qilganiga o'xshaydi. Xasislik qilish esa barcha mazhablardagi ishq ahli qoshida qoralanadi, degan.

Mustazodning maqtai, ya'ni oxirgi bayti shunday o'qiladi:

haj-ring-da yu-zi: -sar(g'a ri-bon-dam-u ra-ol-mas

be-cho-ra Na-vo-yiy

*go'-ë: -ki xa-zon-fas-li da-be: -bar-gu na-vo-dur
ul-bul-bu li(g'am-nok*

Ya'ni ayriliq tufayli xazon yaprog'idek yuzi sarg'aygan Navoiy kuzda gulidan judo bo'lib, ovozi chiqmay qolgan g'amgin bulbulga o'xshab indamay qoldi, deydi.

Bu baytdagi «*bebargu navo*» alohida badiiy ahamiyatga molik. «*Barg*» so'zining yaproqdan tashqari, yana cholg'u va kuy, ma'nosi ham bor bo'lib, maishatu ishrat uchun kerakli bo'lgan narsalarni ham bildiradi. Undan tashqari iltifot ma'nosida ham qo'llanadi. «*Barg*»ga «*navo*» birikib, «*bargu navo*» bo'lganda unga yana kuchu qudrat va xonadon rivoji degan tushunchalar ham qo'shiladi. Mazkur baytda bu ma'nolarning hammasi bor. Shu bilan birga u ham bulbulga, ham Navoiyga aloqador. Yana shunisi ham borki, «*Navoiy*» be «*navo*» bo'lsa, «*-yi*» qolib, shoirning asli «*o'zagi*» yo'q bo'ladi. Haqiqiy inson vujudning asosi maqsud navosidan iborat. Vasl bahorida u ravnaqda, hajr xazonida esa tuproqdadir.

NASRULLOHIYNING G'AZALI

Navoiyning «*etmish*» radifli bir g'azalini maqom kuylaridan bo'lmish Nasrullohiyda ashula qilib aytilganini bilasiz. Risolaning bu faslini shu g'azal sharhiga bag'ishlaymiz. G'azal matni quyidagicha:

*Pariyzodeki, mushkin zulfi jonim mustamand etmish,
Maloyik qushlarin ul halkamo'lar birla band etmish.*

*Samandingkim, yolindek tez erur, yuz shukrkim, gardun
Anga bizni samandarvash, munga gard-i samand etmish.*

*Chekarga ishq otashgohig'a devona ko'nglumni
Qazo har bir sharar torini bir o'tluq kamand etmish.*

*Vafog'a telbaliqdin nopisand o'lsam, ani ko'rkim,
Jafog'a kimni mencha ul pariypaykar pisand etmish.*

*May-i ravshan tut, ey soqiyki, ko'ngulum tiyra qilmish shayx
Damu afsun bila baskim anga izhor-i pand etmish.*

*Labingda no'shu zahr-i hajr og'zimda tong ermas, gar
Manga har zahrxand o'lg'anda dil bir no'shxand etmish.*

*Lab-i la'lin malohat xoli birla bahravar qilg'an,
Mening jonimni dog'-i ishq birla bahramand etmish.*

*Biravkim, sarvdek ozodavash bo'ldi bu bog' ichra,
Qazo dehqoni ham sarsabz ani, ham sarbaland etmish.*

*Navoiy, kech visol ummididinkim, Haq seni behad
Zalilu zoru yoringni azizu arjumand etmish.*

Bu g'azal **hazaj-i musamman-i solim**, ya'ni mafiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun yoki ta-nan-nan-nan ta-nan-nan-nan ta-nan-nan-nan ta-nan-nan-nan vaznida bo'lib, uning taqti, ya'ni hijo va ruknlari quyidagicha:

Pa-riy-zo-de ki-mush-kin-zul fi-jo-nim-mus ta-man-det-mish
Ma-lo-yik(qush la-rin-ul-hal qa-mo': -lar-bir la-ban-det-mish

Sa-man-ding-kim -ë-lin-dek-te: -ze-rur-yuz-shuk r-kim gar-dun
A-nga-biz-ni sa-man-dar-vash mu-nga: -gar-di: sa-man-det-mish

Che-kar-ga-ish q(o-tash-go hi-ga-de-vo na-ko'ng-lum-ni
Qa-zo-har-bir sha-rar-to-ri: ni-bir-o't-liq ka-man-det-mish

Va-fo(g'a: -tel ba-lik-din-no pi-san-do'l-sam a-ni: -ko'r-kim
Ja-fo(g'a-kim ni-men-cha: -ul pa-riy-pay-kar pi-san-det-mish

Ma-yi:(rav-shan tu-tey-so(qiy ki-ko'ng-lum-tiy ra(qil-mish-shayx
Da-mu: -af-sun bi-la: -bas-kim a-nga: -iz-ho ri-pan-det-mish

La-bing-da: -no': shu-zah-ri: -haj r-og'(zim-da: to-nger-mas-gar
Ma-nga: -har-zah r-xan-do'l(g'an da-dil-bir-no'(sh-xan-det-mish

La-bi: -la'-lin ma-lo-hat-xo li-bir-la-bah ra-var(qil(g'an
Me-ning-jo-nim ni-do(g'i: -ish q(bir-la-bah ra-man-det-mish

Bi-rav-kim-sar v-dek-o-zo (da-vash-bo'l-di: bu-bo(g'ich-ra:
Qa-zo deh(qo ni-ham-sar-sab za-ni: ham-sar ba-lan-det-mish

Na-vo-yiy-kech vi-so-lum-mi: di-din-kim-Haq se-ni: -be: -had
Za-li:(lu:(zo ru-ë-ring-ni: a-zi:(zu:(sar ba-lan-det-mish

Matla'dagi «*mushkin*» so'zi «*mushk*» so'zidan yasalgan nisbiy sifat bo'lib, mushkkin iborat degan ma'noda. Zulf qoralik va xushbo'ylik jihatlaridan mushkka o'xshatiladi yoki «*mushk*» va «*mushkin*» deb sifatlanadi.

«*Mustamand*» aslida «*mustmand*» shaklida bo'lib, unga «a» orttirilgan va shu shaklda ommaviylashgan. Mazkur tovushning «*mustmand*» so'ziga orttirilishga, birinchidan «*mustahkam*» «*mustaqil*» singari «*musta*» deb boshlanadigan so'zlarning ko'pligi va she'rda bu so'zni «*mustmand*»ga ko'ra «*mustamand*» deb o'qishning vazn va talaffuz jihatidan qulayligidir. Biror narsaga zor bo'lib, shuning qayg'usi bilan band bo'lgan kishini «*mustamand*» deyiladi.

«*Maloyik*» «*malak*»ning ko'pligi. «*Malak*» deganda diniy ma'nodaga farishta va tabiiy ma'nodagi hayotiy quvvatlar tushuniladi. Mazkur baytda kishiga xusnu fazilat bag'ishlovchi hayotiy quvvatlar «*maloyik qushlari*» deb qushga o'xshatilgan. Bu yerda malakning qushga tashbih qilinishining sababi shuki, kishi qo'lga kiritgan fazilarini saqlay olmasa, undan ajrashi mumkin. Omma ta'biri bilan aytganda farishtasi uchib, farishtasiz qolishi mumkin. «*Halqamo'*» halqa shaklidagi sochdir.

«*Pariyzodeki*» degandagi «e» ta'kid bildiradi «ki» esa bog'lovchi bo'lib, «*mushkin zulfi mustamand etmish*» degan gapnin «*pariyzod*»ning sifati ekanligini bildiradi. Demak «*Pariyzodeki, mushkin zulfi jonim mustamand etmish*» degan misrani mushkin zulfi, ya'ni qopqora jingalak sochlari mening jonimni mustamand, ya'ni hojatmand etgan ul «*pariyzod*» deb tushunish kerak bo'ladi. «*Pariyzod*» so'zida «i»dan so'ng «z»dan oldin «y» tovushi bor. Oxirgi tovush «t» emas «d» bo'ladi. Navoiyning manzuri misli ko'rilmagan darajada shunday go'zal ekanki, uni «*odamiyzod*», ya'ni odam naslidan deb bo'lmas, «*pariyzod*», ya'ni pariy naslidan deyish kerak ekan. Mana shu pariyzod Navoiycha *Maloyik qushlarin ul halqamo'ylar birla band etmish* ya'ni sochining har bir halqasi, jingalagi bilan bir malak qushini o'ziga bog'lab olgan ekan. Navoiyning jonining quvvati esa o'sha jingalak sochlarda va shuning uchun u unga zor ekan.

G'azalning ikkinchi baytidagi *Samand* yolu dumi somonrang, tanasi mallarang ot. Hozir oddiy so'zlashuvda ko'pincha oxirgi tovush «d» tushurib «*saman*» deb aytiladi. Ammo bu so'zning adabiy talaffuzi «*samand*», *Yolin* alanga degani. Bu so'z ko'chma ma'noda «*Yuragida yolini bor*» degan maqol tarkibida ham uchraydi. «*Gardun*» osmonga nisbatan uning aylanish

jihati nazarda tutib aytiladigan so'z. *Samandarovsh* samandarsifat, samandarsimon degani. *Samandar* o't ichida yashaydigan bir jonvor deb tasavvur qilinadi. Hayoti ishq o'ti ichida bo'lgan oshiq samandarga o'xshatiladi.

Baytda Navoiy o'z manzurining otini yolinek, ya'ni alangadek tez degan. Bu o'rinda o't bilan bog'liq boshqa so'zlarni ishlatmasdan «*yolin*» so'zining qo'llanishidan Navoiy otning yolini ham nazarga olinganligi anglashiladi. Tajnis sa'natidan xabardor o'quvchi buni bemalol fahmlaydi. Chunki bu yerda yashirin tajnis bor. «Yol» bilan «yolin» so'zlari shaklan bir-biriga yaqin bo'lgani uchun tajnis hosil qiladi. Ammo bu yerda «yol» so'zi zikr etilmagani uchun buni «*yashirin tajnis*» dedik. Baytda yana «*gardun*» bilan «*gard*» so'zlari ham bor. Bu ham tajnis, lekin yashirin emas. Bu yerda Navoiy otning yolini ham e'tiborga olganligiga bizda voqiiy asos ham bor. Chunki samand otning yoli va dumi somonrang, ya'ni alanga rangida, tanasi esa mallarang, ya'ni alanga ostidagi o't tusida bo'ladi. Oshiq shoirning ko'z o'ngida samand yugurganda uning yoli harakatdagi yolin bo'lib ko'rinadi.

Gardun Navoiyni shunday samandning va yolinek yoli tabiatiga samandarovsh qilibdi. Shoir garddek, manzurining samandining oyog'i ostida bo'lib, samandar o't ichida yashagandek ishq o'ti ichida bo'lganligiga yuz shukr qiladi. Chunki aks holda u hech kimni va hech narsani e'qtirmaydigan va o'zi hech kimga ma'kul bo'lmaydigan sovuq bir mutakabbir bo'lur edi. Ammo Navoiy bolshidan kechirgan hodisalar uni to'g'ri tarbiyalab tabiatini haqiqat shuuridan bahramand qilipti.

Bu o'rinda shoir hayot maktabini falakning ma'nodoshi bo'lmish «*gardun*» so'zi bilan ifodalashning ikkita sababi bor.

Birinchisi «*gardun*»ning chig'irig, g'altak va arava degan ma'nolari ham bor. Bularning hammasidan ezish va ezilish natijasida chang hosil bo'ladi. Ikkinchisi «*gard*» so'zi «*gardun*» so'zining tarkibida bor.

G'azalning uchinchi baytidagi «*Chekmak*» tortmoq degani, «*otashgoh*» deb o'txona, gulxan kabi o't yonib turgan yerga aytiladi. «*Sharar*» so'zi «*sharor*» shaklida ham ishlatiladi va uchqunni, ya'ni o'tning sachragan bo'lagini bildiradi. «*Tor*» so'zinig birinchi ma'nosi ip bo'lib, bu baytda ana shu ma'noda ishlatilgan. «*Kamand*» yovvoyi hayvonlarni, uy hayvonlarining asovini, urush va olishuvlarda dushman yoki raqibni iltirish va qo'rg'on devoriga osilib chiqish uchun qo'llanadigan sirtmoq arqon. Kamand oddiy qilib «*arqon*» deb ham yuritiladi. Masalan, birov bir hayvon yoki kishiga kamand solsa, «*arqon soldi*» deyiladi. Arqon so'zi xuddi shu kamand ma'nosida «*arkan*» shaklida ruschada ham qo'llanadi. Ammo rus tilida «*arkan*» so'zidan tashqari «*lasso*» degan so'z ham bor. «*Devona*» telba, ya'ni aqlsiz degani.

«Qazo» so'zi olamda yuz beradigan hodisalarning kulliy qonunini bildiradi. Masalan, yerning quyosh atrofida aylanishi, yerning o'z o'qi atrofida aylanishi tufayli tunning kun bilan, kunning tun bilan almashishini qazo ishidir. Agar inson hayotidan misol keltiradigan bo'lsak, tug'ilish va o'lish qazo, lekin muayyan shaxsning umri taqdiridir. Qazoni kishi o'zgartirolmaydi, ammo uning ayrim hodisalaridan foydalanish yoki saqlanish choralarini ko'ra oladi. Bu «*tabdir*» deb ataladi. Masalan, quyosh nuridan turli yo'llar bilan foydalanishi va uning zararidan saqlanishi mumkin. Lekin quyoshning o'ziga ta'sir qilib, uning nuridagi tabiiy xossalarni, o'zgartirolmaydi. Ammo ba'zi johil mansabdorlar xom xayollar bilan va ayrim e'tiqodsiz mutaxassislar o'z mavqini saqlash niyatida «tabiatdan in'om kutmaymiz», «koinotni zabt etamiz» degan xatarli shiorlar ostida kuch bilan xalqni tabiat qonuniga zid ishlarni qilishga majbur qilib, insonni halokat yo'lga boshlaydilar.

Dunyodagi zamonaviy fojialarning ko'pi tabdirda tabiat qonunlariga zid sun'iy vositalarni o'ylab topib, ishlab chiqarib, shulardan foydalanish natijasida vujudga keldi.

«*Ishq otashgohi*» degan birikma o'xshatishdan iborat bo'lib, bunda ma'naviy ishq nazarda tutilgan va uning makoni otashgoh, o't makoni deb tasavvur hosil qilingan.

Mana shu o'xshatish tufayli ishq harakatini ko'rmagan kishi ham o'tni yaxshi bilgani uchun ishq xususida o'ziga yarasha tasavvurga ega bo'ladi. Yana Navoiy o'zining ko'nglini devona ko'nglum degan. Qanday ko'ngul devona ko'ngul deyiladi. Devona oqil, aqlning ziddi. Aqlga bo'ysunmagan ko'ngul devona ko'ngul bo'ladi. Bu masalada adashmaslik uchun bir-biriga zid bo'lgan ikki kayfiyatni yaxshi tushunish kerak. Aqlga bo'ysunmaydigan ko'ngul boshqa, aqlga

bo'ysunmaydigan nafs boshqa. Ezgu maqsad, kamol, haqiqat yo'lida aqlning ba'zi xato xulosalariga e'tibor bermaslik ishq makoni bo'lmish qiziq ko'ngulda bo'ladi.

Shaxsiy manfaati, o'z nafi yo'lida aql inkor qilsa ham hiylayu nayrang, fisqu fasod va zulmu sitamlardan tiyinmaslik ishq uchqunidan bebahra sovuq ko'ngullarda bo'ladi.

Gap shundaki, kishi olamdagi ko'p narsalarni tajriba va his bilan idrok qilishi mumkin. Ba'zilari uchun esa aql ham kerak bo'ladi. Ammo olam va undagi mavjudotning kishining aqli yetmaydigan jihatlarini idrok qilishda ko'ngul kerak bo'ladi. Ko'ngulga kelgan narsani esa aql dalil yetishmasligi tufayli, u ma'qul bo'lsa ham, inkor etadi. Ammo ko'nguldagi ish ijobiy shaklda sodir bo'lgach, bu tajriba asosida aql uni tan oladi. Bunga onalik mehri darajasida sodda bir hayotiy misol keltiraylik. Misolga oliy ma'lumotli lekin mehrsiz va ma'lumotsiz, lekin mehrli ikki qizning ona bo'lgandagi bolaga bo'lgan munosabatini olaylik. Mehrsiz qizlar ona bo'lgunga qadar ham o'z aqlaridan qolmay ko'p xatolarga yo'l qo'yadilar.

Mehrsiz oliy ma'lumotli ona bo'lgach ma'lumoti asosida aqlini ishga solganda aqli unga shunday deydi: bola boqib yoshligingni xazon qilma, uni o'zgalarga sun'iy ovqatlar bilan boqtir. Eskiligi qoloqligi, tufayli onang yo'l qo'ygan xatoni takrorlama. Ko'chada o'yna, kul! Xotinlarning senga havasi kelsin, erlarning esi ketsin! Bu ona shunga amal qiladi.

Ammo ma'lumotsiz, lekin mehrli onaning bolaga bo'lgan mehri mazkur oqilaning aqlini beganmaydi va butun vujudini bola tarbiyasiga bag'ishlaydi. Bunday onalar o'zgalarning bolasini ham o'z bolalariday ko'radilar. Bularning oqibatiga kelsak, mehrsizning aqli rohat deb tushuntirgan barcha narsalar azob bo'lib chiqadi. Mehrlining mehri mehrsizning ko'ziga azob bo'lib ko'ringan narsalarning haqiqiy rohat ekanligini aqliga ma'lum qiladi.

Mehr haqiqiy ishqning jamiyat va undagi har bir shaxsning yaxshi turmush kechirishi uchun ulug' ahamiyati bo'lgan kichik bir uchqunidir. Binobarin Navoiyning telba ko'nglidagi ma'naviy ishqning cheksiz ijtimoiy va shaxsiy ahamiyati bor.

Navoiyning ishqiy iste'dodi kuchli bo'lgani va uning ko'ngli go'zallikka telbalarcha intilgani uchun uchragan har bir narsa, jumladan ot mingan yigit ham, uning oti ham, ularning har bir harakati ham ipi o't uchqunlaridan iborat kamand bo'lib uni ishq makoniga, ya'ni haqiqiy ishqqa tortar ekan.

G'azalning to'rtinchi baytidagi so'zlar hammaga tanish. «*Ani ko'rkim*» degandagi «*ani*»dan murod mahbub emas, holatdir. Navoiy mana bu holatni ko'rkim, manzurning nazarida men telba bo'lganim uchun uning vafosiga loyiq emasman, ammo jafo qilishga kelganda eng loyig'i menman va hech kimga ul pariypaykar menga bo'lganchalik jafo qilmaydi. Vafo qilish kerak bo'lganda bu telba, bunga vafo qilib bo'lmaydi, deydi. Ammo jafo vaqtida shart qo'yilmaydi.

Beshinchi baytdagi, «*may-i ravshan*»dan murod haqiqiy pok ishqdir. Ravshan so'zi «*sofiy*» so'zining ma'nodoshi qilib ishlatilgan. Har bir narsaning, jumladan mayning quyqasiz qismi «*sofiy*» deb ataladi, quyqasi «*durd*» yoki «*durdi*» deyiladi. Bu o'rinda «*ravshan*» so'zining ishlatilishiga sabab baytda «*tiyra*», so'zining borligidir. Shayx shoirning ko'nglini tiyra, ya'ni xira qilgan. «*Dam*» so'zining ishlatilishiga sabab, ko'zguga dam urilsa, u xiralashadi. Shayxning afsundan iborat, ya'ni haqiqatga zid nasihati oshiqning ko'nglini dam ko'zguni xira qilganday xira qilibdi. Zidi tiyra ko'ngulni ravshan qilish kerak.

Buning uchun «*may-i ravshan*», ya'ni pok ishq lozim. Bunday ishq mayini soqiy, ya'ni haqiqiy ishq ustodi ichiradi, «*Shayx*»dan murod riyoiy shayx, ya'ni qallob tariqatchi, «*pand*» nasihat degani.

Demak tovlamachilik bilan pirlik da'vosini qiluvchi shayx damu afsun, ya'ni dam solib sehlash yo'li bilan Navoiyning ko'nglini unga bu telbalik yo'lidan qayt, deb izhor-i pand, ya'ni nasihat, qilib tiyra qilibdi. Shuning uchun shoir may-i ravshan tut ey soqiy deb, beg'araz ishq ustodidan pok ishq ta'limi bilan ko'nglini ravshan qilishni iltimos qilmoqda.

Oltinchi baytdagi «*no'sh*» «*zahr*»ning, ya'ni «*zahr*»ning ziddi. Shifobaxsh, hayotbaxsh va shirin narsalar, jumladan asal «*no'sh*» deyiladi. «*Tong ermas*» ajab emas, ya'ni hayron qoladigan joyi yo'q, oddiy va tabiiy hol degani. Baytda Navoiy manzuriga qarab, har gal men jon achchig'idan kulib qo'yganimga dil bir shirin tabassum qilsa, buning ajablanarli yeri yo'q, chunki sening labingda no'sh, mening og'zimda ayriliq zahri bor, deydi. Shoir bu o'rinda o'z yuragini rang va torlikni ham e'tiborga olib mahbubining labi bilan bog'lik qilib qo'ygan. Oshiq yuragining

kayfiyati ma'shuq labining kayfiyatiga bog'lik. Bu nisbat berishda haqiqatdan iborat **husn-i ta'lil** bor.

Muhibda bir-birini inkor qiluvchi azob va rohat beruvchi ikki holat yuz bermoqda. Bu ajablanarli hol. Ammo shoir buning ajablanarli yeri yo'q, deydi. Chunki hajr tufayli kelayotgan azob kishining jismoniy jihati bilan cheklangan. Mahbub tabassumidan yurakka yetgan ruhiy lazzat esa, kishining ma'naviy jihati bilan bog'liq bo'lib, u jismoniy azobni ham rohatga aylantiradi.

Yettinchi baytda mahbubning la'lga o'xshash qizil labini unga malohat bag'ishlovchi qora xol bilan bezagan xoliq mening jonimni ham ishq dog'i bilan bahramand qildi, deyilgan.

Mahbubning labi ham muhibning joni ham bir qora nuqtadan bahramand. Ammo biriniki malohat xoli, ikkinchisidiki ishq dog'i. Lekin bu dog' bo'lishiga qaramasdan ishq dog'i bo'lgani va husn sababchisi bo'lmish xolga nisbati borligi uchun u lazzat manbai, shuning uchun shoir «meni bahramand etmish» deydi.

Sakkizinchi baytdagi «ozodavash» ozodasifat, ozodalar sifatiga ega bo'lgan degani. Salbiy sifatlardan ozod bo'lib ijobiy xislatlarni kasb qilgan pok, sahovatli va karomatli kishi «ozoda» deyiladi.

Sarv tik va doim ko'karib turadigan xushmanzara daraxt. Sarv daraxtlarning ozodasi hisoblanadi, chunki u xazon bo'lmaydi va kishilarga quvvat bag'ishlaydi. Bog'dan murod ham sarv o'sgan bog', ham inson o'sadigan dunyo. Kimki bu dunyoda bog'dagi sarvdek turli illatlardan xoliy bo'lib, yurti obodu elni xushnud qilsa, qazo dehqoni, ya'ni olamni ko'kartirib yashnatuvchi qonuniy kuchlar uning o'zini ham sarvdek yashnatib ko'kartirib shodu hurram qiladi.

G'azalning maqtaidagi «zalil» xor degani. «Arjumand»ning asli «arjmand» bo'lib, «mustamand»da «a» orttirilgandek bunda ham talaffuzga qulay bo'lgani uchun «u» orttirilgan. Baytning mazmuni ravshan. Bu o'rinda visol umididan kechishga da'vat qilinganda, visol muyassar bo'lmagan taqdirda ham mahbub yodining o'zi ham kamol yo'lidagi taraqqiyotga sabab bo'lishi nazarda tutiladi.

QORAKO'Z KIM?

Muhtaram o'quvchilar, Navoiyning quyidagi g'azalini o'qigansiz va ashulasini ko'p eshitgansiz:

*Qorako'zum kelu mardumlug' emdi fan qilg'il,
Ko'zum qorasida mardum kibi vatan qilg'il!*

*Yuzung guliga ko'ngul ravzasin yasa gulshan,
Qading niholig'a jon gulshanin chaman qilg'il!*

*Takovaringga bag'ir qonidin xino bog'la,
Itingga g'amzada jon rishtasin rasan qilg'il!*

*Firoq tog'ida topilsa tufrog'im, ey charx,
Xamir etib yana ul tog'da ko'hkan qilg'il.*

*Yuzung visolig'a yetsun desang ko'ngullarni
Sochingni boshdin ayog' chin ila shikan qilg'il!*

*Xazon sipohig'a, ey bog'bon, emas moni'
Bu bog' tomida gar ignadin tikan qilg'il.*

Yuzida terni ko'rib o'lsam, ey rafik, meni

Gulob ila yu-vu gul bargidin kafan qilg'il!

*Navoiy anjuman-i shavq jon aro tuzsang,
Aning bashag'lig' o'qin sham'-i anjuman qilg'il!*

Mana shu g'azalga ommaviy axborot vositalarida turlicha sharhlar berildi. Bularda ma'qul fikrlar bilan birga noma'qullari ham bayon etildi. Shulardan biri Navoiyning manzurini yigit emas, qiz deb tushuntirish, ikkinchisi eng noma'quli inson emas, xudo deb talqin qilish bo'ldi. Bu masalani hal etish uchun avval mazkur g'azalning shaklu mazmuni bilan tanishishimiz zarur.

G'azalning vazni mafoilun failotun mafoilun fa'lun yoki ta-nan-na-an ta-na-nan-nan ta-nan-na-nan tan-nan. Bu vazn to'rt rukndan iborat bo'lib, birinchi rukni to'rt hijodan iborat va birinchi hijosi qisqa, ikkinchisi cho'ziq, uchinchisi qisqa va to'rtinchisi cho'ziqdir. Ikkinchi rukni ham to'rt bo'g'indan iborat, lekin hijolarning sifat tartibi boshqacha. Bunda birinchi va ikkinchi hijolar qisqa, uchinchi, to'rtinchi hijolar cho'ziq. Uchinchi rukn birinchi ruknning aynan o'zi. To'rtinchi rukn esa ikki cho'ziq hijodan iborat. Bu ruknning birinchi hijosi bir she'rning o'zida ikki qisqa hijodan iborat bo'lishi ham mumkin.

She'rni tushunib va vazni bilan o'qish she'r o'qish odobining muhim shartlaridandir. Undan tashqari g'azal ovozni goh past va goh baland qilib, kuchanib o'qilmaydi. Uni vazni bilan bir maromda o'qiladi. Sermazmun murakkab baytlarning birinchi misrasini qaytarib ikki marta o'qish ham mumkin. G'azal matlaining taqti shunday:

Qo-ra-ko'-zum ke-lu mar-dum li(g'am-di-fan qil(g'il

Ko'-zum(qo-ra si-da-mar-dum ke-bi-va-tan qil(g'il.

Bayt «qorako'zum» degan murojaat bilan boshlanadi. Bu so'zning baytdagi «*mardum*», «*mardumlug'*» va «*ko'zum qorasi*» so'zlariga nisbati bor. Shuning uchun Navoiy o'z manzuriga, masalan, «*dilo*», «*e jon*» yoki boshqa biror so'z bilan murojaat qilmasdan, «qorako'zum» deb murojaat etgan. «*Mardum*» deb aytiladigan ikkita so'z bor, biri «*xalq*» va «*kishi*» ma'nosida, ikkinchisi ko'z qorachig'i ma'nosida. Navoiy mazkur baytda shu ikki so'zning, shakldoshligidan foydalanib, birlashtirib ishlatgan. Bu san'at hisoblanadi va «*iyhom*» deb ataladi. «*Fan qilmoq*» baytda «*odat qilmoq*» ma'nosida ishlatilgan. «*Fan*» so'zining hunar, kasb ma'nosi bor, hunar doimiy mashg'ulot bo'lgani uchun bu so'zning «*odat*» so'zi bilan ma'nodoshligi bor. «*Vatan qilmoq*» o'rnashib olmoq ma'nosida ishlatilgan.

Demak Navoiy baytda ey mening qora ko'zligim, kel endi mardumlug'ni, ya'ni ko'z qorachig'i bo'lishni va kishilikni odat qil va mening ko'zimning qorasida mardum, ya'ni ko'z qorachig'i kibi va kishilar singari o'rnashib ol, degan fikrni bayon qilgan. Kishilikni odat qil, kishi kabi deyishdan murod pari yoki farishta o'xshab ko'zdan g'oyib bo'lma deyishdir. Bunda manzurning nodirligiga ham ishora bor.

Ko'zimning qorachig'i bo'l deyishdan maqsad ko'z o'ngimdan ketma deyishdir. Kishining ko'z o'ngidan go'zal suvratning ketmasligi uning ma'naviy kamoliga sabab bo'ladi.

G'azalning ikkinchi bayti shunday o'qiladi:

Yu-zung-gu-li ga-ko'n-gul-rav za-sin-ya-sa gul-shan

Qa-ding-ni-ho li(g'a-jon-gul sha-nin-cha-man qil(g'il

Shoir manzurining yuzini gulga o'xshatgan. Gul so'zining birinchi ma'nosi atrguldir. Yuz qizilligi va tarovati e'tibori bilan gulga, ya'ni jaydari atrgulga o'xshatiladi. «*Ravza*» bog' degani. Shoir o'z ko'nglini, ya'ni ichki olamini ravzaga, boqqa o'xshatgan. Ikkinchi misrada Navoiy manzurining qaddini nihol, ya'ni ko'chatga, o'z jonini gulshanga tashbih qilgan.

Bu baytda shoirning yuzing guli bilan ko'ngul bog'ini gulzor qil va qading niholi bilan jon gulshanini chaman qil deyishdan maqsadi shuki, kishining ko'z o'ngidan ketmaydigan go'zal suvrat ko'z qorachig'i orqali ko'ngulga o'tadi va uni bog'day obod qiladi. Agar buning aksi bo'lsa, ko'ngul fasod bilan to'ladi. Obod ko'ngul ham shu ko'ngul egasiga, ham o'zgalarga yaxshilik keltiradi. Fasod ko'ngul esa turli balolarga giriftor qiladi.

G'azalning uchinchi baytining o'qilishi tubandagicha:

Ta-ko-va-ring g'a-ba(g'ir(qo ni-din-xi-no bog'(la

I-ting-ga(g'am za-da-jon-rish ta-sin-ra-san qil(g'il

«Takovir» deb otning chopqir turiga aytiladi, «bag'ir» jigar degani, «g'amzada» g'am urgan, ya'ni g'amda qolgan degan ma'noda, «rishta» ip, «rasan» arqon, bog' degani. Shoir bu baytda otni bo'yash uchun xino o'rniga bag'rim qonini berishga, itingni boylash uchun jonimning ipini bog' qilishga hozirman demoqda. Bu xalqimizda «egasini siylagan itiga suyak tashlar» degan maqolga mos keladi. Do'st o'z do'stining faqat o'zini emas, unga tegishli narsalarni ham do'st tutishi kerak. Albatta yaxshining hamma narsasi yaxshi bo'lishi ham bor. «Mol egasiga o'xshar» yoki «mol egasiga o'xshamasa, harom o'lar», degan maqol ham bor.

G'azalning to'rtinchi bayti quyidagicha o'qiladi:

Fi-ro(q(tog' g'i-da-to-pil sa-tuf-ro(g'im ey-charx

Xa-mi-re-tib ya-na-ul-tog' da-ko'-h-kan qil(g'il

Bu baytda firoq, ya'ni ayriliq tog' qazish mehnatiga o'xshatilgan. «Ko'hkan» tog' qazuvchi, degani, tog' qazuvchi deganda Farhod esga keladi, shuning uchun «ko'hkan» deganda Farhod ham nazarda tutilishi mumkin. «Xamir etmak» qormoq ma'nosida ishlatilgan.

Agar kishining maqsadi Farhodnikidek tog'ni qazish natijasida hosil bo'ladigan bo'lsa, lekin Farhoddan farqli o'laroq bu tog'ni qazish umr yetmaydigan darajada qiyin bo'lsa, u maqsad yo'lida tuproqqa aylanishi mumkin. Navoiy mana shu holda ham maqsadga erishishga harakat qilaman, sodda qilib aytganda o'lsam ham shu yo'ldan qaytmayman, deydi. Bunga menga yangidan umr berilsa ham, mana shu ishimni davom ettirgan bo'lar edim degan fikr ham bor. Kishi maqsad yo'lida halok bo'lsa, umr bekorga ketmagan hisoblanadi. Shuning uchun shoir charxga, ya'ni aylanma harakatga ega bo'lgan olamga murojaat etib, aylanib mening tuprog'imga yana odam bo'lish navbati kelsa, meni yana firoq tog'ining ko'hkani qilib tiriltir, yo'limda tog'day g'ovlar bo'lsayu, bu yo'lning azoblari tog' qazib yo'l ochishday qiyin bo'lsa ham, maqsaddan voz kechmayman deydi.

G'azalning beshinchi baytining o'qilishi shunday:

Yu-zung-vi-so li(g'a-yet-sun de-sang-ko'n-gul lar-ni

So-ching-ni-bosh ti-no-yog'(chin i-la-shi-kan qil(g'il

Bu baytda «chin ila shikan» gajak va jingalak degan ma'noda. Shoir manzurga murojaat qilib, ko'ngullar yuzungga yetishsin, yuzungdan ko'ngullar lazzatlansin desang sochingni boshdin oyoq jingalak qilib tashla, demoqchi. Nega shunday demoqda? Chunki oshiqning oxirgi maqsadi ma'shuqning yuzini ko'rishdan iborat. Hech kim o'z do'stini ko'rgani borsa, uning bilan yuzlashmasdan orqasidan yoki yonidan ko'rib, bo'ldi ko'rdim, deb orqasiga qaytmaydi. Do'st do'stining yuzini ko'rgandagina uning ma'naviy tashnaligi qonib, ko'ngli taskin topadi. Soch yuz bilan tutash bo'lgani uchun yuzni ko'rish umidida bo'lgan kishining ko'nglini iztirobga ham soladi va uni ko'rish umidini ham kuchaytiradi. Jingalak sochning oddiy sochga nisbatan mazkur xususiyati kuchliroq va jozibasi ortiqroq bo'ladi. Bunda jingalakka ilinish, osilish imkoniyati ko'pligi ham nazarda tutiladi. Buning yana bir ma'no jihati bor. Soch maqsadga erishish yo'llarini bildirar ekan, jingalaklik chigallik va qiyinlikni anglatadi. Yo'l azobi qancha ortiq bo'lsa, maqsadga erishish rohati shuncha lazzatliroq bo'ladi. Mehnatsiz muyassar bo'lgan narsa kishiga lazzat bag'ishlamaydi.

G'azalning oltinchi bayti quyidagicha o'qiladi:

Xa-zon-si-po hi(g'a-ey-bo g'(bo-ne-mas mo-ni'

Bu-bo(g'(to mi-da-gar-ig na-din-ti-kan qil(g'il

Bu baytda kuz izg'irinin bog'ni xazon qilishi shahar devoridan oshib yopirilib kelib shaharni vayron qiluvchi sipohga o'xshatilgan «Tom» so'zining birinchi ma'nosi devordir. Shux bolalar bog' devoridan oshib tushib bog'ni payxon qilmasligi uchun devor ustiga tikan o'rnatish odati bor. Navoiy kuz kelgach, bog'ni xazon ta'siridan devorning tikanini ignadan qilsang ham saqlab qolib bo'lmaydi, deydi. Nega shunday deydi? Bu bilan Navoiy ikkinchi baytda aytilganidek inson yuzining guli va uning qaddini niholidan vujudga kelgan ko'nguldagi ma'naviy bog' abadiy, unga fasllarning ta'siri yo'q, lekin moddiy bog' bu muvaqqat narsa, demoqchi,

Muvaqqat narsaga ishq qo'yib, shu tufayli o'zga kishilarga zarar yetadigan ishlarni qilib bo'lmaydi. Moddiy narsalarni insondan aziz deb bilish kishini haqiqat yo'lidan ozdiradi.

Yettinchi baytning o'qilishi:

Yu-zi: -da-ter ni-ko'-rup-o'l sa-mey ra-fi: q(me-ni
Gu-lob-la yu-vu-gul-bar gi-din-ka-fan qil(g'il

«*Gulob*», ya'ni gul suvi deb atrguldand olinadigan moyga aytiladi. Shu moy qo'shilgan ichimlik ham «*gulob*» deb ataladi. Ammo bu yerda gul moyining o'zi nazarda tutilgan. Manzurning yuzi gulga va yuzdagi ter guldand chiqqan gulobga o'xshagani uchun shoir shular tufayli o'lsa, meni gulob bilan yuvib, kafanimni gulbarigidan qilg'il, degan. Nega shoir yuzdagi terni ko'rganda o'ladi, degan savol tug'ilishi mumkin. Go'zal yuzda ter paydo bo'lganda, ayniqsa u mehnat teri bo'lsa, husn ustiga husn bo'ladi va buni ko'rgan oshiqning shavqidan joni tanasidan chiqadi.

G'azalning maqtai, ya'ni oxirgi bayti shunday o'qiladi:
Na-vo-yiy-an ju-ma-n: i-shav q(jo-na-ro tuz-sang
A-ning-ba-shag' li(g'o'(qin-sham 'i-an-ju-man qil(g'il

Boshoq, ya'ni o'q uchi shaklan sham'ning tunggi anjumandagi vazifasini, ya'ni yoritish va shu bilan anjumanni qizitish xizmatini kishining jonidagi shavq anjumanida ma'shuqning o'qi o'taydi, deydi. O'qdan murod ma'shuq tufayli oshiqqa yetadigan jabru jafolaridir. Haqiqiy do'st do'sti uchun qancha qiynalsa, oradagi muhabbat shuncha ortiq bo'ladi. «Do'st uchun zahar yut». «Jon chekmasang jonona qayda» degan maqollarning ma'nosi ham shu. Oshiqning ishqini kamolga yetkazadigan narsa ham azobdir. Shuning uchun Navoiy o'ziga xitoban qorong'i ko'ngilni yoritib, unda shavq paydo qilib, ishqdan bahramand bo'lishni istasang, bu vazifani o'tirishda sham' bajarsa, ko'ngilda bu ishni ma'shuqning o'qi, ya'ni undan sening ko'nglingga sanchiladigan ishq azobi o'taydi, deydi.

Endi Navoiyning bu g'azaldagi manzuri insonmi yoki xudomi, degan masalani hal qilaylik. «Qorako'zum»ni xudo deb tushinish, birinchidan ilmiy ma'lumotning yetishmasligi natijasida vujudga kelgan taassub, ikkinchidan faqlfuruslikka bo'lgan intilish natijasidir. Hech kim, jumladan, Navoiy shaklsiz oliy vujudga «qorako'zim» deb murojaat qilmaydi, undan inson qiyofasiga kirishni talab qilmaydi va uning «yuzidagi ter»ni ko'rib o'lmaydi.

Navoiyning hamdiyalari, ya'ni Haq taologa bag'ishlangan she'rlari bor, lekin ularning o'z o'rni va o'ziga xos shakl bildirmaydigan so'z va iboralari mavjud, masalan, shoir

*Zihe husnuning zuxuridin tushup har kimga bir savdo,
Bu savdolar bila kavnayn bozorida yuz g'avg'o.*

deydi. Mana bu yerdagi husn Haq taoloning husnidir. Agar bu husn ko'z yoki qosh singari shakliy tus olsa, uning egasi Haq taolo emas, jism bo'ladi, mahluqot husni Haq taolo husnining zuhuridan, iborat. Mavjudot, xususan inson yuzi Haq taolo jamolining mazhari hisoblanadi. Ammo bu «qaroko'z»ni Xudo deyishga asos bo'lolmaydi. Mazhar bo'lmish insonni zohir, ya'ni Haq taolo deb tushinish ko'zguni kishi deb bilish hukmidadir.

Endi Navoiyning bu g'azalidagi manzuri yigitmi, qizmi degan savolga yigit deb javob berishimiz kerak bo'ladi. Chunki it bilan o'qdan uning ovchiligi ma'lum. Uning yigitligini tan olmaslikka harakat qilish Navoiyning ishqni ma'naviy ishq ekanligini hisobga olmaslik natijasidir. Ma'naviy ishqda jins va yoshning ahamiyati bo'lmaydi. Yosh oshiqning ma'shuqi bir nuroniy chol yoki kampir, qari nozirning manzuri yosh o'g'lon yoki qiz bo'lishi mumkin. Chunki shoir Navoiy

*Ishq ahli-ki, manzurdir istarlar kom
Ul kom kerak-ki, bir nazar bo'lsa tamom
Gar bo'lsa nazarasida andesha-yi xom
Ko'zlarga nazar dag'i harom o'ldi harom.*
deganlar.

X O T I M A

Muhtaram o'quvchilar, qo'lingizdagi risolada bobolarimiz yaratgan ilm xazinalaridan ozgina ma'lumot berildi. Lekin shuning o'zi ilmiy merosimizning naqadar sinchiklab o'rganishga loyiq boy xazina ekanligini ko'rsatib turibdi. Millatning kelajagini belgilovchi siz bugungi o'quvchi va toliblar bobolarimiz o'z zurriyotining saodatini o'ylab, halovatidan kechib, yaratgan shoh asarlarini qunt bilan tadqiq qilib, ulardan faoliyatingizda samarali foydalanishingiz zarur. Bu baxtga muyassar bo'lishingiz uchun sizdan quyidagilar talab qilinadi:

- Hayvoniy nafsni jilovlab, insoniy nafsni kuchaytirish;
- Yovuz xislatlarni ezgu xislatlar bilan almashtirish;
- Ilmu hunarni erinchoqlik qilmasdan tirishqoqlik bilan o'rganish va bugungi ishni ertaga qoldirmaslik;
- Ilm olganda uning ahamiyati hisobga olish;
- Tahsil vaqtida va tahsilning o'zida yuz beradigan qiyinliklarga chidash hamda boriga qanoat qilish;
- Bir ilmu fan bilan cheklanmay, iloji boricha ko'proq egallash;
- Ilmni ilmu xolis niyat bilan o'rganish. Uni suiste'mol qilmaslik va ilmga zid maqsadlarga vosita qilmaslik. Navoiyning quyidagi baytini esdan chiqarmaslik:

*Ilmni kim vosita-yi joh etar
O'ziniyu xalqini gumroh etar*

VASSALOM